

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JINOYAT KODEKSI

## UMUMIY QISM

### BIRINCHI BO‘LIM UMUMIY QOIDALAR

#### I bob. Jinoyat kodeksining vazifalari va prinsiplari

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **1-modda. O‘zbekiston Respublikasining jinoyat to‘g‘risidagi qonunchiligi**

O‘zbekiston Respublikasining jinoyat to‘g‘risidagi qonunchiligi **Konstitutsiya** va xalqaro huquqning umum e‘tirof etgan normalariga asoslangan bo‘lib, ushbu Kodeksdan iboratdir.

*(1-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

#### **2-modda. Kodeksning vazifalari**

Jinoyat kodeksining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoyiy tajovuzlardan qo‘riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika **Konstitutsiyasi** va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13, 15, 20 va 48-moddalari.*

Ana shu vazifalarni amalga oshirish uchun Kodeks javobgarlikning asoslari va prinsiplarini, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligini aniqlaydi, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jazo va boshqa huquqiy ta‘sir choralarini belgilaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 3, 14, 42, 43,88 va 93-moddalari.*

#### **3-modda. Kodeksning prinsiplari**

Jinoyat kodeksi qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga asoslanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 4 — 10-moddalari.*

#### **4-modda. Qonuniylik prinsipi**

Sodir etilgan qilmishning jinoyiyliги, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 14, 42, 43 va 77-moddalari.*

Hech kim sudning hukmi bo‘lmay turib jinoyat sodir qilishda aybli deb topilishi va qonunga xilof ravishda jazoga tortilishi mumkin emas. Jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxs qonunda belgilangan huquqlardan foydalanadi va majburiyatlarni bajaradi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasining birinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 23-moddasining birinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni 10-moddasining ikkinchi qismi va O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 2-bobi (“Mahkumlarning huquqiy holati”).*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: sud amaliyoti.*

### **5-modda. Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi**

Jinoyat sodir etgan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat‘i nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo‘lib, qonun oldida tengdirlar.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 18-moddasining birinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 16-moddasi.*

### **6-modda. Demokratizm prinsipi**

Jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yoki jamoalar jinoyat sodir etgan shaxslar axloqini tuzatish ishiga qonunda nazarda tutilgan hollarda jalb qilinishlari mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi 1-moddasi ikkinchi qismining yettinchi xatboshisi, 7 va 99-moddalari.*

### **7-modda. Insonparvarlik prinsipi**

Jazo va boshqa huquqiy ta‘sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko‘zlamaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 26-moddasining ikkinchi qismi.*

Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo‘ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta‘sir chorasi qo‘llanilishi kerak.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeks 42-moddasining ikkinchi qismi.*

Jazolashdan ko‘zlangan maqsadga ushbu Kodeks **Maxsus qismining** tegishli moddalarida nazarda tutilgan yengilroq choralarni qo‘llash orqali erishib bo‘lmaydigan taqdirdagina og‘irroq jazo choralari tayinlanishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeks Umumiy qismining XI bobi (“Jazo tayinlash”).*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi 07-sonli “Sud hukmi to‘g‘risida”gi qarorining 28-band.*

## 8-modda. Odillik prinsipi

Jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi odilona bo'lishi, ya'ni jinoyatning og'ir-yengilligiga, aybning va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo'lishi kerak.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeks 15-moddasi, V bobi, 54-moddasining ikkinchi qismi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 1-bandi.*

Hech kim aynan bitta jinoyat uchun ikki marta javobgarlikka tortilishi mumkin emas.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi 07-sonli "Sud hukmi to'g'risida"gi qarori 29-bandining birinchi xatboshisi.*

## 9-modda. Ayb uchun javobgarlik prinsipi

Shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo'ladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining uchinchi bo'limi ("Dalillar va isbot qilinishi lozim bo'lgan holatlar").*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi 24-sonli "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi 07-sonli "Sud hukmi to'g'risida"gi qarorining 4 — 6-bandlari.*

## 10-modda. Javobgarlikning muqarrarligi prinsipi

Qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qarori.*

## II bob. Kodeksning amal qilish doirasi

### 11-modda. Kodeksning O'zbekiston hududida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan amal qilishi

O'zbekiston hududida jinoyat sodir etgan shaxs ushbu Kodeks bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

Qilmish:

- a) O'zbekiston hududida boshlangan, tamomlangan yoki to'xtatilgan bo'lsa;
- b) O'zbekiston hududidan tashqarida sodir etilib, jinoiy oqibati esa, O'zbekiston hududida yuz bergan bo'lsa;

v) O‘zbekiston hududida sodir etilib, jinoiy oqibati esa, O‘zbekiston hududidan tashqarida yuz bergan bo‘lsa;

g) bir necha qilmishlardan iborat yoki boshqa qilmishlar bilan birgalikda sodir etilgan bo‘lib, uning bir qismi O‘zbekiston hududida yuz bergan bo‘lsa, O‘zbekiston hududida sodir etilgan jinoyat deb topiladi.

O‘zbekiston bayrog‘i ostidagi yoki O‘zbekiston portida ro‘yxatga olingan havo, dengiz yoki daryo kemasida O‘zbekiston hududidan tashqarida bo‘lib, chet el davlati hududi hisoblanmagan joyda jinoyat sodir etilsa, bunday jinoyat uchun ushbu Kodeks bo‘yicha javobgarlikka tortiladi.

Amaldagi qonunlar, xalqaro shartnomalar yoki bitimlarga muvofiq chet el fuqarolarining javobgarligi to‘g‘risidagi masala O‘zbekiston Respublikasi sudlariga tegishli bo‘lmasa, ular O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoyat sodir etgan holda, xalqaro huquq normalariga muvofiq hal qilinadi.

### **12-modda. Kodeksning O‘zbekiston hududidan tashqarida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan amal qilishi**

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O‘zbekistonda doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, basharti boshqa davlat hududida sodir etgan jinoyat uchun o‘sha davlat sudining hukmi bilan jazolangan bo‘lmasalar, ushbu Kodeks bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar.

O‘zbekiston fuqarosi chet el davlati hududida sodir etgan jinoyati uchun, agar xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushlab berilishi mumkin emas.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonunining 11-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 601-moddasi.*

Chet el fuqarolari, shuningdek O‘zbekiston hududida doimiy yashamaydigan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston hududidan tashqarida sodir etgan jinoyatlari uchun faqat xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda nazarda tutilgan hollardagina ushbu Kodeks bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar.

### **13-modda. Qonunning vaqt bo‘yicha amal qilishi**

Qilmishning jinoiyligi va jazoga sazovorligi ana shu qilmish sodir etilgan vaqtda amalda bo‘lgan qonun bilan belgilanadi. Agar ushbu Kodeks moddasida harakat yoki harakatsizlik sodir qilish payti jinoyat tamomlangan payt deb hisoblangan bo‘lsa, ijtimoiy xavfli qilmish bajarilgan payt jinoyat sodir qilingan vaqt deb topiladi. Agarda ushbu Kodeks moddasida jinoiy oqibat yuz berishi bilan jinoyat tamom bo‘lgan deb hisoblangan bo‘lsa, jinoiy oqibat yuz bergan payt jinoyat sodir etish vaqti deb topiladi.

Qilmishning jinoiyligini bekor qiladigan, jazoni yengillashtiradigan yoki shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yaxshilaydigan qonun orqaga qaytish kuchiga ega, ya‘ni ushbu qonun kuchga kirgunga qadar tegishli jinoiy qilmish sodir etgan shaxslarga, shu jumladan jazoni o‘tayotgan yoki o‘tab bo‘lgan shaxslarga nisbatan, agar ular hali sudlangan hisoblansalar, tatbiq etiladi.

Qilmishni jinoyat deb hisoblaydigan, jazoni kuchaytiradigan yoki shaxsning holatini boshqacha tarzda yomonlashtiradigan qonun orqaga qaytish kuchiga ega emas.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunining 31-moddasi.*

## **IKKINCHI BO‘LIM JAVOBGARLIK ASOSLARI**

### **III bob. Jinoyat**

#### **14-modda. Jinoyat tushunchasi**

Ushbu Kodeks bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahtidi bilan jinoyat deb topiladi.

Ushbu Kodeks bilan qo‘riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish deb topiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeks 2-moddasining birinchi qismi.*

#### **15-modda. Jinoyatlarni tasniflash**

Jinoyatlar o‘z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra: ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan; uncha og‘ir bo‘lmagan; og‘ir; o‘ta og‘ir jinoyatlarga bo‘linadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

*(15-moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

Og‘ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq, lekin o‘n yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘ta og‘ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda o‘n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoxud umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

*(15-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagi O‘RQ-99-sonli Qonuni tahririda — Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-y., 6-son, 248-modda)*

#### **16-modda. Jinoyat uchun javobgarlik va uning asoslari**

Jinoyat uchun javobgarlik — jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi qo‘llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 88 va 93-moddalari.*

Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo‘lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 14-moddasining birinchi qismi.*

#### **IV bob. Javobgarlikka tortilishi lozim bo'lgan shaxslar**

##### **17-modda. Jismoniy shaxslarning javobgarligi**

Jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar javobgarlikka tortiladilar.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(17-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-dekabrda O'RQ-735-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.12.2021-y., 03/21/735/1141-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jinoyat sodir etgunga qadar o'n to'rt yoshga to'lgan shaxslar ushbu Kodeks 97, 98, 104 — 106, 118, 119, 137, 164 — 166, 169-moddalari, 173-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlari, 220, 222, 247, 252, 263, 267, 271-moddalari, 277-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladilar.

*(17-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-dekabrda O'RQ-735-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.12.2021-y., 03/21/735/1141-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ushbu Kodeksning 122, 123, 125<sup>1</sup>, 127, 127<sup>1</sup>, 128<sup>1</sup>, 144, 146, 193 — 195, 205 — 210, 225, 226, 230 — 232, 234, 235, 279 — 302-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun jinoyat sodir etgunga qadar o'n sakkiz yoshga to'lgan shaxslar javobgarlikka tortiladilar.

*(17-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-fevralda O'RQ-673-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.02.2021-y., 03/21/673/0112-son)*

O'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar jinoyat sodir etgan shaxslar umumiy qoidalarga muvofiq va ushbu Kodeksning Umumiy qismi oltinchi bo'limida nazarda tutilgan xususiyatlar hisobga olingan holda javobgarlikka tortiladilar.

##### **18-modda. Aqli rasolik**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jinoyat sodir etish vaqtida o'z harakatlarining (harakatsizligining) ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan va ularni boshqara olgan shaxs aqli raso shaxsdir.

Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish vaqtida aqli noraso holatda bo'lgan, ya'ni ruhiy holati surunkali yoki vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoxud ruhiy holati boshqacha tarzda buzilganligi sababli o'z harakatlarining (harakatsizligining) ahamiyatini anglay olmagan yoki ularni boshqara olmagan shaxs javobgarlikka tortilmaydi.

Aqli norasolik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlanishi mumkin.

*(18-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 12-sentabrda O'RQ-567-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019-y., 03/19/567/3737-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeks Umumiy qismining yettinchi bo'limi ("Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari"), O'zbekiston Respublikasining "Psixiatriya yordami to'g'risida"gi Qonunining 15-moddasi.*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 12-dekabrda 23-sonli "Ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori.*



*Oldingi tahrirga qarang.*

## **18<sup>1</sup>-modda. Aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxsning javobgarligi**

Jinoyat sodir etish vaqtida ruhiy holati buzilganligi tufayli o'z harakatlarining (harakatsizligining) ahamiyatini to'liq darajada anglay olmagan yoki ularni boshqara olmagan aqli raso shaxs javobgarlikka tortiladi.

Aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxsga nisbatan sud tomonidan jazo bilan birga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlanishi mumkin.

*(18<sup>1</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 12-sentabrdagi O'RQ-567-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019-y., 03/19/567/3737-son)*

## **19-modda. Mastlik holatida sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlik**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Mastlik holatida yoki giyovandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoki odamning aql-irodasiga ta'sir etuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida jinoyat sodir etgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinmaydi. Bunday holat shaxsni aqli noraso deb topish uchun asos bo'lmaydi.

*(19-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

## **V bob. Ayb**

### **20-modda. Aybning shakllari**

Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishni qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etgan shaxs jinoyat sodir etilishida aybdor deb topilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 21 va 22-moddalari.*

### **21-modda. Qasddan sodir etilgan jinoyat**

Ushbu Kodeks moddasida jinoyat tamom bo'lgan payt ijtimoiy xavfli qilmish bajarilgan vaqt deb hisoblangan bo'lib, uni sodir etgan shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglagan va shunday qilmishni sodir etishni istagan bo'lsa, bunday jinoyat qasddan sodir etilgan deb topiladi.

Ushbu Kodeks moddasida jinoyat tamom bo'lgan payt ijtimoiy xavfli oqibat yuz bergan vaqt deb topilgan qilmishlar to'g'ri yoki egri qasddan sodir etilgan bo'lishi mumkin.

Agar shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishini istagan bo'lsa, bunday jinoyat to'g'ri qasddan sodir etilgan deb topiladi.

Agar shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday jinoyat egri qasddan sodir etilgan deb topiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 2-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 27-iyundagi 6-sonli "Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 3-bandi.*

### **22-modda. Ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyat**

O‘z-o‘ziga ishonish yoki beparvolik orqasida sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyat deb topiladi.

Agar jinoyatni sodir etgan shaxs o‘z xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko‘zi yeta turib, ehtiyotkorlik chora-tadbirlariga ongli ravishda rioya etmagan holda bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qilgan bo‘lsa, bunday jinoyat o‘z-o‘ziga ishonish oqibatida sodir etilgan deb topiladi.

Agar jinoyat sodir etgan shaxs o‘z xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko‘zi yetmasada, lekin ko‘zi yetishi lozim va mumkin bo‘lsa, bunday jinoyat beparvolik orqasida sodir etilgan deb topiladi.

### **23-modda. Murakkab aybli jinoyat**

Agar shaxsning qasddan jinoyat sodir etishi natijasida ehtiyotsizlik orqasida boshqa ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz bergan va shunday qilmishni qonun qattiqroq javobgarlik bilan bog‘lagan bo‘lsa, bunday jinoyat qasddan sodir etilgan deb topiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli “Qasddan odam o‘ldirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 4-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 27-iyundagi 6-sonli “Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 19-bandi.*

### **24-modda. Aybsiz holda zarar yetkazish**

Agar shaxs o‘z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglamagan, anglashi mumkin va lozim ham bo‘lmagan yoki uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko‘zi yetmagan va ishning holatlariga ko‘ra ko‘zi yetishi mumkin va lozim ham bo‘lmagan bo‘lsa, bunday qilmish aybsiz holda sodir etilgan deb topiladi.

## **VI bob. Tamom bo‘lmagan jinoyat**

### **25-modda. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish**

Shaxsning qasddan qilinadigan jinoyatni sodir etish yoki yashirish uchun shart-sharoit yaratuvchi qilmishi o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra sodir etilishi boshlangunga qadar to‘xtatilgan bo‘lsa, bunday qilmish jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish deb topiladi.

Qasddan sodir etiladigan jinoyat boshlanib, shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra oxiriga yetkazilmagan bo‘lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd deb topiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli “Qasddan odam o‘ldirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 3-bandi.*

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rganlik va jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun javobgarlik ham ushbu Kodeks **Maxsus qismining** tamom bo‘lgan jinoyat uchun javobgarlikni belgilovchi moddasiga muvofiq hal qilinadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 5-maydagi 13-sonli “Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to‘g‘risida”gi qarorining 13-bandi.*

### **26-modda. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish**



Shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko'rish harakatlarini yoki jinoyat sodir etishga bevosita qaratilgan harakatlarni oxiriga yetkazish mumkinligini anglagan holda to'xtatsa, shuningdek jinoiy oqibat kelib chiqishi mumkinligini anglagan holda, shunday oqibat kelib chiqishining oldini olsa, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb topiladi.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish javobgarlikni istisno qiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni 28-moddasining ikkinchi qismi.*

Jinoyatni oxiriga yetkazishdan ixtiyoriy qaytgan shaxs, agar amalda sodir etgan qilmishida boshqa jinoyat tarkibining barcha alomatlari bo'lsa, ushbu Kodeks bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

## **VII bob. Jinoyatda ishtirokchilik**

### **27-modda. Jinoyatda ishtirokchilik tushunchasi**

Ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi.

### **28-modda. Jinoyat ishtirokchilarining turlari**

Jinoyatni bajaruvchi bilan bir qatorda tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar ham jinoyat ishtirokchilari deb topiladi.

Jinoyatni bevosita to'la yoki qisman sodir etgan yoxud ushbu Kodeksga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lmagan shaxslardan yoki boshqa vositalardan foydalanib, jinoyat sodir etgan shaxs bajaruvchi deb topiladi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rilishiga yoki jinoyat sodir etilishiga rahbarlik qilgan shaxs tashkilotchi deb topiladi.

Jinoyat sodir etilishiga qiziqtiruvchi shaxs dalolatchi deb topiladi.

Jinoyat sodir etilishiga o'z maslahatlari, ko'rsatmalari bilan, vositalar berish yoki to'siqlarni yo'qotish bilan ko'maklashgan, shuningdek jinoyatchini, jinoyat sodir etish quroli, izlari va vositalarini yoxud jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan narsalarni yashirishga, shuningdek bunday narsalarni olish va o'tkazish to'g'risida oldindan va'da bergan shaxs yordamchi deb topiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi 11-sonli "Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida"gi qarori 21-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 3.1-bandining beshinchi xatboshisi va 4.1-bandining to'rtinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 12-bandining oltinchi xatboshisi hamda 14-bandining ikkinchi va uchinchi xatboshilari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 5-maydagi 13-sonli "Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to'g'risida"gi qarori 12-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 11-oktabrdagi 35-sonli "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 22-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 11-fevraldagi 1-sonli "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori 5-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 31-maydagi 08-sonli "Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi qarorining 11-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentabrdagi 18-sonli "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 15-bandining uchinchi xatboshisi.*

## 29-modda. Ishtirokchilikning shakllari

Jinoyatda ishtirokchilik: oddiy ishtirokchilik, murakkab ishtirokchilik, uyushgan guruh, jinoiy uyushma shaklida bo‘ladi.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirmay jinoyat sodir etishda qatnashishi oddiy ishtirokchilik deb topiladi.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirib jinoyat sodir etilishida ishtirok qilishi murakkab ishtirokchilik deb topiladi.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashishi uyushgan guruh deb topiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrda 37-sonli “Transport vositalarini olib qochish ishlari bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarorining 5-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 5-maydagi 13-sonli “Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to‘g‘risida”gi qarori 12-bandining uchinchi xatboshisi.*

Ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun oldindan birlashishi jinoiy uyushma deb topiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 5-maydagi 13-sonli “Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to‘g‘risida”gi qarori 12-bandining uchinchi xatboshisi.*

## 30-modda. Jinoyatda ishtirok etganlik uchun javobgarlik doirasi

Tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar ham ushbu Kodeks **Maxsus qismining** bajaruvchini javobgarlikka tortish belgilangan moddasi bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar.

Oldindan til biriktirgan guruh, jinoiy guruh va jinoiy uyushmaning tashkilotchilari hamda a‘zolari tayyorgarlik ko‘rilishi yoki sodir etilishida o‘zlari qatnashgan barcha jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladilar.

Uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tashkil etgan yoki ularga rahbarlik qilgan shaxslar shu guruh yoki uyushma sodir etgan barcha jinoyatlar uchun, basharti, bu jinoyatlar ularning jinoiy niyati bilan qamrab olingan bo‘lsa, javobgarlikka tortiladilar.

Boshqa ishtirokchilarning jinoiy niyati bilan qamrab olinmagan qilmish uchun uni sodir etgan shaxs javobgar bo‘ladi.

Tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi jinoyatdan ixtiyoriy ravishda qaytib, jinoyatning oldini olish uchun o‘ziga bog‘liq bo‘lgan barcha choralarni o‘z vaqtida ko‘rganligi, jinoyatda ishtirokchilik uchun javobgarlikni istisno qiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni 28-moddasining ikkinchi qismi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrda 13-sonli “Qasddan odam o‘ldirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 12-bandining oltinchi xatboshisi, 14-bandining ikkinchi va uchinchi xatboshilari hamda 20-bandi.*

## 31-modda. Jinoyatga daxldorlik

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rilayotganligi, jinoyat sodir etilayotganligi yoki jinoyat sodir etilganligi haqida aniq bila turib, oldindan va'da bermagan holda, hokimiyat organlariga xabar qilmaslik, ushbu Kodeksning 155<sup>1</sup> va 241-moddalarida nazarda tutilgan hollardagina javobgarlikka sabab bo'ladi.

*(31-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-apreldagi O'RQ-405-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2016-y., 17-son, 173-modda)*

Jinoyatchini, jinoyat sodir etish quroli va vositalarini, jinoyat izlarini yoki jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan narsalarni oldindan va'da bermagan holda yashirganlik ushbu Kodeksning 241-moddasida nazarda tutilgan hollardagina javobgarlikka sabab bo'ladi.

Oldindan va'da bermagan holda jinoyat haqida xabar bermaganlik yoki jinoyatni yashirganlik uchun gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining yaqin qarindoshlari javobgarlikka tortilmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi 07-sonli "Sud hukmi to'g'risida"gi qarorining 17-bandi.*

## **VIII bob. Bir qancha jinoyat sodir etish**

### **32-modda. Takroran jinoyat sodir etish**

Ushbu Kodeks **Maxsus qismining** aynan bir moddasida, qismida, Kodeksda alohida ko'rsatilgan hollarda esa, turli moddalarida nazarda tutilgan ikki yoki bir necha jinoyatni shaxs turli vaqtlarda sodir etgan, ammo ularning birortasi uchun ham sudlangan bo'lmasa, takroran jinoyat sodir etish deb topiladi. Tamom bo'lgan jinoyat ham, jazoga sazovor bo'lgan jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki jinoyat sodir etishga suiqasd qilish ham, shuningdek ishtirokchilikda jinoyat sodir etish ham takroran jinoyat sodir etish deb topiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 5-maydagi 13-sonli "Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to'g'risida"gi qarorining 2 va 14-bandlari.*

Agar shaxs ilgari sodir etgan qilmishi uchun javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilingan bo'lsa, jinoyat takroran sodir etilgan deb topilmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 5-maydagi 13-sonli "Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to'g'risida"gi qarorining 3-bandi.*

Umumiy qasd bilan qamrab olingan va yagona maqsadga yo'naltirilgan bir jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi bir-biriga o'xshash bir necha jinoiy qilmishlardan iborat bo'lgan (davomli) jinoyat takroran sodir etilgan deb topilmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 5-maydagi 13-sonli "Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to'g'risida"gi qarorining 4-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999-yil 30-apreldagi 6-sonli "O'zgarar mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 8-bandining ikkinchi va uchinchi xatboshilari.*

Vazifalarini uzoq vaqt mobaynida bajarmaslikdan iborat bo'lib, bir jinoyatning uzluksiz tarkibini tashkil qilgan (uzoqqa cho'zilgan) jinoyat takroran sodir etilgan deb topilmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 22-dekabrda 16-sonli "Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 9-bandi.*

### **33-modda. Jinoyatlar majmui**

Ushbu Kodeks **Maxsus qismining** turli moddalarida yoki bitta moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan, javobgarlikka tortiladigan ikki yoki bir necha jinoyiy qilmishni sodir etish, agarda ulardan birortasi uchun ham shaxs sudlangan bo'lmasa, jinoyatlar majmui deb topiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 5-maydagi 13-sonli "Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to'g'risida"gi qarori 2-bandining ikkinchi xatboshisi, 3, 5, 6-bandlari, 7-bandining birinchi xatboshisi, 8, 11, 12, 13, 15-bandlari.*

Agar shaxs sodir etgan qilmishda ushbu Kodeks **Maxsus qismi** ayni bir moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlarning alomatlarini mavjud bo'lsa, u moddaning og'irroq jazo belgilangan qismi bo'yicha javobgarlikka tortiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 5-maydagi 13-sonli "Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to'g'risida"gi qarori 7-bandining ikkinchi xatboshisi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi 07-sonli "Sud hukmi to'g'risida"gi qarorining 27-bandi.*

### **34-modda. Retsidiv jinoyat**

Shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishi retsidiv jinoyat deb topiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 5-maydagi 13-sonli "Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to'g'risida"gi qarorining 16, 17, 18, 19-bandlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qarori 9-bandining ikkinchi xatboshisi.*

Ilgari hukm qilingan jinoyatiga o'xshash jinoyat sodir etgan, ushbu Kodeksda alohida ko'rsatilgan hollarda esa, **Maxsus qismning** boshqa moddalari bilan ham hukm qilingan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishi xavfli retsidiv jinoyat deb topiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 5-maydagi 13-sonli "Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to'g'risida"gi qarorining 20-bandi.*

Besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan qasddan yangi jinoyat sodir etish, ya'ni:

a) ilgari o‘ta og‘ir jinoyati uchun yoki ikki marta og‘ir jinoyati uchun hukm qilinib, ularning har biri uchun besh yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxs tomonidan o‘ta og‘ir jinoyat sodir etilishi;

b) ilgari og‘ir jinoyati uchun ikki marta hukm qilingan yoki oldin-keyinligidan qat’i nazar, og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun ularning har biriga besh yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxsning og‘ir jinoyat sodir etishi o‘ta xavfli retsividiv jinoyat deb topiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 5-maydagi 13-sonli “Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to‘g‘risida”gi qarorining 21, 22, 26 va 27-bandlari.*

Sudning hukmi bilan shaxs o‘ta xavfli retsividivist deb topilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 457-moddasi birinchi qismining 8-bandi, 468-moddasi birinchi qismining 3-bandi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 5-maydagi 13-sonli “Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to‘g‘risida”gi qarorining 22, 25-bandlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli “Qasddan odam o‘ldirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 22-bandi.*

Shaxsni o‘ta xavfli retsividivist deb topish to‘g‘risidagi masala hal qilinayotgan vaqtda uning boshqa davlatlar sudlarining hukmlari bo‘yicha sudlanganligi ham hisobga olinishi mumkin.

Shaxsni o‘ta xavfli retsividivist deb topish to‘g‘risidagi masala hal qilinayotgan vaqtda uning o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga qadar sodir etgan jinoyati uchun sudlanganligi, shuningdek qonunda belgilangan tartibda sudlanganlik muhlatlarining o‘tib ketganligi yoki olib tashlangan sudlanganligi inobatga olinmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 5-maydagi 13-sonli “Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to‘g‘risida”gi qarorining 22, 24-bandlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 9-bandining uchinchi xatboshisi.*

Ushbu Kodeks **Maxsus qismining** o‘ta xavfli retsividivist tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilovchi moddalari shaxs ushbu jinoyatni sodir etgunga qadar qonunda belgilangan tartibda o‘ta xavfli retsividivist deb topilgan bo‘lsagina qo‘llaniladi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 5-maydagi 13-sonli “Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to‘g‘risida”gi qarorining 28-bandi.*

## **UCHINCHI BO‘LIM**

### **QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILADIGAN HOLATLAR**

#### **IX bob. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasi va turlari**



### **35-modda. Qilmishning jinoyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasi**

Qilmishda ushbu Kodeksda nazarda tutilgan alomatlar rasmiy jihatdan mavjud bo'lsa-da, lekin u ijtimoiy xavfli, g'ayriqonuniy yoki aybli bo'lmasa, qilmishning jinoyligini istisno qiladigan holatlar deb topiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 14-moddasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Quyidagi holatlar, ya'ni kam ahamiyatli qilmishlar; zaruriy mudofaa; oxirgi zarurat; ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab chog'ida zarar yetkazish; buyruqni yoki boshqacha tarzdagi vazifani bajarish; kasb yoki xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan asosli tavakkalchilik; jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish natijasida qilmish sodir etish jinoyatni istisno qiluvchi holatlar deb topiladi.

*(35-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi O'RQ-459-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.01.2018-y., 03/18/459/0536-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 36 — 41-moddalari.*

### **36-modda. Kam ahamiyatli qilmishlar**

Garchi ushbu Kodeksda jinoyat sifatida nazarda tutilgan qilmishning alomatlari mavjud bo'lsa-da, o'zining kam ahamiyatligi tufayli ijtimoiy xavfli bo'lmagan harakat yoki harakatsizlik jinoyat deb topilmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 27-fevraldagi 3-sonli "Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarori 13-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi 07-sonli "Sud hukmi to'g'risida"gi qarori 9-bandining uchinchi xatboshisi.*

### **37-modda. Zaruriy mudofaa**

Zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan, ya'ni mudofaalanuvchi yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoya qilish chog'ida qilingan harakat, agar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi.

Tajovuzning xususiyati va xavfliligi darajasiga butunlay muvofiq kelmaydigan mudofaa, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb topiladi.

Boshqa shaxslarga yoki hokimiyat organlariga yordam so'rab murojaat qilish yoxud tajovuzdan o'zga yo'sinda qutulish imkoniyati bor-yo'qligidan qat'i nazar, zaruriy mudofaa huquqi shaxsga tegishlidir.

Zarar yetkazish maqsadida qasddan hujum qilish istagini qo'zg'atish zaruriy mudofaa deb topilmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrda 39-sonli "Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta'minlovchi qonunlarni sudlar tomonidan qo'llanishi haqida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrda 13-sonli "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 24-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 27-iyundagi 6-sonli*



*“Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 23-bandi.*

### **38-modda. Oxirgi zarurat**

Oxirgi zarurat holatida, ya'ni shaxsning yoki boshqa fuqarolarning shaxsiga yoxud huquqlariga, jamiyat yoki davlat manfaatlariga tahdid soluvchi xavfni qaytarish uchun qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazgan holda sodir etilgan qilmish, basharti, shu xavfni o‘sha holatda boshqa choralar bilan qaytarishning iloji bo‘lmasa hamda keltirilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo‘lsa, jinoyat deb topilmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi 07-sonli “Sud hukmi to‘g‘risida”gi qarori 9-bandining to‘rtinchi xatboshisi.*

Shaxsning oxirgi zarurat holatida sodir etgan qilmishi, basharti, oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqilmagan bo‘lsa, qonuniy deb topiladi.

Agar boshqa vositalar orqali xavfning oldini olish mumkin bo‘lsa yoki keltirilgan zarar oldi olingan zarardan oshib ketsa, qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlarga bunday zarar yetkazish oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish deb topiladi.

Oxirgi zarurat holatida sodir etilgan qilmishning qonuniyligini baholashda oldi olinishi lozim bo‘lgan xavfning xususiyati va xavflilik darajasi, shunday xavfning haqiqatan mavjud yoki mavjud emasligi va yuz berish vaqtining yaqinligi, xavfni qaytaruvchi shaxsning mavjud imkoniyatlari, vujudga kelgan vaziyatdagi ruhiy holati va ishning boshqa holatlari hisobga olinadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(38-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi O‘RQ-459-sonli Qonuniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 10.01.2018-y., 03/18/459/0536-son)*

### **39-modda. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish**

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni hokimiyat organlariga topshirish maqsadida ushlash vaqtida unga zarar yetkazish, agar uni ushlash uchun zarur bo‘lgan choralarning chegarasidan chetga chiqilmagan bo‘lsa, jinoyat deb topilmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi 07-sonli “Sud hukmi to‘g‘risida”gi qarori 9-bandining beshinchi xatboshisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli “Qasddan odam o‘ldirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 24-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 27-iyundagi 6-sonli “Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 23-bandi.*

Ushlash vositalari va usullariga, qilmishning hamda uni sodir etgan shaxsning xavflilik darajasiga, shuningdek ushlash sharoitiga butunlay mos kelmaydigan, ushlash zarurati taqozo etmagan holda ushlanayotgan shaxsga qasddan zarar yetkazish ushlash choralari chegarasidan chetga chiqish deb topiladi.

Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida unga yetkazilgan zararining qonuniyligini baholashda, qilmishni sodir etgan shaxsning ushlanishdan qochish maqsadida qilgan harakatlari, ushlovchining kuchi va imkoniyatlari, ruhiy holati va ushlash bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa holatlar hisobga olinadi.

Maxsus vakolatli shaxslar bilan bir qatorda jabrlanuvchi va boshqa fuqarolar ham ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlash huquqiga egadirlar.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 222-moddasi.*

#### **40-modda. Buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish**

Shaxsning buyruq yoki boshqa farmoyishni, shuningdek mansab vazifalarini qonunan bajarishi tufayli zarar yetkazilgan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi 07-sonli "Sud hukmi to'g'risida"gi qarori 9-bandining beshinchi xatboshisi.*

Jinoiyligi oldindan ayon bo'lgan buyruq yoki boshqa farmoyishni bajarib, jinoyat sodir etgan shaxs, umumiy asoslarda javobgarlikka tortiladi.

G'ayriqonuniy ravishda berilgan buyruq yoki farmoyishni yoxud mansab vazifasini bajarmagan yoki buzgan shaxs javobgarlikka tortilmaydi. Shaxsning amalda sodir etgan qilmishida boshqa bir jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lsagina, u javobgarlikka tortiladi.

#### **41-modda. Kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik**

Ijtimoiy foydali maqsadga erishish uchun kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik qilib, huquqlar va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazish jinoyat deb topilmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi 07-sonli "Sud hukmi to'g'risida"gi qarori 9-bandining beshinchi xatboshisi.*

Agar sodir etilgan harakat zamonaviy ilmiy-texnika bilimlari va tajribalariga muvofiq kelgan, qo'yilgan maqsadga esa, tavakkal qilmay erishishning iloji bo'lmagan hamda shaxs huquqlar va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazilishining oldini olish uchun tegishli choralarni ko'rgan bo'lsa, bunday tavakkalchilik asosli deb topiladi.

Kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik qilishda ko'zlangan ijtimoiy foydali natijaga erishilmagan va keltirilgan zarar ijtimoiy foydali maqsadga erishish natijasida olinishi mumkin bo'lgan foydali natijadan ko'proq bo'lgan taqdirda ham yetkazilgan zarar javobgarlikka sabab bo'lmaydi.

Tavakkalchilik odamlarning halok bo'lish xavfi, ekologiya halokati yoxud boshqacha og'ir oqibatlarining kelib chiqishi mumkinligini bila turib qilingan bo'lsa, asosli deb topilmaydi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Tadbirkorlik subyektlarining o'zlariga ko'rsatilgan xizmatlar, shu jumladan berilgan kreditlar yuzasidan banklar va boshqa moliya tashkilotlari oldidagi shartnoma majburiyatlarini tadbirkorlik tavakkalchiliklari hamda boshqa tijorat tavakkalchiliklari bilan bog'liq holda bajarmaganligi banklar va boshqa moliya tashkilotlari xodimlarini jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'lmaydi.

*(41-modda O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 29-dekabrda O'RQ-345-sonli Qonuniga asosan beshinchi qism bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2013-y., 1-son, 1-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **41<sup>1</sup>-modda. Jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish**

Jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud shunday majburlashni qo'llash bilan qo'rqitish natijasida ushbu Kodeks bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazilishi, agar

bunday majburlash yoxud qoʻrqitish oqibatida shaxs oʻz harakatlarini (harakatsizligini) boshqara olmagan boʻlsa, jinoyat hisoblanmaydi.

Ushbu Kodeks bilan qoʻriqlanadigan huquq va manfaatlarga jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud shunday majburlashni qoʻllash bilan qoʻrqitish natijasida zarar yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlik toʻgʻrisidagi masala, agar bunday majburlash yoki qoʻrqitish oqibatida shaxs oʻz harakatlarini (harakatsizligini) boshqarish imkoniyatini saqlab qolgan boʻlsa, ushbu Kodeks **38-moddasining** qoidalari inobatga olingan holda hal etiladi.

*(41<sup>1</sup>-modda Oʻzbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi OʻRQ-459-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 10.01.2018-y., 03/18/459/0536-son)*

## **TOʻRTINCHI BOʻLIM JAZO VA UNI TAYINLASH**

### **X bob. Jazo tushunchasi, maqsadlari va turlari**

#### **42-modda. Jazo tushunchasi va maqsadlari**

Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qoʻllanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir.

Jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga toʻsqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qoʻllaniladi.

#### **43-modda. Jazo tizimi**

Jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan quyidagi asosiy jazolar qoʻllanilishi mumkin:

a) jarima;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 44-moddasi.*

b) muayyan huquqdan mahrum qilish;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 45-moddasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

b<sup>1</sup>) majburiy jamoat ishlari;

*(43-modda Oʻzbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi OʻRQ-421-sonli Qonuniga asosan “b<sup>1</sup>” band bilan toʻldirilgan — OʻR QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

v) axloq tuzatish ishlari;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 46-moddasi.*

g) xizmat boʻyicha cheklash;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 47-moddasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(43-moddaning “d” bandi Oʻzbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi OʻRQ-421-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — OʻR QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

*Oldingi tahririga qarang.*

d<sup>1</sup>) ozodlikni cheklash;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 48<sup>1</sup>-moddasi.*

*(43-modda O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuniga asosan "d<sup>1</sup>" band bilan to'ldirildi — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

e) intizomiy qismga jo'natish;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 49-moddasi.*

j) ozodlikdan mahrum qilish;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 50-moddasi.*

*Oldingi tahririga qarang.*

z) umrbod ozodlikdan mahrum qilish.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 51-moddasi.*

*(43-moddaning birinchi qismining "z" bandi O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagi O'RQ-99-sonli Qonuni tahririda — Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-y., 6-son, 248-modda)*

*Oldingi tahririga qarang.*

Mahkumlarga asosiy jazolardan tashqari harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tarzidagi qo'shimcha jazo ham qo'llanilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 52-moddasi.*

*(43-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

Xizmat bo'yicha cheklash yoki intizomiy qismga jo'natish tariqasidagi jazolar faqat harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish faqat asosiy jazo sifatidagina emas, balki qo'shimcha jazo tariqasida ham qo'llanilishi mumkin.

#### **44-modda. Jarima**

Jarima aybdordan davlat daromadiga ushbu Kodeksda belgilangan miqdorda pul undirishdir.

*Oldingi tahririga qarang.*

Jarima bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda belgilanadi.

*(44-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrdagi O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 15, 16, 17-bandlari.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar hukm qilingan shaxs jazo tariqasida tayinlangan jarimani majburiy ijro etish uchun belgilangan muddatlarda to‘lashdan bo‘yin tovlasa yoxud qarzdorda undiruv qaratilishi mumkin bo‘lgan mol-mulk mavjud emasligi tufayli majburiy ijro etish uchun belgilangan muddatlar mobaynida jarimani undirishning imkoni bo‘lmasa, xuddi shuningdek kechiktirish muddati tugaganidan keyin jarima to‘lanmagan yoki jarimani bo‘lib-bo‘lib to‘lash shartlari buzilgan taqdirda, sud jarimaning to‘lanmagan miqdorini majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo‘yicha cheklash, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi. Bunday holda majburiy jamoat ishlarining ikki yarim soati bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdoridagi jarimaga tenglashtirilib, to‘rt yuz sakson soatdan ko‘p bo‘lmagan muddatga, axloq tuzatish ishlarining, xizmat bo‘yicha cheklashning, ozodlikni cheklashning yoki ozodlikdan mahrum qilishning har bir oyi bazaviy hisoblash miqdorining o‘n olti baravari miqdoridagi jarimaga tenglashtirilib, uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga tayinlanadi.

*(44-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 533-moddasining ikkinchi qismi, 539-moddasi, 542-moddasining uchinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 5-bobi (“Jarima tariqasidagi jazoni ijro etish”) va O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunining 30, 32, 32<sup>1</sup>-moddalari.*

#### **45-modda. Muayyan huquqdan mahrum qilish**

Shaxsni muayyan huquqdan mahrum qilish sud tayinlagan muddat davomida aybdorning korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlarda u yoki bu mansabni egallashini yoxud u yoki bu faoliyat bilan shug‘ullanishini taqiqlashdan iboratdir. Ana shunday mansab yoki faoliyatning turi sud tomonidan ayblov hukmida ko‘rsatiladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish aybdorning mansabi yoki ish faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jinoyatni sodir etganligi uchun asosiy jazo tariqasida tayinlanganda — bir yildan besh yilgacha muddatga, qo‘shimcha jazo tariqasida tayinlanganda — bir yildan uch yilgacha muddatga belgilanadi.

Agar muayyan huquqdan mahrum qilish aybdorga asosiy jazo tariqasida tayinlanmagan bo‘lsa, bunday jazo sud tomonidan ushbu Kodeks **Maxsus qismining** tegishli moddasida nazarda tutilgan har qanday turdagi jazoga qo‘shimcha jazo tariqasida tayinlanishi mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo‘natish jazosiga qo‘shimcha jazo tariqasida tayinlangan bo‘lsa, asosiy jazoning butun muddatiga, bundan tashqari sud hukmi bilan tayinlangan muddatga joriy etiladi. Bu jazo boshqa asosiy jazolarga qo‘shimcha jazo tariqasida tayinlanganda va mahkum shartli hukm qilinganda uning muddati hukm qonuniy kuchga kirgan vaqtdan boshlab hisoblanadi.

*(45-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O‘RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanayotgan shaxslarga nisbatan tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanish huquqidan mahrum qilish tarzidagi jazo tayinlanmaydi, bundan odam oʻlishiga yoki boshqa ogʻir oqibatlariga sabab boʻlgan hollar mustasno.

*(45-modda Oʻzbekiston Respublikasining 2016-yil 29-dekabrda OʻRQ-418-sonli Qonuniga asosan beshinchi qism bilan toʻldirilgan — OʻR QHT, 2017-y., 1-son, 1-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 6-bobi (“Muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish”).*



*LexUZ sharhi*

*Qoʻshimcha maʼlumot uchun qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti toʻgʻrisida”gi qarori 41, 43-bandlari, 47-bandining birinchi xatboshisi, 51-bandining beshinchi xatboshisi, 56<sup>1</sup>-bandi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **45<sup>1</sup>-modda. Majburiy jamoat ishlari**

Majburiy jamoat ishlari mahkumni haq toʻlanmaydigan foydali jamoat ishlarini bajarishga majburiy tarzda jalb qilishdan iboratdir. Mahkum ishlayotgan yoki oʻqiyotgan boʻlsa, majburiy jamoat ishlari ishdan yoki oʻqishdan boʻsh vaqtda oʻtaladi.

Mahkumlar majburiy jamoat ishlarini oʻtashi mumkin boʻlgan joylar (obyektlar) va majburiy jamoat ishlarining turi mazkur jazoning ijrosini nazorat qiluvchi organlar tomonidan belgilanadi.

Majburiy jamoat ishlari bir yuz yigirma soatdan toʻrt yuz sakson soatgacha boʻlgan muddatga tayinlanadi va olti oy davomida kuniga toʻrt soatdan koʻp boʻlmagan vaqtda, mahkumga bogʻliq boʻlmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda esa, bir yilgacha boʻlgan muhlatda kuniga toʻrt soatdan koʻp boʻlmagan vaqtda oʻtaladi.

Majburiy jamoat ishlari pensiya yoshiga yetgan shaxslarga, oʻn olti yoshga toʻlmagan shaxslarga, homilador ayollarga, uch yoshga toʻlmagan bolalari bor ayollarga, birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga, harbiy xizmatchilarga, chet el fuqarolariga va Oʻzbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan shaxslarga nisbatan qoʻllanilmaydi.

Mahkum jazoni oʻtashdan boʻyin tovlagan taqdirda, sud majburiy jamoat ishlarining oʻtalmagan muddatini majburiy jamoat ishlarining toʻrt soatini ozodlikni cheklashning yoki ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga tenglashtirgan holda hisoblab, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi. Jazoni oʻtashdan boʻyin tovlanilgan vaqt jazoning oʻtalgan muddatiga qoʻshib hisoblanmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-maydagi 346-sonli “Maʼmuriy jamoat ishlari tariqasidagi jazoning ijrosini tashkil etish tartibi haqidagi nizomni hamda Majburiy jamoat ishlari turlarining roʻyxatini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarori.*

*(45<sup>1</sup>-modda Oʻzbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi OʻRQ-421-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — OʻR QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

#### **46-modda. Axloq tuzatish ishlari**

Axloq tuzatish ishlari shaxs ish haqining oʻn foizidan oʻttiz foizigacha miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda uni mehnatga majburan jalb qilishdan iborat boʻlib, jazo



sudning hukmiga muvofiq mahkumning o'z ish joyi yoki mazkur jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan boshqa joylarda o'taladi.

Axloq tuzatish ishlari olti oydan uch yilgacha muddatga tayinlanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Axloq tuzatish ishlari pensiya yoshiga yetganlarga, mehnatga qobiliyatsizlarga, homilador ayollarga, uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarga va harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llanilmaydi.

*(46-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 23-sentabrdagi O'RQ-411-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2016-y., 39-son, 457-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar shaxs sud tomonidan tayinlangan axloq tuzatish ishlari muddatining jami bo'lib o'ndan bir qismidan ko'prog'ini o'tashdan bo'yin tovlasa, sud axloq tuzatish ishlarining o'talmagan muddatini xuddi shu muddatga ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi. Jazoni o'tashdan bo'yin tovlagan vaqt jazoning o'talgan muddatiga qo'shib hisoblanmaydi.

*(46-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 539, 541-moddalari, 542-moddasining uchinchi qismi, 545-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 5-bobi ("Jarima tariqasidagi jazoni ijro etish"), O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunining 67-moddasi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 18 — 23-bandlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 6-bandining ikkinchi xatboshisi.*

#### **47-modda. Xizmat bo'yicha cheklash**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Xizmat bo'yicha cheklash — harbiy xizmatni kontrakt bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchini sud hukmida ko'rsatilgan muddat davomida muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum qilib, pul ta'minotining o'n foizidan o'ttiz foizigacha bo'lgan miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolishdan iboratdir.

*(47-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 22-dekabrdagi O'RQ-238-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2009-y., 52-son, 553-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Xizmat bo'yicha cheklash jazo chorasi ushbu Kodeks **Maxsus qismining** moddasida nazarda tutilgan hollarda ikki oydan uch yilgacha muddatga qo'llaniladi. Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat yoki og'ir oqibatlarni keltirib chiqarmagan ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyat uchun sud ish holatlari va mahkumning shaxsini hisobga olgan holda uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari jazosi o'rniga shu muddatga xizmat bo'yicha cheklash jazosini qo'llashi mumkin.

*(47-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

Xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazoni o'tash muddati davomida mahkumning mansabini, harbiy yoki maxsus unvonini oshirish mumkin emas, jazoni o'tagan vaqt esa, uning ko'p yil ishlaganlik, navbatdagi harbiy yoki maxsus unvon hamda pensiya olish uchun asos bo'ladigan xizmat muddatiga qo'shilmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 25-bobi ("Xizmat bo'yicha cheklash va qamoq tariqasidagi jazolarni ijro etish"), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi PQ-4447-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida nizom"ning 293 va 294-bandlari.*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 6-bandining uchinchi xatboshilari.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(48-modda O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **48<sup>1</sup>-modda. Ozodlikni cheklash**

Ozodlikni cheklash sud tomonidan mahkumga nisbatan yashash joyini u yoki bu sabab bilan tark etishni butunlay taqiqlashdan yoki sutkaning muayyan vaqtida yashash joyidan chiqishni cheklashdan iborat.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ozodlikni cheklash bir oydan besh yilgacha muddatga tayinlanadi hamda sud tomonidan belgilanadigan organlar nazorati ostida o'taladi. Ozodlikni cheklash, uni mahkumning yashash joyida o'tash shartlari sodir etilgan qilmishning xususiyati va sud chiqargan qarorni ijro etishdan bo'yin tovlashning oldini olish hisobga olingan holda sud tomonidan belgilanadi.

*(48<sup>1</sup>-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

Qo'llanilayotgan taqiqning (cheklashning) xususiyatlarini hisobga olgan holda, sud mahkumning zimmasiga quyidagi qo'shimcha taqiqnlarni (cheklashlarni) yuklashi mumkin:

muayyan joylarga bormaslik;

ommaviy va boshqa tadbirlar o'tkazishda ishtirok etmaslik;

muayyan faoliyat bilan shug'ullanmaslik;

muayyan buyumlarga ega bo'lmaslik yoki ularni o'zida saqlamaslik;

transport vositasini boshqarmaslik;

mahkumlarni nazorat qiluvchi organning roziligisiz yashash joyini, ish va (yoki) o'qish joyini o'zgartirmaslik, tegishli ma'muriy hududdan tashqariga chiqmaslik;

muayyan shaxslar bilan aloqa o'rnatmaslik;

aloqa vositalaridan, shu jumladan Internetdan foydalanmaslik;

alkogolli ichimliklar iste'mol qilmaslik.

Sud ozodlikni cheklashga hukm qilingan shaxsning zimmasiga o'zi yetkazgan moddiy va ma'naviy zararining o'rnini qoplash, ishga yoki o'qishga joylashish majburiyatlarini, shuningdek uning tuzalishiga ko'maklashuvchi boshqa majburiyatlarni yuklashi mumkin.

Agar ozodlikni cheklashga hukm qilingan shaxs jazoni o'tash davrida o'zining jinoiy qilmishlarini anglab yetgan, tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan, yetkazilgan moddiy va ma'naviy

zararning o'rnini qoplagan bo'lsa, sud mahkumga nisbatan ilgari tayinlangan taqiqlarni (cheklashlarni) to'liq yoki qisman bekor qilishi mumkin.

Mahkum ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o'tashdan qasddan bo'yin tovlagan, shuningdek sud tomonidan o'z zimmasiga yuklangan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda, sud ozodlikni cheklash jazosining o'talmay qolgan muddatini boshqa turdagi jazo bilan almashtirishi mumkin. Jazoni o'tashdan bo'yin tovlash vaqti o'talgan jazo muddatiga qo'shib hisoblanmaydi.

Ozodlikni cheklash harbiy xizmatchilar, chet el fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarga nisbatan tayinlanmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 8<sup>l</sup>-bobi ("Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni ijro etish").*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 25<sup>l</sup> — 25<sup>6</sup>-bandlari.*

*(48<sup>l</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

#### **49-modda. Intizomiy qismga jo'natish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Intizomiy qismga jo'natish — muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchisini sud tomonidan belgilangan muddat mobaynida ichki tartibi ancha qattiq bo'lgan maxsus harbiy qismga joylashtirish orqali, muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum etishdir.

*(49-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 22-dekabrda O'RQ-238-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2009-y., 52-son, 553-modda)*

Intizomiy qismga jo'natish jazosi ushbu Kodeks **Maxsus qismining** moddasida nazarda tutilgan hollarda uch oydan bir yilgacha muddatga qo'llaniladi. Sud ish holatlari va mahkumning shaxsini hisobga olgan holda uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'rniga shu muddatga intizomiy qismga jo'natish jazosini qo'llashi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 26-bobi ("Intizomiy qismga jo'natish tariqasidagi jazoni ijro etish") va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-oktabrdagi PF-1572-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida intizomiy qism to'g'risida"gi nizom.*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 6-bandining uchinchi xatboshisi.*

#### **50-modda. Ozodlikdan mahrum qilish**

Ozodlikdan mahrum qilish mahkumni jamiyatdan ajratib jazoni ijro etish koloniyasi yoki turmaga joylashtirishdan iboratdir.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ozodlikdan mahrum qilish bir oydan yigirma yilgacha muddatga belgilanadi, ushbu moddaning **uchinchi qismida** nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

*(50-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish yigirma yildan ortiq, lekin yigirma besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga belgilanadi va faqat javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish (97-moddaning **ikkinchi qismi**) va terrorizm (155-moddaning **uchinchi qismi**) uchun tayinlanishi mumkin.

Uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi ayolga, o'n sakkiz yoshga to'lmagan jinoyat sodir etgan shaxsga va oltmish yoshdan oshgan erkakka nisbatan tayinlanishi mumkin emas.

*(50-modda O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagi O'RQ-99-sonli Qonuni asosida uchinchi va to'rtinchi qismlar bilan to'ldirilgan — Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-y., 6-son, 248-modda)*

Ozodlikdan mahrum qilish ushbu Kodeksning **60-moddasida** nazarda tutilgan bir necha jazolarni qo'shish tartibida tayinlanganda, uning muddati yigirma besh yilgacha belgilanishi mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan ayollarga hamda oltmish yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan tayinlanayotgan jazo muddati ushbu Kodeks **Maxsus qismining** tegishli moddasida nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum etish eng ko'p muddatining uchdan ikki qismidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

*(50-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan erkaklarga nisbatan:

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyati, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyati uchun va qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotganlarga nisbatan jazoni manzil-koloniyalarda;

b) qasddan og'ir jinoyat sodir etganlik va o'ta og'ir jinoyati uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotganlarga nisbatan jazoni umumiy tartibli koloniyalarda;

*Oldingi tahrirga qarang.*

v) ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tab chiqib yoki o'tayotgan chog'ida, qasddan yangi sodir etgan jinoyati uchun hukm qilinayotganlarga nisbatan jazoni qattiq tartibli koloniyalarda;

*(50-moddaning yettinchi qismi "v" bandi O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 23-sentabrdagi O'RQ-411-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2016-y., 39-son, 457-modda)*

*(50-moddaning beshinchi qismi "a", "b" va "v" bandlari O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrda 568-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son, 18-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

g) o'ta xavfli retsidivistlarga nisbatan jazoni maxsus tartibli koloniyalarda o'tash tayinlanadi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilganlar, shuningdek afv etish tartibida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan shaxslar ham jazoni maxsus tartibli koloniyalarda o'taydilar.

*(50-moddaning yettinchi qismi "g" bandi O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagi O'RQ-99-sonli Qonuni tahririda — Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-y., 6-son, 248-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan ayollarga nisbatan:

a) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etganlarga hamda qasddan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etganlarga nisbatan jazoni manzil-koloniyalarda;

b) og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyat uchun jazoni umumiy tartibli koloniyalarda;

v) ilgari ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tab chiqib, yangi sodir etgan o‘ta og‘ir jinoyati uchun hukm qilinayotganlarga, shuningdek o‘ta xavfli retsivist deb topilganlarga nisbatan jazoni qattiq tartibli koloniyalarda o‘tash tayinlanadi.

*(50-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrda 568-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son, 18-modda)*

Turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilish, jazoning muayyan qismiga, lekin besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga:

a) o‘ta xavfli retsivistlarga;

b) og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyati uchun besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga nisbatan tayinlanishi mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etganlik, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etganlik va qasddan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo homilador ayollarga va uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollarga nisbatan, shuningdek **qonunchilikka** muvofiq yoshga doir pensiyaga chiqish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan tayinlanmaydi.

*(50-moddaning o‘ninchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Sud tomonidan jazoni manzil-koloniya o‘tashi tayinlangan mahkum saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi deb topilgan taqdirda, sud uni jazoning o‘talmagan qismi muddatiga umumiy tartibli koloniyaga o‘tkazadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining IV bo‘limi (“Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish”).*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 26 — 30-bandlari.*

*(50-modda O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrda 568-II-sonli Qonuniga asosan sakkizinchi va to‘qqizinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son, 18-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Sud amaliyotiga karang*

*Oldingi tahrirga qarang.*

**51-modda. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish**



Umrbod ozodlikdan mahrum qilish favqulodda jazo chorasi bo‘lib, mahkumni maxsus tartibli jazoni ijro etish koloniyasiga joylashtirish orqali jamiyatdan muddatsiz ajratib qo‘yishdan iboratdir.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi faqat javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish (97-moddaning [ikkinchi qismi](#)) va terrorizm (155-moddaning [uchinchi qismi](#)) uchun belgilanadi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ayolga, o‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan jinoyat sodir etgan shaxsga va oltmish yoshdan oshgan erkakka nisbatan tayinlanishi mumkin emas.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining [V bo‘limi](#) (“Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish”).*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 14-noyabrda 15-sonli “Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori.*

*(51-modda O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagi O‘RQ-99-sonli [Qonuni](#) tahririda — Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-y., 6-son, 248-modda)*

## **52-modda. Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish**

Harbiy yoki maxsus unvonga ega bo‘lgan shaxs og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat uchun hukm qilinganida sud hukmi bilan mazkur unvondan mahrum qilinishi mumkin.

Oliy harbiy yoki maxsus unvonga yoxud O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotiga ega bo‘lgan shaxs og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyati uchun hukm qilinganida sudning hukm asosida kiritadigan taqdimnomasiga binoan mazkur unvon yoki mukofotdan mahrum qilinishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi [531-moddasining yettinchi qismi](#), O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining [161-moddasi](#), O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi [Qonuni](#) [9-moddasining o‘ninchi qismi](#), O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mukofotlari to‘g‘risida”gi [Qonunining 21-moddasi](#).*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori [41-bandining birinchi, uchinchi xatboshisi](#).*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(53-modda O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi [254-II-son Qonuniga asosan chiqarilgan](#) — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

## **XI bob. Jazo tayinlash**

### **54-modda. Jazo tayinlashning umumiy asoslari**

Jinoyat sodir etishda qonunda belgilangan tartibda aybli deb topilgan shaxs jazoga tortiladi. Sud ushbu Kodeks [Maxsus qismining](#) jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddasida belgilangan doirada [Umumiy qismning](#) qoidalariga muvofiq jazo tayinlaydi.

Sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararining xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarni hisobga oladi.





*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi 07-sonli “Sud hukmi to‘g‘risida”gi qarorining 28-bandi.*

**55-modda. Jazoni yengillashtiruvchi holatlar**

Quyidagi holatlar jazoni yengillashtiruvchi holatlar deb topiladi:

- a) aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish;
- b) yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish;
- v) og‘ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul ahvolda jinoyat sodir etish;
- g) majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoxud boshqa jihatdan qaramlik sababli jinoyat sodir etish;
- d) jabrlanuvchining zo‘rluk, og‘ir haqorat yoki boshqacha g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida jinoyat sodir etish;
- e) zaruriy mudofaaning, oxirgi zaruratning asosli chegarasidan chetga chiqib jinoyat sodir etish, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlashda, kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan asosli tavakkalchilikda zarar yetkazish;
- j) voyaga yetmaganning jinoyat sodir etishi;
- z) homilador ayolning jinoyat sodir etishi;
- i) jabrlanuvchining g‘ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori ta‘siri ostida jinoyat sodir etish.

Jazo tayinlashda sud ushbu moddada nazarda tutilmagan boshqa holatlarni ham yengillashtiruvchi holat deb topishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 7-bandi.*

Yengillashtiruvchi holat ushbu Kodeks **Maxsus qismining** moddasida jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida nazarda tutilgan bo‘lsa, jazo tayinlashda hisobga olinmaydi.

**56-modda. Jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar**

Quyidagi holatlarda jinoyat sodir etish jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar deb topiladi:

- a) homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolga nisbatan;
- b) yosh bola, qariya yoki ojiz ahvoldagi shaxsga nisbatan;
- v) xizmat vazifasi yoki fuqarolik burchini bajarganligi munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan;
- g) aybdorga moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoki boshqa jihatdan qaram shaxsga nisbatan;
- d) o‘ta shafqatsizlik bilan;
- e) ko‘pchilik uchun xavfli bo‘lgan usulda;

*Oldingi tahrirga qarang.*

- j) yosh bola yoki ruhiy holatining buzilganligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsdan foydalangan holda;

*(56-modda birinchi qismining “j” bandi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 12-sentabrdagi O‘RQ-567-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019-y., 03/19/567/3737-son)*

- z) jinoyat natijasida og‘ir oqibatlarining kelib chiqqanligi;
- i) umumiy ofat sharoitidan foydalangan holda yoki favqulodda holat vaqtida yoxud ommaviy tartibsizliklar jarayonida;
- k) g‘arazli yoki boshqacha past niyatlarda;
- l) irqiy yoki milliy dushmanlik yoxud adovat zamirida;
- m) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirgan holda yoki uyushgan guruh yoxud jinoiy uyushma tomonidan;
- n) ilgari ham qasddan jinoyat sodir etgan shaxsning takroran yoki qasddan yangi jinoyat sodir etishi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

o) mastlik holatida yoki giyovandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoxud kishining aql-idrokiga ta‘sir qiluvchi boshqa moddalar ta‘siri ostida jinoyat sodir etish.

*(56-moddaning birinchi qismi “o” bandi O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O‘RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

Sud sodir etilgan jinoyatning xususiyatini e‘tiborga olib, ushbu moddaning **birinchi qismida** nazarda tutilgan holatlarni og‘irlashtiruvchi holat deb topmasligi ham mumkin.

Sud jazo tayinlashda ushbu moddada nazarda tutilmagan holatlarni og‘irlashtiruvchi holat deb topishi mumkin emas.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 8-bandi.*

Ushbu holatlar Kodeks **Maxsus qismining** moddasida jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida nazarda tutilgan bo‘lsa, jazo tayinlashda hisobga olinmaydi.

### **57-modda. Yengilroq jazo tayinlash**

Sud sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlarni e‘tiborga olib, alohida hollarda ushbu Kodeks **Maxsus qismining** moddasida nazarda tutilgan mazkur jinoyat uchun belgilangan jazoning eng kam qismidan ham kamroq yoki shu moddada nazarda tutilmagan boshqa yengilroq turdagi jazoni tayinlashi mumkin.

Sud shu asoslarni e‘tiborga olib, ushbu Kodeks **Maxsus qismining** moddasida qo‘llanilishi shart deb ko‘rsatilgan qo‘shimcha jazoni tayinlamasligi ham mumkin.

Sodir etilgan qilmish xususiyatlarini ifodalovchi holatlar, ya‘ni aybdorning shaxsi, aybining shakli va darajasi, jinoyat qilish sharoiti va sabablari, shaxsning jinoyatni sodir qilguncha va undan keyingi xulq-atvori jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar deb topilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 37 — 39, 42-bandlari.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **57<sup>1</sup>-modda. Aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganida jazo tayinlash**

*(57<sup>1</sup>-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 27-dekabrda O‘RQ-277-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2010-y., 52-son, 509-modda)*

Ushbu Kodeks 55-moddasi birinchi qismining “a” va “b” bandlarida nazarda tutilgan jazoni yengillashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lgan va ushbu Kodeks 56-moddasining **birinchi qismida** nazarda tutilgan jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lmagan taqdirda jazo muddati yoki miqdori ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko‘p jazoning uchdan ikki qismidan oshmasligi kerak. Mazkur qoida javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish (97-moddaning **ikkinchi qismi**) va terrorizm (155-moddaning **uchinchi qismi**) bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga tatbiq etilmaydi.

*(57<sup>1</sup>-modda O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 18-maydagi O‘RQ-245-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — O‘R QHT, 2010-y., 20-son, 147-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **57<sup>2</sup>-modda. Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo‘yicha jazo tayinlash**

Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo‘yicha tayinlanadigan jazoning muddati yoki miqdori ushbu Kodeks **Maxsus qismining** tegishli moddasida (qismida) nazarda tutilgan eng ko‘p jazoning yarmidan oshmasligi kerak.

*(57<sup>2</sup>-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi O‘RQ-675-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 18.02.2021-y., 03/21/675/0126-son)*

## **58-modda. Tamom bo‘lmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash**

Sud tamom bo‘lmagan jinoyat uchun jazo tayinlashda jazo tayinlashning umumiy asoslariga amal qilgan holda jinoyatning og‘ir-yengilligini, jinoiy niyat amalga oshirilishining darajasini va jinoyatni oxiriga yetkaza olmaganlik sabablarini ham hisobga oladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rganlik hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko‘p jazoning to‘rt dan uch qismidan oshmasligi kerak. Mazkur qoida:

a) o‘ta xavfli retsdivistlarga, uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma a‘zolariga nisbatan;

b) tinchlik va xavfsizlikka qarshi tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun, shuningdek quyidagilar bilan:

javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish bilan;

o‘n to‘rt yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo‘rluk ishlatib, jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish bilan;

*Oldingi tahrirga qarang.*

yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa turdagi ommaviy qirg‘in qurolini, bunday qurol yaratishda foydalanish mumkinligi ayon bo‘lgan materiallarni hamda uskunalarni, radioaktiv materiallarni kontrabanda qilish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlar uchun jazolar tayinlashda qo‘llanilmaydi.

*(58-modda ikkinchi qismi “b” bandining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-apreldagi O‘RQ-405-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2016-y., 17-son, 173-modda)*

*(58-modda O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 11-apreldagi O‘RQ-152-sonli Qonuni asosida ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — O‘R QHT, 2008-y., 16-son, 116-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanishi mumkin emas.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 14-noyabrdagi 15-sonli “Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori 4-bandining birinchi xatboshisi.*

*(58-modda O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagi O‘RQ-99-sonli Qonuni asosida ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-y., 6-son, 248-modda)*

Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyat uchun jazo tayinlashda sud har qaysi aybdorning jinoyatda ishtirok etganlik xususiyati va darajasini hisobga oladi. Har qaysi ishtirokchining shaxsiga tegishli bo‘lgan yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar sud tomonidan faqat shu ishtirokchining o‘ziga jazo tayinlashda hisobga olinadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeks Umumiy qismining VII bobi (“Jinoyatda ishtirokchilik”), 55 va 56-moddalari.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **59-modda. Bir necha jinoyat sodir etganlik uchun jazo tayinlash**

Shaxs **Maxsus qismning** turli moddalarida nazarda tutilgan ikki yoki undan ortiq jinoyatni sodir etgan bo‘lib, ulardan birortasi uchun ham sudlangan bo‘lmasa, sud ushbu Kodeksning **54-moddasida** nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq har qaysi qilmish uchun jazo tayinlab, so‘ngra tayinlangan yengilroq jazoni og‘irrog‘i bilan qoplash yoxud tayinlangan jazolarni to‘la yoki qisman qo‘shish yo‘li bilan jinoyatlar majmui bo‘yicha jazo tayinlaydi.

Agar jinoyatlar majmuini faqat ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar tashkil etsa, unda tayinlangan yengilroq jazoni og‘irrog‘i bilan qoplash yoxud tayinlangan jazolarni to‘la yoki qisman qo‘shish yo‘li bilan jazo uzil-kesil tayinlanadi. Bunda uzil-kesil tayinlangan jazo sodir etilgan jinoyatlardan eng og‘iri uchun nazarda tutilgan eng ko‘p jazo muddatidan yoki me‘yoridan ortiq bo‘lmasligi lozim.

Agar jinoyatlar majmuini tashkil etuvchi jinoyatlardan loaqal bittasi og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat bo‘lsa, ushbu Kodeksning Umumiy qismida shu jazo turi uchun belgilangan doirada tayinlangan jazolarni to‘la yoki qisman qo‘shish yo‘li bilan jazo uzil-kesil tayinlanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 51-bandi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Sodir etilgan jinoyatlardan bittasi uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanganda yengilroq turdagi jazoni umrbod ozodlikdan mahrum qilish bilan qoplash orqali jazo uzil-kesil tayinlanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 14-noyabrdagi 15-sonli “Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 5 va 6-bandlari.*

Sodir etilgan jinoyatlardan bittasi uchun uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanganda jazolarni to‘la yoki qisman qo‘shish yoxud yengilroq jazoni og‘irrog‘i bilan qoplash orqali jazo uzil-kesil tayinlanadi.

*(59-modda O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagi O‘RQ-99-sonli Qonuni asosida to‘rtinchi va beshinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-y., 6-son, 248-modda)*

Jinoyatlar majmui bo‘yicha har xil turdagi jazolarni qo‘shish yo‘li bilan jazo tayinlashda ushbu Kodeksning 61-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga amal qilinib, jazoning og‘irroq turi uzil-kesil tayinlanadi.

Jinoyatlar majmui bo‘yicha tayinlangan asosiy jazoga sud ayrim jinoyatlar uchun tayinlangan qo‘shimcha jazolarni ham qo‘shishi mumkin. Bunda muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi qo‘shimcha jazoning uzil-kesil tayinlangan muddati ushbu Kodeksning 45-moddasida nazarda tutilgan eng ko‘p muddatdan ortiq bo‘lmasligi lozim.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 52-bandi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar ish bo‘yicha hukm chiqarilganidan keyin mahkumning ana shu ish bo‘yicha chiqarilgan hukmga qadar sodir etilgan yana boshqa jinoyatda aybli ekanligi aniqlansa ham jazo o‘sha tartibda tayinlanadi. Bunday holda jinoyatlar majmui bo‘yicha sud tomonidan tayinlangan jazo muddatiga birinchi hukm yuzasidan jazoning o‘talgan qismi qo‘shib hisoblanadi.

*(59-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O‘RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 53-bandi.*

*(59-modda O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 27-avgustdagi 671-II-son Qonuni tahririda — O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 37-son, 408-modda)*

### **60-modda. Bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash**

Agar mahkum hukm chiqarilganidan keyin jazoni to‘la o‘tamay turib, yangi jinoyat sodir etsa, sud yangi hukm bo‘yicha tayinlangan jazo muddatiga ilgarigi hukm yuzasidan o‘talmay qolgan jazo muddatini to‘la yoki qisman qo‘shadi.

Bir necha hukm yuzasidan har xil turdagi jazolarni qo‘shish yo‘li bilan jazo tayinlashda ushbu Kodeksning 61-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga amal qilinib, jazoning og‘irroq turi uzil-kesil tayinlanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar hukmlardan biri bilan umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlangan bo‘lsa, bir necha hukmlar yuzasidan jazolarni qo‘shishda yengilroq jazo turini umrbod ozodlikdan mahrum qilish bilan qoplash orqali jazo uzil-kesil tayinlanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 14-noyabrdagi 15-sonli “Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 7-bandi.*

Agar hukmlardan biri bilan uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan bo‘lsa, bir necha hukmlar yuzasidan jazolarni qo‘shishda yengilroq jazoni og‘irrog‘i bilan qoplash yoxud jazolarni to‘la yoki qisman qo‘shish yo‘li bilan jazo uzil-kesil tayinlanadi.

*(60-modda O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagi O‘RQ-99-sonli Qonuni asosida uchinchi va to‘rtinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-y., 6-son, 248-modda)*

Bir necha hukmlar yuzasidan axloq tuzatish ishlariga yoki xizmat bo‘yicha cheklashga hukm qilinib, ish haqi yoki pul ta‘minotidan ushlab qolishning har xil miqdori belgilangan hollarda bu jazolarning faqat muddatlari qo‘shiladi.

Ilgarigi hukm yuzasidan ijro etilmay qolgan qo‘shimcha jazolar hukmlar jami tariqasida tayinlangan asosiy jazoga qo‘shib tayinlanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 54 — 59-bandlari.*

### **61-modda. Jazolarni qo‘shishning hisoblash qoidalari**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Har xil turdagi asosiy jazolarni qo‘shganda ozodlikdan mahrum qilishning bir kuni:

- a) ozodlikni cheklashning yoki intizomiy qismga jo‘natishning bir kuniga;
- b) axloq tuzatish ishlarining yoki xizmat bo‘yicha cheklashning uch kuniga;
- v) majburiy jamoat ishlarining to‘rt soatiga to‘g‘ri keladi.

Jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo‘natish, ozodlikni cheklash, xizmat bo‘yicha cheklash, axloq tuzatish ishlari, majburiy jamoat ishlari jazosi bilan qo‘shilganda har qaysisi alohida ijro etiladi.

*(61-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O‘RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **62-modda. Ushlab turish, qamoqqa olish yoki uy qamog‘i vaqtini hisobga olish qoidalari**

Sud jazo tayinlash chog‘ida ushlab turishning, qamoqqa olishning yoki uy qamog‘ining har bir kunini:

- a) ozodlikni cheklashning, intizomiy qismga jo‘natishning, ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga;
- b) axloq tuzatish ishlarining yoki xizmat bo‘yicha cheklashning uch kuniga;
- v) majburiy jamoat ishlarining to‘rt soatiga tenglashtirib hisoblaydi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Sud ushlab turilgan, qamoqda yoki uy qamog‘ida saqlangan shaxsga jarima tayinlashda ushlab turishning, qamoqda yoki uy qamog‘ida saqlashning bir kunini bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismiga tenglashtirib hisobga oladi.

*(62-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrdagi O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

### **63-modda. Jazo muddatlarini hisoblash**



*Oldingi tahrirga qarang.*

Muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, qamoq, ozodlikni cheklash, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazolarning muddatlari oylar va yillar bilan hisoblanadi. Jazolarni almashtirish, hisoblash, qo'shish vaqtida ularning muddatlari sutkalar bilan hisoblanishi mumkin.

*(63-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazoning muddatlari soatlar bilan hisoblanadi.

*(63-modda O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

## **BESHINCHI BO'LIM** **JAVOBGARLIK DAN VA JAZODAN OZOD QILISH**

### **XII bob. Javobgarlikdan ozod qilishning turlari**

#### **64-modda. Javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar jinoyat sodir etilgan kundan boshlab quyidagi muddatlar:

- a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — ikki yil;
- b) uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — to'rt yil;
- v) og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — sakkiz yil;
- g) o'ta og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — o'n to'rt yil o'tgan bo'lsa, shaxs

javobgarlikdan ozod qilinadi.

*(64-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 20-iyuldagi O'RQ-485-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.07.2018-y., 03/18/485/1552-son)*

Javobgarlikka tortish muddati jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hukm qonuniy kuchga kirgan kungacha hisoblanadi.

Agar jinoyat sodir etgan va jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxs tergov yoki suddan yashirinsa, muddatning o'tishi to'xtatiladi. Aybdor ushlangan yoki aybini bo'yniga olib arz qilgan kundan boshlab muddatning o'tishi qaytadan tiklanadi.

Agar og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxs ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar o'tmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etsa, muddatning o'tishi uziladi. Bunday holda javobgarlikka tortish muddatlari yangi jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hisoblanadi. Qolgan hollarda, agar shaxs javobgarlikka tortish muddatlari o'tmasdan yangi jinoyat sodir etsa, bu muddatlar har bir jinoyat uchun alohida hisoblanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab o'n yil, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab yigirma besh yil o'tgan bo'lsa, shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

*(64-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 20-iyuldagi O'RQ-485-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.07.2018-y., 03/18/485/1552-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ushbu Kodeks **Maxsus qismining** moddasida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxsга nisbatan, javobgarlikka tortish muddatlarini qo'llash masalasi sud tomonidan hal qilinadi. Agar sud javobgarlikka tortish muddatini qo'llashni

lozim topmasa, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'rniga ozodlikdan mahrum qilish tayinlanadi.

*(64-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagi O'RQ-99-sonli Qonuni tahririda — Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-y., 6-son, 248-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar ushbu Kodeksning 150 — 157-moddalarida, 158-moddasining birinchi qismida, 159-moddasining uchinchi va to'rtinchi qismlarida, 160, 161 va 244<sup>2</sup>-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

*(64-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 20-iyuldagi O'RQ-485-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.07.2018-y., 03/18/485/1552-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi birinchi qismining 1-bandi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 14-noyabrdagi 15-sonli "Umbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 8-bandi.*

### **65-modda. Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish**

Ishni tergov qilish yoki sudda ko'rish vaqtida sharoit o'zgarganligi tufayli sodir etilgan qilmish o'zining ijtimoiy xavfliligini yo'qotgan deb topilsa, jinoyat sodir etgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Ishni tergov qilish yoki sudda ko'rish vaqtida sharoit o'zgarganligi tufayli jinoyat sodir etgan shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotgan deb topilsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi beshinchi qismining 1-bandi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qarori 2-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 21-maydagi 4-sonli "Jazolarni liberallashtirish to'g'risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi qarori 3-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 11-oktabrdagi 35-sonli "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 16-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrda 20-sonli "Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq ishlar bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 13<sup>1</sup>-bandi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **66-modda. Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish**

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon

bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi beshinchi qismining 2-bandi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qarori 2-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 21-maydagi 4-sonli "Jazolarni liberallashtirish to'g'risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi qarori 3-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 11-oktabrdagi 35-sonli "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 16-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrda 20-sonli "Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq ishlar bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 13<sup>1</sup>-bandi.*

Ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida alohida ko'rsatilgan hollarda, jinoyat sodir etgan shaxs o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lgan taqdirda javobgarlikdan ozod qilinishi lozim.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi birinchi qismining 8-bandi.*

*(66-modda O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 27-dekabrda O'RQ-277-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2010-y., 52-son, 509-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **66<sup>1</sup>-modda. Yarashilganligi munosabati bilan jinoyiy javobgarlikdan ozod qilish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ushbu Kodeks 105-moddasining **birinchi qismida** (qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish), **106-moddasida** (kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish), **107-moddasida** (zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish), **108-moddasida** (ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, badanga qasddan og'ir shikast yetkazish), **109-moddasida** (qasddan badanga yengil shikast yetkazish), 110-moddasining **birinchi qismida** (qiynash), **111-moddasida** (ehtiyotsizlik orqasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish), 113-moddasining **birinchi** va **ikkinchi** qismlarida (tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish), **115-moddasida** (ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash), 116-moddasining **birinchi** va **ikkinchi** qismlarida (kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik), 117-moddasining **birinchi qismida** (xavf ostida qoldirish), 121-moddasining **birinchi qismida** (ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etish), **122-moddasida** (voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash), **123-moddasida** (ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash), 125-moddasining **birinchi qismida** (farzandlikka olish sirini oshkor qilish), **136-moddasida** (ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish), 138-moddasining **birinchi qismida** (zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish), 139-moddasining **birinchi** va **ikkinchi** qismlarida (tuhmat), 140-

moddasining **birinchi** va **ikkinchi qismlarida** (haqorat qilish), 141<sup>1</sup>-moddasining **birinchi qismida** (shaxsiy hayot daxlsizligini buzish), 141<sup>2</sup>-moddasining **birinchi qismida** (shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish), **143-moddasida** (xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlar yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzish), **148-moddasida** (mehnat qilish huquqini buzish), **149-moddasida** (mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish), 167-moddasining **birinchi qismida** (o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish), 168-moddasining **birinchi qismida** (firibgarlik), 169-moddasining **birinchi qismida** (o'g'rilik), 170-moddasining birinchi qismida hamda ikkinchi qismining "b" va "v" bandlarida (aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazish), **172-moddasida** (mulkni qo'riqlashga vijdotsiz munosabatda bo'lish), 173-moddasining **birinchi qismida** (mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish), **180-moddasida** (soxta bankrotlik), **181-moddasida** (bankrotlikni yashirish), **185<sup>2</sup>-moddasida** (elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzish), **189-moddasida** (savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish), **191-moddasida** (qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish), **192-moddasida** (raqobatchini obro'sizlantirish), **229-moddasida** (o'zboshimchalik), 256-moddasining **birinchi va ikkinchi qismlarida** (tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish), 257-moddasining **birinchi qismida** (mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish), 258-moddasining **birinchi qismida** (tog'kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish), 259-moddasining **birinchi qismida** (yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish), 260-moddasining **birinchi qismida** (temir yo'l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish), 266-moddasining **birinchi qismida** (transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish), 268-moddasining **birinchi qismida** (transportning xavfsiz ishlashini ta'minlashga doir qoidalarni buzish), 277-moddasining **birinchi qismida** (bezorilik), 298-moddasining **birinchi qismida** (mashinalarni boshqa ish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish) nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs, agar u o'z aybiga iqror bo'lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin.

*(66<sup>1</sup>-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasining to'rtinchi qismi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 25-oktabrdagi 27-sonli "Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarori.*

*(66<sup>1</sup>-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 27-avgustdagi 671-II-son Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-y., 37-son, 408-modda)*

## **67-modda. Kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar jinoyat sodir etgan shaxsda hukm chiqarilguniga qadar o‘z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan tarzda ruhiy holatning buzilishi yuzaga kelgan bo‘lsa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.

*(67-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 12-sentabrdagi O‘RQ-567-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019-y., 03/19/567/3737-son)*

Bunday shaxsga nisbatan sud tomonidan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasining uchinchi qismi.*

Bunday shaxs ushbu Kodeksning 64-moddasida nazarda tutilgan muddatlar o‘tmasdan tuzalsa, javobgarlikka tortiladi. Bunday holda javobgarlikka tortish muddatlari sud tomonidan tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasi qo‘llanilgan kundan hisoblanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 12-dekabrda 23-sonli “Ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori.*

### **68-modda. Amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish**

Jinoyat sodir etgan shaxs amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi birinchi qismining 2-bandi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 22-dekabrda 16-sonli “Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori.*

## **XIII bob. Jazodan ozod qilishning turlari**

### **69-modda. Jazoni ijro etish muddati o‘tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish**

Agar hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab:

a) uch yildan ortiq bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoga hukm qilinganda — uch yil;

b) besh yildan ortiq bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganda — besh yil;

v) o‘n yildan ortiq bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganda — o‘n yil;

g) o‘n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganda — o‘n besh yil ichida ijro etilmagan bo‘lsa, mahkum asosiy va qo‘shimcha jazolardan ozod qilinadi.

Agar mahkum ushbu moddada nazarda tutilgan jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlasa, jazoni ijro etish muddati ikki baravar ko‘payadi va jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlagan kundan boshlab hisoblanadi, lekin yigirma besh yildan oshmasligi kerak.



Agar shaxs ushbu moddada ko'rsatilgan muddatlar o'tmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etsa, muddatlarning o'tishi uziladi. Bunday holda muddatlarning o'tishini hisoblash yangi jinoyat sodir etilgan paytdan qaytadan boshlanadi.

Agar jazo tayinlangan kundan boshlab yigirma besh yil o'tgan bo'lsa, jazoni ijro etish mumkin emas.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm etilgan shaxsga nisbatan muddatlar o'tishini qo'llash masalasi sud tomonidan hal qilinadi. Agar sud muddatlar o'tishini qo'llashni lozim topmasa, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtiriladi.

*(69-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagi O'RQ-99-sonli Qonuni tahririda — Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-y., 6-son, 248-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar ushbu Kodeksning 150 — 157-moddalarida, 158-moddasining birinchi qismida, 159-moddasining uchinchi va to'rtinchi qismlarida, 160, 161 va 244<sup>2</sup>-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

*(69-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 20-iyuldagi O'RQ-485-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.07.2018-y., 03/18/485/1552-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 463-moddasi uchinchi qismining 2-bandi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 14-noyabrdagi 15-sonli "Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori 8-bandining ikkinchi va uchinchi xatboshilari.*

## **70-modda. Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish**

Jinoyat sodir etgan shaxs agar ish sudda ko'rilayotgan vaqtgacha sharoit o'zgardi yoki shaxs namunali xulqi, mehnatga yoki o'qishga halol munosabati bilan o'zini ko'rsatib, ijtimoiy xavfliligini yo'qotdi deb e'tirof etilsa, sud uni jazodan ozod qilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 463-moddasi uchinchi qismining 3-bandi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qarori 2-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrda 20-sonli "Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq ishlar bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 13<sup>1</sup>-bandi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **71-modda. Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish**



Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo‘lsa, sud tomonidan jazodan ozod qilinishi mumkin.

Boshqa shaxslar bilan birgalikda jinoyat sodir etishda ishtirok qilgan yoki uyushgan guruh yoxud jinoiy uyushma a‘zosi bo‘lgan shaxs, agar u aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilgan, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan, jinoyatning oldini olish, jinoyatni ochish yoki uning tashkilotchilarini yoxud boshqa ishtirokchilarini aniqlash va fosh qilishga yordam bergan bo‘lsa, basharti u og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etishda bevosita ishtirok etmagan bo‘lsa, sud tomonidan jazodan ozod qilinishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 463-moddasi uchinchi qismining 6-bandi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 2-bandining ikkinchi xatboshisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrda 20-sonli “Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 13<sup>1</sup>-bandi.*

Ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida alohida ko‘rsatilgan hollarda, jinoyat sodir etgan shaxs o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lgan taqdirda sud tomonidan jazodan ozod qilinishi lozim.

*(71-modda O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 27-dekabrda O‘RQ-277-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2010-y., 52-son, 509-modda)*

## **72-modda. Shartli hukm qilish**

Agar sud ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo‘natish, xizmat bo‘yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlari jazolarini tayinlash vaqtida sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, aybdorning shaxsi va ishdagi boshqa holatlarni e‘tiborga olib, aybdor tayinlangan jazoni o‘tamasdan turib ham uning xulqini nazorat qilish orqali tuzatish mumkin, degan qat‘iy fikrga kelsa, shartli hukm qo‘llashi mumkin. Bunday holda sud, basharti, belgilangan sinov muddati davomida jazoning shartlilikini bekor qilish asoslari kelib chiqmasa, tayinlangan jazoni ijro etmaslik to‘g‘risida qaror chiqaradi.

Sinov muddati bir yildan uch yilgacha belgilanib, hukm chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi. Basharti, shartli hukm qilish to‘g‘risidagi qaror yuqori sud tomonidan chiqarilgan taqdirda ham, sinov muddatini hisoblash shu kundan boshlanadi.

Shartli hukm qilinganda, basharti, bunga asoslar mavjud bo‘lsa, sud mahkumga muayyan vaqt mobaynida yetkazilgan zararni bartaraf qilish, ishga yoki o‘qishga kirish, yashash joyi, ish yoki o‘qish joyi o‘zgarib qolsa, bu haqda shartli hukm qilingan shaxsning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organga xabar berib turish, vaqti-vaqti bilan kelib bu organlarda ro‘yxatdan o‘tib turish, muayyan joylarda bo‘lmaslik, muayyan vaqtda yashash joyida bo‘lishi, alkogolizm, giyovandlik, zaharvandlik yoki tanosil kasalligidan davolanish kursini o‘tashi kabi majburiyatlarni yuklashi mumkin.

Shartli hukm qilingan shaxslarning xulqi ustidan ichki ishlar organlari, harbiy xizmatchilar xulqi ustidan esa, harbiy qism yoki muassasaning qo‘mondonligi nazorat olib boradi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi 15-moddasining birinchi qismi, 32-bobi (“Shartli hukm qilingan shaxslar ustidan nazorat”).*

Hukm qilingan shaxsning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organning taqdimi bilan sud sinov muddati davomida unga yuklatilgan majburiyatlarning hammasini yoki bir qismini olib tashlashi yoki uning zimmasiga yangi majburiyatlar yuklashi ham mumkin.

Agar shartli hukm qilingan shaxs sinov muddati davomida sud unga yuklagan majburiyatlarni bajarmasa yoxud jamoat tartibi yoki mehnat intizomini buzganligi uchun unga ma‘muriy yoki intizomiy ta‘sir chorasi qo‘llanilgan bo‘lsa sud uning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organ taqdimnomasiga binoan jazoning shartlilikini bekor qilib, hukmda tayinlangan jazoni ijro etish to‘g‘risida ajrim chiqarishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 535-moddasi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi 07-sonli “Sud hukmi to‘g‘risida”gi qarori 30-bandining beshinchi xatboshisi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Shartli hukm o‘ta og‘ir jinoyati uchun hukm qilinganlarga, shuningdek ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi, o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslar, birinchi va ikkinchi guruh nogironlari, ayollar, shuningdek oltmish yoshdan oshgan shaxslar bundan mustasno.

*(72-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda 357-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1997-y., 2-son, 56-modda)*

Shartli hukm qilingan shaxs sinov muddati davomida yangi jinoyat sodir etsa, sud unga nisbatan ushbu Kodeksning 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalar bo‘yicha jazo tayinlaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 31 — 36<sup>1</sup>-bandlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 22-dekabrda 16-sonli “Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori 23-bandining ikkinchi xatboshisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrda 21-sonli “Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 10-bandining birinchi va ikkinchi xatboshilari.*

### **73-modda. Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo‘natish, xizmat bo‘yicha cheklash, ozodlikni cheklash yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo‘llanilishi mumkin. Shaxs ijro etilmagan qo‘shimcha jazodan ham ozod qilinishi mumkin.

*(73-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustda O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish ushbu moddaning **birinchi qismida** ko‘rsatilgan jazo turlari uchun o‘rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo‘lgan mahkumga nisbatan qo‘llaniladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish mahkum:

a) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini;

b) og‘ir jinoyati uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo‘lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida yarmini;

v) o‘ta og‘ir jinoyati uchun, shuningdek jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan yoki jazosi yengilrog‘i bilan almashtirilgan shaxs jazoning o‘talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilingan bo‘lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan ikki qismini haqiqatda o‘tab bo‘lganidan keyin qo‘llanilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 536-moddasi.*

*(73-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

Jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish:

*Oldingi tahrirga qarang.*

a) umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxsga;

*(73-modda to‘rtinchi qismining “a” bandi O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagi O‘RQ-99-sonli Qonuni tahririda — Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-y., 6-son, 248-modda)*

b) o‘ta xavfli retsivistga;

v) uyushgan guruh yoki jinoyiy uyushmaning tashkilotchi va qatnashuvchilariga;

*Oldingi tahrirga qarang.*

g) javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish, o‘n to‘rt yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo‘rluk ishlatib, jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish, O‘zbekiston Respublikasiga, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etish, yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa xildagi ommaviy qirg‘in qurollarini, shunday qurollarni ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkinligi ayon bo‘lgan material va uskunalarni, kontrabanda qilish uchun hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi 112-moddasining uchinchi qismi va 164-moddasi.*

*(73-moddaning to‘rtinchi qismi “g” bandi O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagi O‘RQ-99-sonli Qonuni tahririda — Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-y., 6-son, 248-modda)*

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinib, jazoning o‘talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan sud ushbu Kodeksning 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq jazo tayinlaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari”ning (ro‘yxat raqami: 2495, 29.07.2013-y.) 472 — 480-bandlari.*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 22-dekabrda 16-sonli “Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori 15-bandining to‘rtinchi xatboshisi.*

#### **74-modda. Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ozodlikdan mahrum etilgan, ozodligi cheklangan yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan sud jazoning o‘talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirishi mumkin.

*(74-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish ushbu moddaning **birinchi qismida** ko‘rsatilgan jazo turlari uchun o‘rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo‘lgan mahkumga nisbatan qo‘llanilishi mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish mahkum:

a) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida to‘rt dan bir qismini;

b) og‘ir jinoyati uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar u ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo‘lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini;

v) o‘ta og‘ir jinoyati uchun, shuningdek jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish qo‘llanilgan va jazoning o‘talmagan qismi mobaynida qasddan sodir etgan yangi jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida yarmini haqiqatda o‘tab bo‘lganidan keyin qo‘llanilishi mumkin.

*(74-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoning o‘talmagan qismi axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilganda axloq tuzatish ishlari ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazosining o‘talmagan qismi muddatiga tayinlanadi.

*(74-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

Jazoning o‘talmagan qismini yengilrog‘i bilan almashtirish ushbu Kodeksning 73-moddasi to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi 112-moddasining uchinchi qismi va 164-moddasi.*

Jazosi yengilroq jazo bilan almashtirilgan shaxslar yengilroq jazoning tegishli qismini o‘tab bo‘lganlaridan keyin ushbu Kodeksning **73-moddasida** nazarda tutilgan qoidalarga binoan jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilinishlari mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jazosi yengilroq jazo bilan almashtirilgan shaxs jazoning o‘talmagan qismi mobaynida yangi jinoyat sodir etsa, sud unga ushbu Kodeksning **60-moddasida** nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq jazo tayinlaydi.

(74-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 536-moddasi, "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari"ning (ro'yxat raqami: 2495, 29.07.2013-y.) 472 — 480-bandlari.

### **75-modda. Kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish oqibatida jazodan ozod qilish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Hukm chiqarilganidan keyin o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan tarzda ruhiy holatining buzilishi yuzaga kelgan shaxs, shuningdek jazoni o'tashga to'sqinlik qiladigan boshqa og'ir kasallikka chalingan shaxs jazoni o'tashdan ozod qilinishi lozim.

(75-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 12-sentabrdagi O'RQ-567-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019-y., 03/19/567/3737-son)

Ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan shaxslarga nisbatan sud tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashi mumkin.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 12-dekabrda 23-sonli "Ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 4-bandi.

Bunday shaxslar tuzalganidan keyin, ushbu Kodeksning 69-moddasida nazarda tutilgan va sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan kundan boshlab hisoblanadigan muddatlar o'tib ketmagan bo'lsa, jazo ijro etiladi.

Intizomiy qismga jo'natish yoxud xizmat bo'yicha cheklash jazosiga hukm qilingan harbiy xizmatchilar, ularning sog'lig'i harbiy xizmat uchun yaroqsiz deb topilgan bo'lsa, jazoni o'tashdan ozod qilinadilar. Xizmat bo'yicha cheklash jazosiga hukm qilingan harbiy xizmatchi ayollar ularga homiladorlik va tug'ish ta'tili berilishi munosabati bilan ham jazoni o'tashdan ozod qilinadilar.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Majburiy jamoat ishlariga yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslar jazoni o'tash vaqtida mehnatga yaroqsiz bo'lib qolsalar yoxud pensiya yoshiga yetgan bo'lsalar, shuningdek ayollar bu turdagi jazoni o'tayotgan vaqtda homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqsalar, jazoni o'tashdan ozod qilinadilar.

(75-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 534-moddasi, 542-moddasining beshinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 165-moddasi, "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari"ning (ro'yxat raqami: 2495, 29.07.2013-y.)482 — 484-bandlari va "Og'ir kasallikka chalingan mahkumlarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish va ularni kasalligi tufayli jazoni o'tashdan ozod qilishga taqdim etish" qoidalari (ro'yxat raqami: 1854, 09.09.2008-y.).

### **76-modda. Amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish**

Hukm etilgan shaxs amnistiya akti yoki afv etish asosida asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazolardan ozod qilinishi yoxud jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod



qilinishi yoki unga tayinlangan jazoning o'talmay qolgan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin.

Agar amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoxud jazoni yengilroq'i bilan almashtirish qo'llanilgan shaxs jazoning o'talmay qolgan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etsa, sud unga ushbu Kodeksning 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha jazo tayinlaydi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Afv etish to'g'risidagi iltimosnoma umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxs tomonidan u tayinlangan jazoning yigirma besh yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin, agar jazoni o'tash davrida mahkum qat'iy tuzalish yo'liga o'tgan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan, mehnat va o'qishga nisbatan vijdonan munosabatda bo'layotgan, tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishda faol ishtirok etayotgan taqdirda esa, tayinlangan jazoning yigirma yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin berilishi mumkin.

Afv etish to'g'risidagi iltimosnoma uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxs tomonidan u tayinlangan jazo muddatining yigirma yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin, agar jazoni o'tash davrida mahkum qat'iy tuzalish yo'liga o'tgan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan, mehnat va o'qishga nisbatan vijdonan munosabatda bo'layotgan, tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishda faol ishtirok etayotgan taqdirda esa, tayinlangan jazoning o'n besh yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin berilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 536<sup>1</sup>-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 140, 166-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-maydagi PF-5439-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida afv etishni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizom.*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 22-dekabrda 16-sonli "Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 14-noyabrda 15-sonli "Umbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 9 va 10-bandlari.*

*(76-modda O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagi O'RQ-99-sonli Qonuni asosida uchinchi va to'rtinchi qismlar bilan to'ldirilgan — Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-y., 6-son, 248-modda)*

## **XIV bob. Sudlanganlik**

### **77-modda. Sudlanganlikning huquqiy ahamiyati**

Sudlanganlik shaxsning sodir etgan jinoyati uchun hukm etilganligidan kelib chiqadigan huquqiy holatdir.

Jazo tayinlangan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab shaxs sudlangan deb hisoblanadi. Sud tomonidan jazodan ozod qilingan shaxs sudlanmagan deb hisoblanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeks Umumiy qismining XIII bobi ("Jazodan ozod qilishning turlari"), O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 528-moddasining birinchi va ikkinchi qismlari.*

Sudlanganlik ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda va shaxs yangi jinoyat sodir etgandagina huquqiy ahamiyatga ega bo'ladi.



Sudlanganlik muddatining o'tib ketganligi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi munosabati bilan uning barcha huquqiy oqibatlari bekor bo'ladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 78 va 79-moddalari.*

Jazoni o'tagan, ammo qonunning o'zgarishi bilan bunday qilmish jinoyat deb hisoblanmaydigan taqdirda, shuningdek sodir qilingan jinoyat uchun tayinlangan jazoni o'tab bo'linishi bilan sudlanganlik holatining tugallanishi belgilangan bo'lsa, shaxs sudlanmagan deb hisoblanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2015-yil 18-sentabrdagi 13-sonli "Sudlanganlik holati tugallanishi va olib tashlanishiga oid qonunchilikni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 22-dekabrdagi 16-sonli "Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 6 va 7-bandlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi 07-sonli "Sud hukmi to'g'risida"gi qarori 15-bandining ikkinchi — beshinchi xatboshilari.*

### **78-modda. Sudlanganlik holatining tugallanishi**

Shaxsning sudlanganlik holati quyidagi paytlarda tugallanadi:

a) shartli hukm qilinganlarga nisbatan — sinov muddati tugagan kundan boshlab;

*Oldingi tahrirga qarang.*

b) majburiy jamoat ishlari, xizmat bo'yicha cheklash yoki intizomiy qismga jo'natish tarzidagi jazolarini o'tab chiqqach;

*(78-moddaning "b" bandi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

v) jarima jazosi ijro etilgan kundan keyin, shuningdek muayyan huquqdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari jazolari o'talganidan keyin bir yil o'tgach;

*Oldingi tahrirga qarang.*

g) ozodlikni cheklash jazosi o'talganidan keyin — ikki yil o'tgach;

*(78-moddaning "g" bandi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

d) besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan keyin — to'rt yil o'tgach;

e) besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan keyin — yetti yil o'tgach;

j) o'n yildan ortiq, lekin o'n besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan keyin — o'n yil o'tgach.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2015-yil 18-sentabrdagi 13-sonli "Sudlanganlik holati tugallanishi va olib tashlanishiga oid qonunchilikni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 4-bandining birinchi, ikkinchi, to'rtinchi xatboshilari, 5-bandining birinchi xatboshisi, 7 — 11, 13-bandlari.*

### **79-modda. Sudlanganlikning olib tashlanishi**

Agar shaxs ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab bo'lganidan keyin unga nisbatan ma'muriy jazo yoki intizomiy ta'sir choralari qo'llanilmagan bo'lsa, jamoat birlashmasi, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi, jamoa yoki jazoni o'tab chiqqan shaxsning o'zi bergan

iltimosnomasiga ko'ra sud ushbu Kodeksning 78-moddasida nazarda tutilgan muddatlarning kamida yarmi o'tganidan keyin uning sudlanganligini olib tashlashi mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ushbu Kodeksning 178 — 184, 185 — 185<sup>2</sup>, 189 — 192-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlik uchun hukm qilingan shaxslarning sudlanganligi ular davlatga juda ko'p zarar yetkazmaganda, ushbu Kodeksning 78-moddasida nazarda tutilgan muddatlarning kamida to'rtidan bir qismi o'tganidan keyin sud tomonidan olib tashlanishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrda 20-sonli "Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq ishlar bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 13<sup>2</sup>-bandi.*

*(79-modda O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 29-dekabrda O'RQ-345-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2013-y., 1-son, 1-modda)*

O'n besh yil va undan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqan shaxslar hamda o'ta xavfli retdivistlar, agar ular jazoni o'tab chiqqanidan keyin o'n besh yil mobaynida yangi jinoyat sodir etmasalar, sud ularning sudlanganligini olib tashlashi mumkin.

Ushbu Kodeksning 13-moddasi **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda ham sudlanganlik olib tashlanishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 544-moddasi.*

Sudlanganlik afv etish yoki amnistiya akti asosida ham olib tashlanishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-mayda PF-5439-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida afv etishni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizom 5-bandining beshinchi xatboshisi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2015-yil 18-sentabrda 13-sonli "Sudlanganlik holati tugallanishi va olib tashlanishiga oid qonunchilikni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 4-bandining birinchi, uchinchi, to'rtinchi xatboshilari, 5, 7, 12, 13-bandlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 22-dekabrda 16-sonli "Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori 3-bandi yettinchi xatboshisi.*

## **80-modda. Sudlanganlik holatining tugallanish yoki sudlanganlikni olib tashlash muddatlarini hisoblash**

Sudlanganlik holatining tugallanish yoki sudlanganlikni olib tashlash muddatlari asosiy va qo'shimcha jazolar o'tab bo'lingan yoki ijro etilgan kundan boshlab hisoblanadi.

Agar shaxs tayinlangan jazodan qonunda belgilangan tartibda muddatidan ilgari ozod qilingan yoxud jazo yengilrog'i bilan almashtirilgan bo'lsa, sudlanganlik muddati muddatidan ilgari ozod qilingan yoki yengilrog'i bilan almashtirilgan jazoning amalda o'tab bo'lingan qismidan hisoblanadi.

Agar ushbu Kodeksning 44, 46-moddalari asosida hukm bo'yicha tayinlangan jazoni sud boshqa jazo bilan almashtirgan bo'lsa, sudlanganlik muddati jazoning amalda o'tab bo'lingan yoki ijro etilgan qismidan hisoblanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar jazoni o‘tab chiqqan shaxs sudlanganlik holatining muddati tugamay, yana jinoyat sodir etsa, sudlanganlik holatini tugatuvchi muddatning o‘tishi to‘xtatiladi. Ilgari sodir etilgan jinoyat uchun sudlanganlik holatining tugash muddati oxirgi sodir etilgan jinoyat uchun (asosiy va qo‘shimcha) jazoni amalda o‘tab bo‘lganidan boshlab hisoblanadi.

*(80-modda O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda 357-I-son Qonuniga asosan to‘rtinchi qism bilan to‘ldirildi — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1997-y., 2-son, 56-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2015-yil 18-sentabrda 13-sonli “Sudlanganlik holati tugallanishi va olib tashlanishiga oid qonunchilikni qo‘llash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 7 — 10-bandalri.*

## **OLTINCHI BO‘LIM**

### **VOYAGA YETMAGANLAR JAVOBGARLIGINING XUSUSIYATLARI**

#### **XV bob. Jazo va uni tayinlash**

##### **81-modda. Jazo tizimi**

O‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga quyidagi asosiy jazolar qo‘llanilishi mumkin:

a) jarima;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 82-moddasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

a<sup>1</sup>) majburiy jamoat ishlari;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 82<sup>1</sup>-moddasi.*

*(81-modda O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martda O‘RQ-421-sonli Qonuniga asosan “a<sup>1</sup>” band bilan to‘ldirilgan — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

b) axloq tuzatish ishlari;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 83-moddasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(81-moddaning “v” bandi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martda O‘RQ-421-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

v<sup>1</sup>) ozodlikni cheklash;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 84<sup>1</sup>-moddasi.*

*(81-modda O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustda O‘RQ-389-sonli Qonuniga asosan “v<sup>1</sup>” band bilan to‘ldirildi — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

g) ozodlikdan mahrum qilish.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 85-moddasi.*

O‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘shimcha jazolar tayinlanishi mumkin emas.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 12-bandining birinchi xatboshisi.*

## **82-modda. Jarima**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jarima bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda tayinlanadi.

*(82-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 12, 15, 16, 17-bandlari.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Mahkum jarima to‘lashdan olti oy muddat mobaynida bo‘yin tovlasa, sud to‘lanmagan jarima miqdorini bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdoridagi jarimani majburiy jamoat ishlarining ikki soatiga tenglashtirgan holda hisoblab, majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazo bilan almashtiradi yoki bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdoridagi jarimani axloq tuzatish ishlarining bir oyiga tenglashtirgan holda hisoblab, axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazo bilan almashtiradi.

*(82-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 539-moddasi, 542-moddasining uchinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 5-bobi (“Jarima tariqasidagi jazoni ijro etish”) va O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunining 30, 32, 32<sup>1</sup>-moddalari.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **82<sup>1</sup>-modda. Majburiy jamoat ishlari**

Majburiy jamoat ishlari faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan oltmish soatdan ikki yuz qirq soatgacha bo‘lgan muddatga tayinlanadi. Majburiy jamoat ishlari voyaga yetmaganlarning sog‘lig‘iga va ma‘naviy jihatdan rivojlanishiga zarar yetkazmasligi, o‘qish jarayonini buzmasligi lozim.

O‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslar tomonidan majburiy jamoat ishlarini bajarish muddati, agar qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, olti oy davomida kuniga ikki soatdan oshmasligi, mahkumga bog‘liq bo‘lmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda esa, bir yilgacha bo‘lgan muhlatda kuniga ikki soatdan oshmasligi kerak.

Mahkum jazoni o'tashdan bo'yin tovlagan taqdirda, sud majburiy jamoat ishlarining o'talmagan muddatini majburiy jamoat ishlarining to'rt soatini ozodlikni cheklashning yoki ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga tenglashtirgan holda hisoblab, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi. Jazoni o'tashdan bo'yin tovlanilgan vaqt jazoning o'talgan muddatiga qo'shib hisoblanmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-maydagi 346-sonli "Majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazoning ijrosini tashkil etish tartibi haqidagi nizomni hamda majburiy jamoat ishlari turlarining ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.*

*(82<sup>1</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

### **83-modda. Axloq tuzatish ishlari**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Axloq tuzatish ishlari faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan o'z ish joyida o'tash, aybdor hech qayerda ishlamas, ushbu jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan o'zi yashaydigan hududdagi boshqa joylarda o'tash tariqasida bir oydan bir yilgacha muddatga tayinlanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qarori 12 va 18 — 23-bandlari.*

*(83-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda 357-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1997-y., 2-son, 56-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Voyaga yetmagan shaxs tayinlangan axloq tuzatish ishlarining o'ndan bir qismidan ko'prog'ini o'tashdan bo'yin tovlagan taqdirda, sud bu jazoning o'talmagan qismini axloq tuzatish ishlarining har uch kunini ozodlikni cheklashning yoki ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga tenglashtirgan holda hisoblab, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 539, 541-moddalari, 542-moddasining uchinchi qismi, 545-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 5-bobi ("Jarima tariqasidagi jazoni ijro etish"), O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunining 67-moddasi.*

*(83-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(84-modda O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **84<sup>1</sup>-modda. Ozodlikni cheklash**

Ozodlikni cheklash voyaga yetmagan mahkumlarga nisbatan asosiy jazo chorasi sifatida olti oydan ikki yilgacha muddatga tayinlanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 8<sup>1</sup>-bobi ("Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni ijro etish").*

*(84<sup>1</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

### **85-modda. Ozodlikdan mahrum qilish**

Voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi olti oydan o'n yilgacha muddatga tayinlanadi, ushbu Kodeks 86-moddasining **ikkinchi**, **uchinchi** va **to'rtinchi** qismlaridanazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ozodlikdan mahrum qilish jinoyat sodir etish paytida o'n to'rt yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan:

*(85-modda ikkinchi qismining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-dekabrda O'RQ-735-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.12.2021-y., 03/21/735/1141-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(85-modda ikkinchi qismining "a" bandi O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 24-sentabrdagi O'RQ-182-sonli Qonuni bilan chiqarilgan — O'R QHT, 2008-y., 39-son, 391-modda)*

b) og'ir jinoyat uchun — olti yilgacha;

v) o'ta og'ir jinoyat uchun — o'n yilgacha muddatga tayinlanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish jinoyat sodir etish paytida o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan:

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(85-modda uchinchi qismining "a" bandi O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 24-sentabrdagi O'RQ-182-sonli Qonuni bilan chiqarilgan — O'R QHT, 2008-y., 39-son, 391-modda)*

b) og'ir jinoyat uchun — yetti yilgacha;

v) o'ta og'ir jinoyat uchun — o'n yilgacha muddatga tayinlanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Voyaga yetmay turib ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etgan, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etgan yoxud qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanmaydi.

*(85-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrda 568-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son, 18-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Hukm chiqarish paytida o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosini tarbiya koloniyalarida o'tash tayinlanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining IV bo'limi ("Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish").*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 12 va 26 — 30-bandlari.*



*(85-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrda 568-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son, 18-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(85-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrda 568-II-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son, 18-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(85-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrda 568-II-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son, 18-modda)*

## **86-modda. Jazo tayinlash**

Sud voyaga yetmaganlarga jazo tayinlashda jazo tayinlashning umumiy asoslariga amal qiladi, voyaga yetmaganning rivojlanganlik darajasi, turmush sharoiti va tarbiyasini, sog‘lig‘ini, sodir etgan jinoyatining sabablarini, katta yoshdagilarning va boshqa holatlarning uning shaxsiga ta‘sirini hisobga oladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeks Umumiy qismining XI bob (“Jazo tayinlash”).*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘n to‘rt yoshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan vaqtda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyatlar majmui tariqasida jazo tayinlanganda ozodlikdan mahrum qilishning eng ko‘p muddati o‘n yilgacha, agar sodir etgan jinoyatlarining bittasi o‘ta og‘ir jinoyat bo‘lsa, o‘n ikki yilgacha tayinlanadi.

*(86-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-dekabrda O‘RQ-735-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.12.2021-y., 03/21/735/1141-son)*

O‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan vaqtda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyatlar majmui tariqasida ozodlikdan mahrum qilish jazosi — o‘n ikki yilgacha muddatga, agar sodir etgan jinoyatlarining bittasi o‘ta og‘ir jinoyat bo‘lsa, o‘n besh yilgacha muddatga tayinlanishi mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jinoyat sodir etish paytida o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan bir necha hukm yuzasidan tayinlanadigan ozodlikdan mahrum qilish jazosining muddati o‘n besh yildan oshmasligi kerak.

*(86-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-dekabrda O‘RQ-735-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.12.2021-y., 03/21/735/1141-son)*

Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlanganda sud ushbu Kodeksning 72-moddasida nazarda tutilgan asos va shartlar mavjud bo‘lsa, shartli jazo belgilashi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevralda 1-sonli “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrda 21-sonli “Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 9 va 10-bandlari.*

## **XVI bob. Javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish**

**87-modda. Majburlov choralarini qo‘llagan holda javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan voyaga yetmagan shaxs, agar sodir etgan qilmishining xususiyatlari, aybdorning shaxsi va ishning boshqa holatlarini e‘tiborga olib, uni jazo qo‘llamasdan turib ham tuzatish mumkin degan xulosaga kelinsa, javobgarlikdan ozod qilinib, ish voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyada ko‘rishga topshirilishi mumkin.

*(87-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-446-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 37-son, 978-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalar to‘g‘risida”gi nizom.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlash nazarda tutilgan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan yoki ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatni takroran sodir etgan voyaga yetmagan shaxsni, mazkur moddaning **birinchi qismida** nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lsa, sud jazodan ozod qilish va unga nisbatan majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqishi shart.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 564-moddasi.*

*(87-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2005-yil 30-sentabrdagi O‘RQ-10-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2005-y., 39-son, 294-modda)*

Voyaga yetmagan shaxs rivojlanishda o‘z yoshiga nisbatan ancha orqada qolgan bo‘lsa va sodir etgan qilmishining ahamiyatini to‘la ravishda anglab yetmasa, sud jazo o‘rniga majburlov chorasi qo‘llash maqsadga muvofiqligi masalasini ko‘rib chiqishi shart.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 21-sonli “Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori.*

## **88-modda. Majburlov choralari**

Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan quyidagi majburlov choralari qo‘llaniladi:

a) sud belgilaydigan shaklda jabrlanuvchidan uzr so‘rash majburiyatini yuklash;

*Oldingi tahrirga qarang.*

b) o‘n olti yoshga to‘lgan shaxs zimmasiga yetkazilgan zararni o‘z mablag‘i hisobidan yoki mehnati bilan to‘lash yoki bartaraf qilish majburiyatini yuklash. Ushbu chora agar yetkazilgan zarar belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan oshib ketmagan bo‘lsa qo‘llaniladi. Boshqa hollarda yetkazilgan zarar fuqaroviy huquqiy tartibda undiriladi;

*(88-modda birinchi qismining “b” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

v) voyaga yetmaganni maxsus o‘quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi 15-moddasining uchinchi qismi va 34-bobi (“Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan majburlov choralari qo‘llash”).*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Voyaga yetmagan shaxslarni maxsus o'quv-tarbiya muassasalarida bo'lish muddati va shartlari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan belgilanadi.

*(88-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunining 5-bobi ("Voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish tartibi"), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 26-noyabrdagi 268-sonli "Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi qarori.*

### **89-modda. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'n sakkiz yoshga to'lmasdan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilishga, ozodlikni cheklashga yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxsga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish tartibi qo'llanilishi mumkin.

*(89-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan jazo turlari uchun belgilangan tartib-qoida talablarini bajargan mehnat va o'qishga halol munosabatda bo'lgan mahkumga nisbatan qo'llanilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 536-moddasining uchinchi qismi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish:

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida to'rt dan bir qismi;

b) og'ir jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismi;

v) o'ta og'ir jinoyat uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, tayinlangan jazo muddatining kamida yarmini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'llaniladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi 112-moddasining uchinchi qismi va 164-moddasi.*

*(89-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

Jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish qo'llanilgan shaxs jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etsa, sud unga nisbatan ushbu Kodeksning 60 va 86-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq jazo tayinlaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari"ning (ro'yxat raqami: 2495, 29.07.2013-y.) 472 — 480-bandlari.*

### **90-modda. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘n sakkiz yoshga to‘lguncha sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash yoki axloq tuzatish ishiga hukm qilingan shaxsga nisbatan jazoning o‘talmagan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin.

*(90-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish ushbu moddaning **birinchi qismida** ko‘rsatilgan jazo turlari uchun belgilangan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnat yoki o‘qishga halol munosabatda bo‘lib kelayotgan mahkumga nisbatan qo‘llanilishi mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jazoning o‘talmagan qismini yengilrog‘i bilan almashtirish:

a) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida beshdan bir qismi;

b) og‘ir jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida to‘rttdan bir qismi;

v) o‘ta og‘ir jinoyat uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo‘lsa, tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini o‘tab bo‘linganidan keyin qo‘llanilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi 112-moddasining uchinchi qismi va 164-moddasi.*

*(90-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoning o‘talmagan qismi axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilganda axloq tuzatish ishlari ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazosining o‘talmagan qismi muddatiga tayinlanadi.

*(90-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

Jazo yengilrog‘i bilan almashtirilgan shaxslarga nisbatan yengilroq jazoning tegishli qismi o‘tab bo‘linganidan keyin ushbu Kodeksning **89-moddasida** nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq, jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish qo‘llanilishi mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jazo yengilrog‘i bilan almashtirilgan shaxs jazoning o‘talmagan qismi mobaynida yangi jinoyat sodir etsa, sud unga nisbatan ushbu Kodeksning **60 va 86-moddalarida** nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq jazo tayinlaydi.

*(90-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O‘RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 536-moddasining uchinchi qismi, “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari”ning (ro‘yxat raqami: 2495, 29.07.2013-y.)472 — 480-bandlari.*

## **XVII bob. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarining asoslari va ularni tayinlash**

### **91-modda. Majburlov choralarining maqsadlari**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari ruhiy holati buzilgan, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarga nisbatan ushbu shaxslarni davolash va ularning yangi ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etishining oldini olish maqsadida tayinlanishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Psixiatriya yordami to‘g‘risida”gi Qonunining 15-moddasi.*

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari alkogolizmga, giyohvandlikka yoki zaharvandlikka yo‘liqqan yoxud aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxslarga nisbatan jazolash bilan bir qatorda, davolash uchun va jazolash maqsadiga erishishga ko‘maklashuvchi sharoitlar yaratish uchun sud tomonidan tayinlanishi mumkin.

*(91-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 12-sentabrdagi O‘RQ-567-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019-y., 03/19/567/3737-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 96-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasi.*

### **92-modda. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llashning umumiy asoslari**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ijtimoiy xavfli qilmishni aqli norasolik holatida sodir etgan yoki hukm chiqarilguniga qadar yoxud jazoni o‘tash vaqtida o‘z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan tarzda ruhiy holatining buzilishi yuzaga kelgan shaxsga nisbatan, agar u o‘zining ruhiy holati va sodir etgan qilmishining xususiyatiga ko‘ra jamiyat uchun xavf tug‘dirsa, sud tomonidan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari tayinlanishi mumkin.

*(92-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 12-sentabrdagi O‘RQ-567-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019-y., 03/19/567/3737-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 12-dekabrda 23-sonli “Ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining<sup>3</sup> va 4-bandlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi 07-sonli “Sud hukmi to‘g‘risida”gi qarori 11-bandining to‘rtinchi xatboshisi.*

### **93-modda. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarining turlari**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- a) yashash joyi bo‘yicha ruhiy-asab kasalliklari dispanserida (tuman (shahar) psixiatriyning xonasida) majburiy ambulatoriya kuzatuvda bo‘lish va davolanish;
- b) yashash joyi bo‘yicha umumiy tartibli psixiatriya muassasasining umumiy kuzatiladigan bo‘limida majburiy davolanish;
- v) umumiy tartibli psixiatriya muassasasining maxsus reabilitatsiya bo‘limida majburiy davolanish;
- g) kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida majburiy davolanish;



d) jazoni ijro etish muassasalarining davolash-profilaktika yordami ko'rsatish bo'limlarida hamda mahkumlarga mo'ljallangan ixtisoslashgan shifoxonada majburiy ambulatoriya kuzatuvida bo'lish va davolanish.

*(93-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 12-sentabrdagi O'RQ-567-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019-y., 03/19/567/3737-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 12-dekabrda 23-sonli "Ruhii kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 5-bandi.*

#### **94-modda. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlash**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ruhii holati buzilgan, kasalligining zo'rayishi alomatlari bo'lmagan shaxslarga, shuningdek ruhii holati vaqtincha buzilgan shaxslarga nisbatan kasallik qaytarilishining va ular tomonidan yangi ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishining oldini olish uchun yashash joyi bo'yicha ruhii-asab kasalliklari dispanserida (tuman (shahar) psixiatriyning xonasida) majburiy ambulatoriya kuzatuvida bo'lish va davolanish tayinlanishi mumkin.

Yashash joyi bo'yicha umumii tartibli psixiatriya muassasasining umumii kuzatiladigan bo'limida majburiy davolanish ijtimoiy xavfliligi umumii asoslarda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan davolashni talab etadigan holat bilan bog'liq bo'lgan, ruhii holati buzilgan shaxslarga nisbatan tayinlanishi mumkin.

Umumii tartibli psixiatriya muassasasining maxsus reabilitatsiya bo'limida majburiy davolanish ijtimoiy xavfliligi ko'proq ixtiyoriy tartibda amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan reabilitatsiya choralari ko'rilishini talab etadigan holat bilan bog'liq bo'lgan, ruhii holati buzilgan shaxslarga nisbatan tayinlanishi mumkin.

Kuzatuv kuchaytirilgan ruhii kasalliklar shifoxonasida majburiy davolanish o'ta ijtimoiy xavfli bo'lgan yoki o'z xulq-atvorida umumii tartibli psixiatriya shifoxonasi sharoitlarida zarur davolash va reabilitatsiya choralari amalga oshirish imkonini bermaydigan qoidabuzarliklarga yo'l qo'yadigan, ruhii holati buzilgan shaxslarga nisbatan tayinlanishi mumkin. Ruhii holati buzilgan shaxslar kuzatuv kuchaytirilgan ruhii kasalliklar shifoxonasida batamom ajratilgan holda saqlanadi va qo'riqlanadi.

Jazoni ijro etish muassasalarining davolash-profilaktika yordami ko'rsatish bo'limlarida hamda mahkumlarga mo'ljallangan ixtisoslashgan shifoxonada majburiy ambulatoriya kuzatuvida bo'lish va davolanish aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhii holati buzilgan, jinoyat sodir etish vaqtida ruhii holati buzilganligi tufayli o'z harakatlarining (harakatsizligining) ahamiyatini to'liq darajada anglay olmagan yoki ularni boshqara olmagan shaxslarga nisbatan tayinlanishi mumkin.

*(94-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 12-sentabrdagi O'RQ-567-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019-y., 03/19/567/3737-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 181-moddasi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 12-dekabrda 23-sonli "Ruhii kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 5-bandi.*



*Oldingi tahrirga qarang.*

### **95-modda. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashni uzaytirish, o'zgartirish va tugatish**

Ruhiy holati buzilgan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashni uzaytirish, o'zgartirish va tugatish shifokor psixiatrlar komissiyasining xulosasi asosida, jazoni ijro etish muassasalarining davolash-profilaktika yordami ko'rsatish bo'limlarida va mahkumlarga mo'ljallangan ixtisoslashgan shifoxonada esa, tibbiy-maslahat komissiyasining xulosasi asosida sud tomonidan amalga oshiriladi.

Ruhiy holati buzilgan shaxs tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashga muhtoj bo'lmagan hollarda, shuningdek bu choralarni qo'llash tugatilganda sud bunday shaxsni umumiy asoslarda davolash yoki ijtimoiy ta'minot muassasasiga yuborish to'g'risidagi masalani hal etish uchun sog'liqni saqlash organlariga topshirishi mumkin.

Alkogolizmga, giyohvandlikka yoki zaharvandlikka yo'liqqan shaxslarga nisbatan jazo bilan bir qatorda tayinlangan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashni tugatish tibbiy-maslahat komissiyasining xulosasi asosida sud tomonidan amalga oshiriladi.

*(95-modda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 12-sentabrdagi O'RQ-567-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019-y., 03/19/567/3737-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **96-modda. Jazo bilan birga tayinlanadigan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash**

Alkogolizmga, giyohvandlikka yoki zaharvandlikka yo'liqqan yoxud aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilgan taqdirda, agar tibbiy xulosa mavjud bo'lsa, sud jazo tayinlash bilan birga ularga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlashi mumkin.

*(96-moddaning nomi va birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 12-sentabrdagi O'RQ-567-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019-y., 03/19/567/3737-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 22-dekabrda 16-sonli "Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori 27-bandining birinchi xatboshisi.*

Ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan shaxslar, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan bo'lsa, tibbiy muassasalarda majburiy davolanishi lozim.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan shaxslar ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan bo'lsa, ularni davolash jazoni o'tayotgan joyda amalga oshiriladi, jazoni o'tab bo'lganidan keyin agarda davolashni davom ettirishga zarurat bo'lsa, umumiy asosda tibbiy muassasalarda davolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi 182, 194-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonunining 28-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo'lgan bemorlarni majburiy davolash to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Psixiatriya yordami to'g'risida"gi Qonuni 15-moddasining ikkinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonuni 44-moddasining to'rtinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar*

Mahkamasining 1993-yil 1-maydagi 195-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Surunkali alkogolizm yoki giyohvandlikka muhtalo bo‘lgan bemorlarni majburiy davolash uchun ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktika muassasalari to‘g‘risida”gi *nizom* va “Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan, alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka yo‘liqqan shaxslarga nisbatan tibbiy yo‘sidagi majburlov choralarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi”gi *nizom* (ro‘yxat raqami: 2591, 03.06.2014-y.).



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 28-apreldagi 12-sonli “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarorining 32-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 14-iyundagi 9-sonli “Bezorilikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarorining 15-bandi.*

*(96-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O‘RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

## MAXSUS QISM

### BIRINCHI BO‘LIM

### SHAXSGA QARSHI JINOYATLAR

#### I bob. Hayotga qarshi jinoyatlar

#### 97-modda. Qasddan odam o‘ldirish

Qasddan odam o‘ldirish —

o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish, ya’ni:

a) ikki yoki undan ortiq shaxsni;

b) homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolni;

v) aybdorga ayon bo‘lgan ojiz ahvoldagi shaxsni;

g) o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin

qarindoshlarini;

d) boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo‘lgan usulda;

e) ommaviy tartibsizliklar jarayonida;

j) o‘ta shafqatsizlik bilan;

z) nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo‘rlik ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish bilan

bog‘liq holda;

i) tamagirlik niyatida;

k) milliy yoki irqiy adovat zamirida;

l) bezorilik oqibatida;

m) diniy taassublar zamirida;

n) kishi a‘zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko‘chirish (transplantat) yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida;

o) boshqa biror jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini osonlashtirish maqsadida;

p) bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh a‘zosi tomonidan yoxud o‘sha guruh manfaatlarini ko‘zlagan holda;

r) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

s) o‘ta xavfli retsivist tomonidan qasddan odam o‘ldirilishi —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o‘n besh yildan yigirma besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi.



LexUZ sharhi

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli “Qasddan odam o‘ldirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrdagi 39-sonli “Ijtimoiy xayfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta‘minlovchi qonunlarni sudlar tomonidan qo‘llanishi haqida”gi qarorining 8 va 9-bandlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 25-noyabrdagi 9-sonli “O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasini kesib o‘tish tartibini buzishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 9-bandining ikkinchi xatboshisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentabrdagi 18-sonli “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 13-bandining ikkinchi xatboshisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 14-iyundagi 9-sonli “Bezorilikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarorining 12-bandi.*

*(97-moddaning ikkinchi qismi sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagi O‘RQ-99-sonli Qonuni tahririda — Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-y., 6-son, 248-modda)*

### **98-modda. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o‘ldirish**

Jabrlanuvchi tomonidan qilingan g‘ayriqonuniy zo‘rluk yoki og‘ir haqorat, shuningdek uning boshqa g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli to‘satdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o‘ldirish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(98-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



LexUZ sharhi

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli “Qasddan odam o‘ldirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 5 va 24-bandlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrdagi 39-sonli “Ijtimoiy xayfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta‘minlovchi qonunlarni sudlar tomonidan qo‘llanishi haqida”gi qarorining 8-bandining birinchi xatboshisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 5-maydagi 13-sonli “Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to‘g‘risida”gi qarorining 9-bandining birinchi xatboshisi.*

### **99-modda. Onaning o‘z chaqalog‘ini qasddan o‘ldirishi**

Onaning o‘z chaqalog‘ini tug‘ish vaqtida yoki tug‘ilishi hamon qasddan o‘ldirishi —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(99-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

### **100-modda. Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o‘ldirish**

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o‘ldirish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(100-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeks 37-moddasining *ikkinchi qismi*.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrda 39-sonli "Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta'minlovchi qonunlarni sudlar tomonidan qo'llanishi haqida"gi *qarori*, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrda 13-sonli "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi *qarorining 24-bandi*, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 5-mayda 13-sonli "Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to'g'risida"gi *qarori 9-bandining ikkinchi xatboshisi*.

### **101-modda. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab qolishning zarur choralarini chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish**

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab qolishning zarur choralarini chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(101-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustda O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeks 39-moddasining *ikkinchi va uchinchi qismlari*.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrda 13-sonli "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi *qarorining 24-bandi*.

### **102-modda. Ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish**

Ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(102-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustda O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

Ehtiyotsizlik orqasida ikki va undan ortiq odam o'ldirish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(102-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustda O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning *22-moddasi*.



LexUZ sharhi

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 27-iyundagi 6-sonli “Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 20 va 22-bandlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 5-maydagi 13-sonli “Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to‘g‘risida”gi qarorining 11-bandi.*

### **103-modda. O‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Shaxsni qo‘rqitish, unga rahmsiz muomala qilish yoki uning sha‘ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitish natijasida uni o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yoki o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilish darajasiga yetkazish, –

uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

- a) moddiy tomondan yoki boshqa jihatlardan aybdorga qaram bo‘lgan shaxsga nisbatan;
- b) voyaga yetmagan shaxsga yoki homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolga nisbatan;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

g) telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet butunjahon axborot tarmog‘idan foydalanib sodir etilgan bo‘lsa, —

yetti yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi 20-sonli “O‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori.*

*(103-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O‘RQ-436-son Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **103<sup>1</sup>-modda. O‘zini o‘zi o‘ldirishga undash**

O‘zini o‘zi o‘ldirishga undash, ya‘ni ko‘ndirish, aldash yoki boshqa yo‘l bilan o‘zga shaxsda o‘zini o‘zi o‘ldirish hissini uyg‘otish, agar shaxs o‘zini o‘zi o‘ldirgan yoki o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilgan bo‘lsa, —

ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

- a) voyaga yetmagan shaxsga yoki homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolga nisbatan;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet butunjahon axborot tarmog‘idan foydalanib sodir etilgan bo‘lsa, —

besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi 20-sonli “O‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 1 — 4, 6-bandlari, 7-bandining ikkinchi xatboshisi.*

*(103<sup>1</sup>-modda O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O‘RQ-436-son Qonuniga asosan kiritilgan — O‘R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)*

## **II bob. Sog‘liqqa qarshi jinoyatlar**



## **104-modda. Qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish**

*Oldingi tahririga qarang.*

Sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo‘lgan qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish natijasida ko‘rish, so‘zlash, eshitish qobiliyatini yo‘qotish yoxud biron a‘zoning ishdan chiqishi yoki uning faoliyati tamoman yo‘qolishiga, ruhiy holatining buzilishiga yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda buzilishiga, umumiy mehnat qobiliyatining o‘ttiz uch foizidan kam bo‘lmagan qismining doimiy yo‘qolishiga yoki homilaning tushishi yoxud badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishiga sabab bo‘lsa, —

*(104-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 12-sentabrdagi O‘RQ-567-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019-y., 03/19/567/3737-son)*

*Oldingi tahririga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(104-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

Qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish:

- a) homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolga nisbatan;
- b) o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan;
- v) o‘ta shafqatsizlik bilan;
- g) ommaviy tartibsizliklar jarayonida;
- d) tamagirlik niyatida;
- e) bezorilik oqibatida;
- j) millatlararo yoki irqiy adovat zamirida;
- z) diniy taassublar zamirida;
- i) kishi a‘zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko‘chirish (transplantat) yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida;

*Oldingi tahririga qarang.*

- k) bir guruh shaxslar tomonidan;
- l) qurolni yoki sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan ashyolarni ishlatib sodir etilgan bo‘lsa, —

*(104-modda ikkinchi qismi dispozitsiyasining “k” bandi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-noyabrdagi O‘RQ-645-sonli Qonuniga asosan “k” va “l” bandlar bilan almashtirilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.11.2020-y., 03/20/645/1469-son)*

*Oldingi tahririga qarang.*

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(104-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

Qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish:

- a) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;
- b) takroran, xavfli retsdivist yoki ilgari ushbu Kodeksning 97-moddasida nazarda tutilgan tarzda qasddan odam o‘ldirgan shaxs tomonidan;
- v) o‘ta xavfli retsdivist tomonidan;
- g) uyushgan guruh a‘zosi tomonidan yoki shu guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa;

d) jabrlanuvchining o'lishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(104-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 27-iyundagi 6-sonli "Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi 12-sonli "Odam savdosiga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 14-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2010-yil 29-oktabrdagi 13-sonli "Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishga doir ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 3-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 25-noyabrdagi 9-sonli "O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasini kesib o'tish tartibini buzishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 9-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentabrdagi 18-sonli "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 13-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 14-iyundagi 9-sonli "Bezorilikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 12-bandini.*

### **105-modda. Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish**

Sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo'lmagan va ushbu Kodeksning 104-moddasida nazarda tutilgan oqibatlariga olib kelmagan, lekin sog'liqning uzoq vaqt, ya'ni kamida yigirma bir kun, ammo to'rt oydan ko'p bo'lmagan davrda yomonlashuviga yoki umumiy mehnat qobiliyatining o'n foizidan o'ttiz uch foizigacha yo'qolishiga sabab bo'lgan qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish —

*Oldingi tahririga qarang.*

uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(105-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish:

- a) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;
- b) homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan;
- v) o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan;
- g) o'ta shafqatsizlik bilan;
- d) ommaviy tartibsizliklar jarayonida;
- e) tamagirlik niyatida;
- j) millatlararo yoki irqiy adovat zamirida;
- z) diniy taassublar zamirida;
- i) bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh a'zosi tomonidan yoxud shu guruh manfaatlarini ko'zlab;
- k) takroran, xavfli retsivist yoki ilgari ushbu Kodeksning 104-moddasida nazarda tutilgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatini sodir etgan yoxud ushbu Kodeksning 97-moddasida nazarda tutilgan qasddan odam o'ldirish jinoyatini sodir etgan shaxs tomonidan;

*Oldingi tahririga qarang.*

l) o‘ta xavfli retsdivist tomonidan;

m) qurolni yoki sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan ashyolarni ishlatib sodir etilgan bo‘lsa, —

*(105-modda ikkinchi qismi dispozitsiyasining “l” bandi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-noyabrdagi O‘RQ-645-sonli Qonuniga asosan “l” va “m” bandlar bilan almashtirilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.11.2020-y., 03/20/645/1469-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(105-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 27-iyundagi 6-sonli “Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2010-yil 29-oktabrdagi 13-sonli “Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirishga doir ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 3-bandining ikkinchi xatboshisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 25-noyabrdagi 9-sonli “O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasini kesib o‘tish tartibini buzishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 9-bandining ikkinchi xatboshisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentabrdagi 18-sonli “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 13-bandining ikkinchi xatboshisi.*

### **106-modda. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish**

Jabrlanuvchi tomonidan qilingan g‘ayriqonuniy zo‘rluk yoki og‘ir haqorat, shuningdek aybdorning yoki uning yaqin kishisining o‘limiga yoki sog‘lig‘iga ziyon yetkazilishiga sabab bo‘lgan yoxud sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa g‘ayriqonuniy harakatlar tufayli to‘satdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(106-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 27-iyundagi 6-sonli “Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 23-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrda 39-sonli “Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta‘minlovchi qonunlarni sudlar tomonidan qo‘llanishi haqida”gi qarorining 6 va 8-bandlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 14-iyundagi 9-sonli “Bezorilikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarori 10-bandining birinchi xatboshisi.*

### **107-modda. Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish**

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(107-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeks 37-moddasining ikkinchi qismi,*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrda 39-sonli “Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta‘minlovchi qonunlarni sudlar tomonidan qo‘llanishi haqida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 27-iyunda 6-sonli “Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 23-bandi.*

### **108-modda. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab qolishning zarur choralarini cheglasidan chetga chiqib, badanga qasddan og‘ir shikast yetkazish**

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab qolishning zarur choralarini cheglasidan chetga chiqib, badanga qasddan og‘ir shikast yetkazish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(108-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeks 39-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlari.*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 27-iyunda 6-sonli “Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 23-bandi.*

### **109-modda. Qasddan badanga yengil shikast yetkazish**

Sog‘liqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lmagan muddatga yo‘qolishiga olib kelmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazish o‘sha harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(109-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 52-moddasi.*

Sog'liqning qisqa vaqt, ya'ni olti kundan ortiq, ammo yigirma bir kundan ko'p bo'lmagan muddatga yomonlashuviga yoki umumiy mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo'lmagan muddatga yo'qotilishiga sabab bo'lgan qasddan badanga yengil shikast yetkazish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(109-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



LexUZ sharhi

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 27-iyundagi 6-sonli "Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 24-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 14-iyundagi 9-sonli "Bezorilikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarorining 13-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2010-yil 29-oktabrdagi 13-sonli "Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishga doir ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 3-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 25-noyabrdagi 9-sonli "O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasini kesib o'tish tartibini buzishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 9-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentabrdagi 18-sonli "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 13-bandining ikkinchi xatboshisi.*

## **110-modda. Qiynash**

Muttasil ravishda do'pposlash yoki boshqacha harakatlar bilan qiynash, agar ushbu Kodeksning 104, 105-moddalarida nazarda tutilgan oqibatlarni keltirib chiqarmagan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(110-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakatlar:

- a) voyaga yetmagan shaxsga nisbatan;
- b) homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan;
- v) ojiz ahvoldaligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(110-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*



LexUZ sharhi

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 27-iyundagi 6-sonli "Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi*



qarori 9-bandining *ikkinchi xatboshisi, 25-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 14-iyundagi 9-sonli "Bezorilikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarorining 13-bandi.*

### **111-modda. Ehtiyotsizlik orqasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish**

Ehtiyotsizlik orqasida badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(111-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Ehtiyotsizlik orqasida badanga og'ir shikast yetkazish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(111-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Ehtiyotsizlik orqasida ikki yoki undan ortiq shaxs badaniga o'rtacha og'ir yoki badanga og'ir shikast yetkazish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari bilan jazolanadi.

*(111-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 27-iyundagi 6-sonli "Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 7-bandining uchinchi xatboshisi va 22-bandining birinchi xatboshisi.*

### **III bob. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar**

#### **112-modda. O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish**

O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish, agar bu harakat amalga oshirilishidan xavfsirash uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(112-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakatlar:

a) o'ta xavfli retsivist tomonidan;

b) uyushgan guruh a'zosi tomonidan yoki shu guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(112-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakatlar o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(112-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martda O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2010-yil 29-oktabrdagi 13-sonli "Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishga doir ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 4-bandining ikkinchi xatboshisi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **113-modda. Tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish**

*(113-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 24-mayda O'RQ-248-son Qonuni tahririda — O'R QHT, 2010-y., 21-son, 161-modda)*

Bila turib, boshqa shaxsni tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(113-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'zida tanosil kasalligi borligini bila turib, bu kasalni boshqa shaxsga yuqtirish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(113-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi** qismida nazarda tutilgan harakatlar:

a) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;

b) voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(113-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Bila turib, boshqa shaxsni OIV kasalligi/OITSni yuqtirish xavfi ostida qoldirish yoki unga OIV kasalligi/OITSni yuqtirish —

*(113-modda to'rtinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 24-maydagi O'RQ-248-son Qonuni tahririda — O'R QHT, 2010-y., 21-son, 161-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(113-modda to'rtinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Shaxsning kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida boshqa shaxsga OIV kasalligi/OITSni yuqtirishi —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(113-modda beshinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasining "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni.*

*(113-modda O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 24-maydagi O'RQ-248-son Qonuniga asosan beshinchi qism bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2010-y., 21-son, 161-modda)*

#### **114-modda. Jinoiy ravishda homila tushirish (abort)**

Shifokor akusher yoki ginekolog tomonidan davolash muassasalaridan tashqari joylarda yoki tibbiy nuqtai nazardan mumkin bo'lmagan holda sun'iy ravishda homila tushirish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima solish yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(114-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Sun'iy ravishda homila tushirishga huquqi bo'lmagan shaxsning bunday ishni amalga oshirishi —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(114-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlar ehtiyotsizlik orqasida:

- a) jabrlanuvchining o'lishiga;
- b) boshqacha og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(114-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

### **115-modda. Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash**

Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash, agar homila sun'iy tushirilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(115-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

### **116-modda. Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik**

Shaxsning o'z kasbiga nisbatan beparvoligi yoki insofsizlik bilan munosabatda bo'lishi tufayli kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(116-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

Qonun yoki maxsus qoidalarga muvofiq kasalga yordam ko'rsatishi shart bo'lgan shaxsning uzrli sababsiz shunday yordam ko'rsatmaganligi badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(116-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonuni 30-moddasining ikkinchi qismi.*

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan qilmishlar ehtiyotsizlik orqasida odam o‘lishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(116-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O‘RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan qilmishlar ehtiyotsizlik orqasida:

- a) odamlar o‘limiga;
- b) boshqacha og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa, —  
besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

### **117-modda. Xavf ostida qoldirish**

Hayoti yoki sog‘lig‘i xavf ostida qolgan va o‘zini o‘zi himoya qilish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan shaxsga yordam ko‘rsatmaslik, basharti, aybdor bunday ahvoldagi shaxsga yordam berishi shart va bunday imkoniyatga ega bo‘lsa yoxud aybdorning o‘zi jabrlanuvchini xavfli ahvolga solib qo‘ygan va bu hol badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga olib kelsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(117-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O‘RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

O‘sha qilmish odam o‘lishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(117-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O‘RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

O‘sha qilmishlar:

- a) odamlar o‘limiga;
- b) boshqacha og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(117-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2015-yil 26-iyundagi 10-sonli “Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar bilan bog‘liq ishlar yuzasidan sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 17, 18-bandlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli “Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko‘rish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 5.2-bandi 5.2.2-kichik bandining beshinchi xatboshisi.*



## IV bob. Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar

### 118-modda. Nomusga tegish

Nomusga tegish, ya'ni zo'rlik ishlatib, qo'rqitib yoki jabrlanuvchining o'jizligidan foydalanib, jinsiy aloqa qilish —

uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Nomusga tegish:

a) ikki yoki bir necha shaxsga nisbatan;

b) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan yoxud ilgari ushbu Kodeksning 119-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;

v) bir guruh shaxslar tomonidan;

g) o'ldirish bilan qo'rqitib sodir etilgan bo'lsa, —

yetti yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Nomusga tegish:

a) shaxsning o'n sakkiz yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan holda;

b) yaqin qarindoshga nisbatan;

v) ommaviy tartibsizliklar qatnashchisi tomonidan;

g) o'ta xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa;

d) og'ir oqibatlarga olib kelgan bo'lsa, —

o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'n to'rt yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsning nomusiga tegish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(118-modda to'rtinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2010-yil 29-oktabrdagi 13-sonli "Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishga doir ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 13-bandi.*

### 119-modda. Jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish

Zo'rlik ishlatib, qo'rqitib yoki jabrlanuvchining o'jizligidan foydalanib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish —

uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;

b) takroran, xavfli retsivist tomonidan yoxud ilgari ushbu Kodeksning 118-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;

v) bir guruh shaxslar tomonidan;

g) o'ldirish bilan qo'rqitib sodir etilgan bo'lsa, —

yetti yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi** qismida nazarda tutilgan harakatlar:

a) jabrlanuvchining o'n sakkiz yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan holda;

b) yaqin qarindoshiga nisbatan;

v) ommaviy tartibsizliklar qatnashchisi tomonidan;

g) o'ta xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa;

d) og'ir oqibatlarga olib kelgan bo'lsa, —

o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan harakatlar o'n to'rt yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(119-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi 681-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1998-y., 9-son, 181-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2010-yil 29-oktabrdagi 13-sonli "Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishga doir ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 13-bandi.*

### **120-modda. Besoqolbozlik**

Besoqolbozlik, ya'ni erkakning erkak bilan zo'rlik ishlatmasdan jinsiy ehtiyojini qondirishi

—

*Oldingi tahrirga qarang.*

bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(120-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

### **121-modda. Ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etish**

Xizmat, moddiy yoki boshqa jihatlardan aybdorga qaram bo'lgan ayolni jinsiy aloqa qilishga yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishga majbur etish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(121-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

O'sha harakat jinsiy aloqada bo'lish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yuz soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(121-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

## **V bob. Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar**

*Oldingi tahrirga qarang.*

**122-modda. Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash**

Moddiy yordamga muhtoj bo'lgan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib ikki oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaslik, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa, —

ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Agar shaxs aliment majburiyatlari bo'yicha qarzdorlikni to'liq to'lagan bo'lsa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 116-moddasining birinchi qismi ("Oila a'zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari"), O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining<sup>474</sup>-moddasi.*

*(122-modda O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi O'RQ-459-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.01.2018-y., 03/18/459/0536-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **123-modda. Ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash**

Voyaga yetgan shaxslarning mehnatga layoqatsiz va moddiy yordamga muhtoj bo'lgan ota-onani yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlashi, ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib ikki oydan ortiq muddat mobaynida to'lamasligi, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Agar shaxs aliment majburiyatlari bo'yicha qarzdorlikni to'liq to'lagan bo'lsa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 116-moddasi ("Oila a'zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari"), O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining<sup>475</sup>-moddasi.*

*(123-modda O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi O'RQ-459-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.01.2018-y., 03/18/459/0536-son)*

### **124-modda. Bolani almashtirib qo'yish**

Tamagirlik yoki boshqa past niyatlarda qasddan bolani almashtirib qo'yish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(124-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

## **125-modda. Farzandlikka olish sirini oshkor qilish**

Farzandlikka bola oluvchilarning yoki vasiylik va homiylik organining erkiga qarshi, yetim yoki ota-ona g'amxo'rligidan mahrum bo'lgan bolalarni farzandlikka olishning qonun bilan qo'riqlanadigan sirini oshkor qilish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(125-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha qilmish:

a) kasb faoliyati yoki xizmat mavqeyiga ko'ra farzandlikka olishni sir saqlashi shart bo'lgan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa;

b) g'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda sodir etilgan bo'lsa;

v) og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(125-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 153-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida"gi nizom birinchi bo'limining ("Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka olish") 18-bandi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentabrdagi 269-son qaroriga 1-ilova sifatida tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida Nizom"ning 23-bandi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 13-iyundagi 171-son qaroriga ilova sifatida tasdiqlangan "Bolalar uylari to'g'risida Nizom" 25-bandining to'rtinchi xatboshisi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrda 21-sonli "Sudlar tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 7-bandi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **125<sup>1</sup>-modda. Nikoh yoshi to'g'risidagi qonunchilikni buzish**

*(125<sup>1</sup>-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan haqiqatda nikoh munosabatlariga kirishish, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o‘ttiz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(125<sup>1</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 47<sup>3</sup>-moddasining birinchi qismi.*

Ota-ona yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan nikoh yoshiga yetmagan shaxsni erga berish yoxud uylantirish, shunday qilmish uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(125<sup>1</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 47<sup>3</sup>-moddasining ikkinchi qismi.*

Nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan nikoh tuzishga doir diniy marosimni amalga oshirish, shunday qilmish uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(125<sup>1</sup>-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 47<sup>3</sup>-moddasining uchinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 15 va 51-moddalari.*

*(125<sup>1</sup>-modda O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-aprelda O‘RQ-352-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — O‘R QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)*

## **126-modda. Ko‘p xotinli bo‘lish**

Ko‘p xotinli bo‘lish, ya’ni umumiy ro‘zg‘or asosida ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo‘lib yashash —

*Oldingi tahrirga qarang.*



bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(126-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

### **127-modda. Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Voyaga yetmagan shaxsni spirtli ichimliklar iste'mol qilishga, giyovandlik vositalari va ularning analoglari yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin kishining aql-idrokiga ta'sir qiladigan vosita va moddalarni iste'mol etishga jalb qilish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

*(127-moddaning birinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-yanvardagi O'RQ-514-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.01.2019-y., 03/19/514/2450-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(127-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 188-moddasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Voyaga yetmagan shaxsni giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar iste'mol etishga jalb qilish —

*(127-moddaning ikkinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(127-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

Voyaga yetmagan shaxsni jinoyat qilishga jalb etish, shuningdek ushbu moddaning **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlar:

a) ilgari giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g'ayriqonuniy ravishda muomalaga chiqarish bilan bog'liq har qanday jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) ikki yoki undan ortiq voyaga yetmagan shaxsga nisbatan;

v) o'quv yurtlarida yoki o'quvchilar, talabalar o'quv-tarbiya, sport yoki jamoat tadbirlari o'tkazadigan boshqa joylarda sodir etilishi —

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 21-sonli “Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 7-bandi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **127<sup>1</sup>-modda. Tilanchilik qilish**

Aeroportlarda, vokzallarda, xiyobonlarda, istirohat bog‘larida, bozorlarda va savdo majmualari hududlarida, shuningdek ularga tutash hududlarda, avtomototransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida, ko‘chalarda, stadionlarda, bekatlarda, yo‘llarning qatnov qismida, moddiy madaniy meros obyektlari joylashgan hududlarda, jamoat transportining barcha turlarida va boshqa jamoat joylarida pul, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa moddiy qimmatliklar berishni faol tarzda so‘rab, tilanchilik bilan shug‘ullanish, shunday qilmish uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Voyaga yetmagan shaxslarni, keksa yoshdagi shaxslarni, ruhiy holati buzilgan, nogironligi bo‘lgan shaxslarni va boshqa shaxslarni tilanchilik qilishga jalb etish, shuningdek shaxslarga alkogolli ichimliklarni yoxud giyohvandlik moddalari yoki psixotrop moddalar bo‘lmagan, lekin shaxsning aql-idrokiga ta‘sir ko‘rsatuvchi moddalarni majburan iste‘mol qildirgan holda ularni tilanchilik qilishga jalb etish, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*(127<sup>1</sup>-modda ikkinchi qismining dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 12-sentabrdagi O‘RQ-567-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019-y., 03/19/567/3737-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(127<sup>1</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Ushbu moddaning **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlar:

a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab;

v) boshqa shaxsni giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni iste‘mol qilishga majburlagan holda sodir etilgan bo‘lsa, —

uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(127<sup>1</sup>-modda O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-yanvardagi O‘RQ-514-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 10.01.2019-y., 03/19/514/2450-son)*

### **128-modda. O‘n olti yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish**

Shaxsning o‘n olti yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan holda u bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(128-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-dekabrda O'RQ-735-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.12.2021-y., 03/21/735/1141-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'sha harakatlar moddiy qimmatliklar berish yoxud mulkiy manfaatdor etish orqali sodir etilgan bo'lsa, —

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(128-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-dekabrda O'RQ-735-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.12.2021-y., 03/21/735/1141-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ushbu moddaning **birinchi** va **ikkinchi qismlarida** nazarda tutilgan harakatlar:

a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

b) ilgari ushbu Kodeksning **118** yoki **119-moddalarida** nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, —

besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(128-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-dekabrda O'RQ-735-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.12.2021-y., 03/21/735/1141-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2010-yil 29-oktabrdagi 13-sonli "Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishga doir ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 7-bandi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

**128<sup>1</sup>-modda. O'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxs bilan moddiy qimmatliklar berish yoxud mulkiy manfaatdor etish orqali jinsiy aloqa qilish**

*(128<sup>1</sup>-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-dekabrda O'RQ-735-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.12.2021-y., 03/21/735/1141-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxsning o'n sakkiz yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgani holda, moddiy qimmatliklar berish yoxud mulkiy manfaatdor etish orqali u bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish, —

*(128<sup>1</sup>-moddaning dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-dekabrda O'RQ-735-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.12.2021-y., 03/21/735/1141-son)*

uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(128<sup>1</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-fevralda O'RQ-673-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.02.2021-y., 03/21/673/0112-son)*

**129-modda. O'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish**

Shaxsning o‘n olti yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan holda, unga nisbatan zo‘rluk ishlatmay uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yildan ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(129-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-dekabrda O‘RQ-735-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.12.2021-y., 03/21/735/1141-son)*

O‘sha harakatlar zo‘rluk ishlatib yoki qo‘rqitib sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ikki yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(129-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-dekabrda O‘RQ-735-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.12.2021-y., 03/21/735/1141-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **130-modda. Pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, xuddi shuningdek pornografik mahsulotni reklama qilish, namoyish etish, tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida reklama qilish, namoyish etish, tarqatish, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa —

*(130-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda O‘RQ-658-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.12.2020-y., 03/20/658/1670-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeks 8-bo‘limining yigirma beshinchi xatboshisi (“Atamalarning huquqiy ma‘nosi”).*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(130-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 189-moddasi.*

O‘sha harakatlar:

a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yuz oltmish soatdan to‘rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(130-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O‘RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

Voyaga yetmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, xuddi shuningdek uni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish yoxud voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlarning ijrochisi sifatida jalb qilish, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(130-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

*(130-modda O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 12-apreldagi O‘RQ-324-son Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 166-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

**130<sup>1</sup>-modda. Zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, xuddi shuningdek uni reklama qilish, namoyish etish, tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida reklama qilish, namoyish etish, tarqatish, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*(130<sup>1</sup>-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda O‘RQ-658-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.12.2020-y., 03/20/658/1670-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeks 8-bo‘limining o‘n to‘rtinchi xatboshisi (“Atamalarining huquqiy ma‘nosi”).*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(130<sup>1</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 189<sup>1</sup>-moddasi.*

O‘sha harakatlar:

a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;



b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(130<sup>1</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

*(130<sup>1</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 12-apreldagi O'RQ-324-son Qonuniga asosan kiritilgan — O'R QHT, 2012-y., 15-son, 166-modda)*

*Oldingi tahririga qarang.*

### **131-modda. Qo'shmachilik qilish yoki fohishaxona saqlash**

G'arazli yoki boshqa past niyatlarda qo'shmachilik qilish —

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(131-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Fohishaxona tashkil etish yoki saqlash —

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(131-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlar bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yetmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(131-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlar:

a) voyaga yetmagan shaxsni jalb qilgan holda;

b) takroran, xavfli retsivist yoki ushbu Kodeksning **135** yoki **137-moddalarida** nazarda tutilgan jinoyatlarni ilgari sodir etgan shaxs tomonidan;

v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, — besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(131-modda O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-apreldagi O'RQ-405-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2016-y., 17-son, 173-modda)*

*Oldingi tahririga qarang.*

### **132-modda. Moddiy madaniy meros obyektlarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Davlat muhofazasiga olingan moddiy madaniy meros obyektlarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish ancha miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(132-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi 269-II-son "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasining to'rtinchi — oltinchi xatboshilari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 29-iyuldagi 269-son qaroriga 3-ilova sifatida tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi moddiy madaniy meros obyektlari davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida Nizom"ning 19, 20-bandlari.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'sha harakatlar:

a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

b) ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda;

v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(132-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-fevraldagi O'RQ-754-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.02.2022-y., 03/22/754/0134-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'sha harakatlar juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa, — besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(132-modda O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-fevraldagi O'RQ-754-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.02.2022-y., 03/22/754/0134-son)*

Etkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorida qoplangan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

*(132-modda O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)*

### **133-modda. Inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olish**

Shaxs tirikligida uning roziligini olmasdan turib yoki o'lganidan keyin yaqin qarindoshlarining rozilgisiz ilmiy ishlar yoxud ta'lim ishlari uchun transplantatsiya qilish yoki buzilmaydigan holda saqlash (konservatsiya) maqsadida murdaning a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olish —

*Oldingi tahrirga qarang.*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 27-iyundagi 6-sonli “Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 15-bandi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(133-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakatlar:

- a) g‘arazgo‘ylik yoki boshqa past niyatlarda;
- b) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(133-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martda O‘RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

### **134-modda. Qabrni tahqirlash**

Qabrni yoki murdani tahqirlash, shuningdek murdadagi, qabr ustidagi yoki ichidagi narsalarni olish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(134-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrda 13-sonli “Qasddan odam o‘ldirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 12-bandining beshinchi xatboshisi.*

## **VI bob. Shaxsning ozodligi, sha‘ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar**

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **135-modda. Odam savdosi**

Odam savdosi, ya‘ni odamni olish-sotish yoxud odamni undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(135-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustda O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

O‘sha harakatlar:

- a) o‘g‘irlash, zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish yoxud majburlashning boshqa shakllarini qo‘llash orqali;
- b) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;

- v) o'jiz ahvoldaligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsga nisbatan;
  - g) aybdorga moddiy jihatdan yoki boshqa jihatdan qaram bo'lgan shaxsga nisbatan;
  - d) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
  - e) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
  - j) xizmat mavqeyidan foydalangan holda;
  - z) jabrlanuvchini O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasidan olib o'tgan holda yoki uni chet elda qonunga xilof ravishda ushlab turgan holda;
  - i) qalbaki hujjatlardan foydalangan holda, xuddi shuningdek jabrlanuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni olib qo'ygan, yashirgan yoxud yo'q qilib yuborgan holda;
  - k) kishi a'zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko'chirish (transplantat) maqsadida sodir etilgan bo'lsa, —  
 besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.
- O'sha harakatlar:
- a) o'n sakkiz yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa;
  - b) jabrlanuvchining o'limiga yoki boshqa og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa;
  - v) o'ta xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa;
  - g) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, — sakkiz yildan o'n ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni.*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi 12-sonli "Odam savdosiga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori.*

*(135-modda O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 16-sentabrdagi O'RQ-179-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2008-y., 37-38-son, 366-modda)*

### **136-modda. Ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish**

Ayolni erga tegishga yoki nikohda yashashni davom ettirishga majbur qilish yoxud ayolning erkiga xilof ravishda u bilan nikohda bo'lish uchun o'g'rilash, shuningdek, ayolning erga tegishiga to'sqinlik qilish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(136-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 63-moddasining ikkinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 14 va 53-moddalari.*

### **137-modda. Odam o'g'rilash**

Ushbu Kodeksning 245-moddasida nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo'lmagani holda odam o'g'rilash —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(137-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

O'sha harakat:

- a) voyaga yetmagan shaxsga nisbatan;
- b) g'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- g) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(137-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

O'sha harakat:

- a) o'ta xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa;
- b) og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(137-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

### **138-modda. Zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish**

Birovni zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(138-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakat:

- a) jismoniy azob berib;
- b) hayot yoki sog'liq uchun xavfli sharoitda saqlagan holda sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(138-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

### **139-modda. Tuhmat**

Tuhmat qilish, ya'ni bila turib boshqa shaxsni sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.



*(139-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Nashr qilish yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan tarzda, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirish orqali tuhmat qilish, —

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

*(139-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda O'RQ-658-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2020-y., 03/20/658/1670-son)*

Tuhmat:

- a) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etishda ayblab;
- b) og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan holda;
- v) xavfli retsivist tomonidan;
- g) g'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda qilinsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

*(139-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda O'RQ-658-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2020-y., 03/20/658/1670-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1992-yil 19-iyundagi 5-sonli "Sud amaliyotida fuqaro va tashkilotlarning sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini himoya qilish haqidagi qonunlarni qo'llash to'g'risida"gi qarori 8-bandining uchinchi xatboshisi.*

#### **140-modda. Haqorat qilish**

Haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash, basharti, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(140-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Nashr qilish yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan tarzda, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirish orqali haqorat qilish —

*(140-modda ikkinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda O'RQ-658-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2020-y., 03/20/658/1670-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(140-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Haqorat qilish:

a) jabrlanuvchini o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan bog‘liq holda;

b) xavfli retsivist tomonidan yoki tuhmat qilganligi uchun ilgari sudlangan shaxs tomonidan qilingan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

*(140-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda O‘RQ-658-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.12.2020-y., 03/20/658/1670-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1992-yil 19-iyundagi 5-sonli “Sud amaliyotida fuqaro va tashkilotlarning sha‘ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro‘sinini himoya qilish haqidagi qonunlarni qo‘llash to‘g‘risida”gi qarori 8-bandining uchinchi xatboshisi.*

## **VII bob. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar**

### **141-modda. Fuqarolarning teng huquqliligini buzish**

Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqeyidan qat‘i nazar, fuqarolarning huquqlarini bevosita yoki bilvosita buzish yoki cheklash yoxud fuqarolarga bevosita yoki bilvosita afzalliklar berish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(141-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakatlar zo‘rluk ishlatib sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(141-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martda O‘RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **141<sup>1</sup>-modda. Shaxsiy hayot daxlsizligini buzish**

Shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni uning roziligisiz qonunga xilof ravishda yig'ish yoki tarqatish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(141<sup>1</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 27-moddasining birinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 46<sup>1</sup>-moddasi, O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12 dekbrdagi 439-II-son "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 13-moddasi.*

O'sha harakatlar:

- a) og'ir oqibatlarga olib kelgan bo'lsa;
- b) g'arazli niyatlarda sodir etilgan bo'lsa;
- v) xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(141<sup>1</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*(141<sup>1</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 23-sentabrda O'RQ-411-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — O'R QHT, 2016-y., 39-son, 457-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **141<sup>2</sup>-modda. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish**

*(141<sup>2</sup>-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Shaxsga doir ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo'q qilish, xuddi shuningdek axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berilayotganda jisman O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda hamda Shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat reyestrda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan shaxsga doir ma'lumotlar bazalarida shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ishga, tizimlashtirishga va saqlashga oid talablarga rioya etmaslik, o'sha harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

- a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- b) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;
- v) g'arazli yoki boshqa past niyatlarda;
- g) xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etilgan bo'lsa;
- d) og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(141<sup>2</sup>-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktabrdagi O'RQ-726-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son — 2022-yil 31-yanvardan kuchga kiradi)*

#### **142-modda. Fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish**

Turar joyga unda yashovchilarning erkiga xilof ravishda zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy bostirib kirish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(142-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 27-moddasining birinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 18-moddasining to'rtinchi va beshinchi qismlari.*

#### **143-modda. Xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlar yoki boshqa xabarlar sir saqlanishi tartibini buzish**

Xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlar yoki boshqa xabarlar sir saqlanishi tartibini qasddan buzish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(143-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 27-moddasining ikkinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 46-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Aloqa to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **144-modda. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish**

*(144-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish va ko‘rib chiqishni qonunga xilof ravishda rad etish, ularni ko‘rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish, yozma yoxud elektron shaklda javob yubormaslik, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonunchilikka zid qaror qabul qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari tiklanishini, murojaat munosabati bilan qabul qilingan qarorning bajarilishini ta‘minlamaganlik yoki murojaat munosabati bilan ma‘lum bo‘lib qolgan jismoniy shaxslarning shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi yoxud yuridik shaxslarning faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ularning rozilgisiz oshkor etish, xuddi shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonunchilikni boshqacha tarzda buzish jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlariga, erkinliklariga yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud jamiyat va davlat manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

*(144-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(144-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Jismoniy shaxsni, uning vakilini, ularning oila a‘zolarini, yuridik shaxsni, uning vakilini va yuridik shaxs vakilining oila a‘zolarini ular davlat organiga, davlat muassasasiga yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga murojaat qilganligi munosabati bilan yoxud bildirilgan fikri va murojaatidagi tanqid uchun, xuddi shuningdek boshqacha shaklda tanqid qilganligi uchun mansabdor shaxs tomonidan ta‘qib etish, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(144-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*(144-modda O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 11-dekabrda O‘RQ-381-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2014-y., 50-son, 588-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.*

## **145-modda. Vijdon erkinligini buzish**

Diniy tashkilotning qonuniy faoliyatiga yoki diniy marosimlarni o‘tkazishga to‘sqinlik qilish —



*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish, yoxud uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(145-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, xuddi shuningdek ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o‘qitish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(145-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Fuqarolarning o‘z fuqarolik huquqlarini amalga oshirishlariga yoki fuqarolik burchlarini bajarishlariga to‘sqinlik qilish bilan, dindorlardan majburiy yig‘im undirish va soliq olish bilan yoxud shaxsning sha‘ni va obro‘cini kamsituvchi chora-tadbirlar qo‘llash bilan yoki diniy ta‘lim olishda hamda fuqaro dinga nisbatan, dinga e‘tiqod qilish yoki e‘tiqod qilmaslikka nisbatan, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka nisbatan o‘z munosabatini belgilayotgan paytda majburlash bilan bog‘liq diniy faoliyat yuritish, shuningdek diniy marosimlar o‘tkazishni tashkil etish shaxs badaniga yengil yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yetmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatdan to‘rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(145-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni.*

*(145-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-maydagi 621-I-son Qonuniga asosan ikkinchi va uchinchi qismlar bilan almashtirildi — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1998-y., 5-6-son, 102-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

**146-modda. Saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o‘tkazish to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish**

*(146-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish vaqtida mansabdor shaxslar, siyosiy partiyalar yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining vakillari, tashabbuskor guruhlar yoki saylov yoxud referendum komissiyalari a'zolari tomonidan ovoz berishning yashirinligini buzish, saylov yoki referendum hujjatlarini qalbakilashtirish, saylov yoki imzo varaqalariga soxta yozuvlar kiritish, berilgan ovozlarni ataylab noto'g'ri hisoblash —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(146-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida"gi Qonunining 43-moddasi, O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi 103-moddasi.*

### **147-modda. Saylov huquqining yoki ishonchli vakil vakolatlarining amalga oshirilishiga to'sqinlik qilish**

Fuqarolarning deputat yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentini saylash yoki saylanish, saylovoldi targ'iboti olib borish huquqlarini, deputatlikka yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod shaxsning ishonchli vakillari o'z vakolatlarini erkin amalga oshirishlariga, shuningdek fuqarolarning referendumda erkin ishtirok etishlariga zo'rlik ishlatish, qo'rqitish, aldash yoki og'dirib olish yo'li bilan to'sqinlik qilish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(147-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32 va 117-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida"gi Qonunining 43-moddasi, O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi 103-moddasi.*

### **148-modda. Mehnat qilish huquqini buzish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Bila turib, g'ayriqonuniy ravishda ishdan bo'shatish, shunday qilmishlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilsa, —

*(148-moddaning birinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentabrdagi O'RQ-442-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 36-son, 943-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(148-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 49-moddasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ayolni homiladorligi yoki shaxsni yosh bolani parvarish qilayotganligini bila turib, uni ishga olishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo'shatish, —

*(148-modda ikkinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-oktabrdagi O'RQ-640-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2020-y., 03/20/640/1348-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(148-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 37-moddasining birinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 78-moddasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **148<sup>1</sup>-modda. Voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi talablarni buzish**

Voyaga yetmagan shaxs mehnatidan uning sog'lig'iga, xavfsizligiga yoki axloq-odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlarda foydalanish, xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

## **148<sup>2</sup>-modda. Mehnatga ma'muriy tarzda majburlash**

Mehnatga biron-bir shaklda ma'muriy tarzda majburlash, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno, xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Xuddi shunday harakat voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, —

*(148<sup>2</sup>-modda ikkinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-fevraldagi O'RQ-673-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.02.2021-y., 03/21/673/0112-son)*

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(148<sup>1</sup> va 148<sup>2</sup>-moddalar O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 22-yanvardagi O‘RQ-603-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.01.2020-y., 03/20/603/0071-son — 2020-yil 24-apreldan kuchga kiradi)*

### **149-modda. Mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish**

Tafakkur mulki obyektiga nisbatan mualliflik huquqini o‘zlashtirib olish, hammualliflikka majburlash, shuningdek, tafakkur mulk obyektlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ular rasman ro‘yxatdan o‘tkazilgunga yoki e‘lon qilingunga qadar muallifning roziligisiz oshkor qilish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(149-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining IV bo‘limi (“Intellectual mulk”), O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyuldagi O‘RQ-42-son “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunining 61, 62-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdagi 397-II-son “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonunining (yangi tahriri) 5, 39-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdagi 395-II-son “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida”gi Qonunining (yangi tahriri) 45-moddasi.*

## **IKKINCHI BO‘LIM**

### **TINCHLIK VA XAVFSIZLIKKA QARSHI JINOYATLAR**

#### **VIII bob. Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar**

#### **150-modda. Urushni targ‘ib qilish**

Urushni targ‘ib qilish, ya‘ni bir mamlakatni ikkinchi mamlakatga nisbatan qo‘zg‘atish uchun turli shakldagi qarashlar, g‘oyalar yoki chaqiriqlar tarqatish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(150-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma’lumot uchun qarang: Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-dekabrda 1017-son qarori bilan tasdiqlangan Noshirlik faoliyatini litsenziyalash bo‘yicha davlat xizmati ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentining 7-bandi uchinchi xatboshisi.*

#### **151-modda. Agressiya**

Bosqinchilik urushini rejalashtirish yoki unga tayyorgarlik ko‘rish, shuningdek shu harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan fitnada qatnashish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(151-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

Bosqinchilik urushini boshlash va uni olib borish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o‘n besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

(151-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrda 568-II-son *Qonuni* tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son, 18-modda)



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi O'RQ-458-son Qonuni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi"ning 5-bandi to'qqizinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrdagi PF-5542-sonli "Terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni.*

### **152-modda. Urushning qonun va udumlarini buzish**

Tinch aholini yoki harbiy asirlarni qiynash, jismonan qirib yuborish, tinch aholini majburiy ishlarga yoki boshqa maqsadlarda haydab ketish, xalqaro huquq bilan taqiqlangan urush olib borish vositalarini qo'llash, shaharlar va aholi yashash joylarini behuda vayron qilish, mulkni talon-toroj qilish, shuningdek, bunday harakatlarni qilishga buyruq berishda ifodalangan urush qonun va udumlarini buzish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

(152-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son *Qonuni* tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: "Xalqaro qurolli nizolar qurbonlarini himoya qilishga oid 1949-yil 12-avgustdagi Jeneva konvensiyasiga qo'shimcha protokol", O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 3-sentabrdagi 946-XII-son "Urush qurbonlarini himoya qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi hamda Xalqaro va xalqaro xaraktyerga ega bo'lmagan qurolli nizolar qurbonlarini himoya qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasiga Qo'shimcha protokolga qo'shilish haqida"gi qarori.*

### **153-modda. Genotsid**

Genotsid, ya'ni milliy, etnik, irqiy yoki diniy mansubligiga qarab, bir guruh shaxsning jismonan to'la yoki qisman qirilib ketishiga olib keladigan turmush sharoitini qasddan yaratish, bunday shaxslarni jismonan to'la yoki qisman qirib yuborish, bola tug'ilishini zo'rlik bilan kamaytirish yoxud bolalarni ana shu odamlar guruhidan olib, boshqasiga topshirish, shuningdek, bunday harakatlar sodir etish to'g'risida buyruq berish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

(153-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrda 568-II-son *Qonuni* tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son, 18-modda)



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999-yil 20-avgustdagi 835-I-son "Genotsid jinoyatining oldini olish va bunday jinoyat uchun jazo to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilish haqida"gi qarori.*

### **154-modda. Yollanish**

Yollanish, ya'ni nizolashayotgan davlatning fuqarosi yoki harbiy xizmatchisi hisoblanmagan yoxud nazorat qilinib turgan nizolashayotgan davlat hududida doimiy yashamaydigan yoki hech qanday davlat tomonidan qurolli kuchlar tarkibida rasmiy topshiriqni bajarish vakolati berilmagan shaxsning moddiy manfaatdorlik yoki boshqa biron shaxsiy manfaatni



ko‘zlab, o‘zga davlat hududida yoki uning tarafini olib qurolli to‘qnashuvda yoxud harbiy harakatlarda qatnashish uchun yollanishi —

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(154-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Yollanma shaxsni yollash, o‘qitish, moliyalashtirish yoki unga boshqa moddiy ta‘minot berish, xuddi shuningdek undan harbiy to‘qnashuv yoki harbiy harakatlarda foydalanish —

yetti yildan o‘n ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(154-modda O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 30-avgustdagi 535-II-son Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2003-y., 9-10-son, 149-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **154<sup>1</sup>-modda. Chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya organlari yoki shunga o‘xshash boshqa organlariga xizmatga kirish, yollanish**

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya organlari yoki shunga o‘xshash boshqa organlariga xizmatga kirishi —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(154<sup>1</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya organlari yoki shunga o‘xshash boshqa organlariga xizmatga yollanishi —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(154<sup>1</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

*(Kodeks O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 30-avgustdagi 535-II-son Qonuniga asosan 154<sup>1</sup>-modda bilan to‘ldirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2003-y., 9-10-son, 149-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: “Yollanma jinoyatchilarni yollash, ulardan foydalanish, moliyaviy ta‘minlash va o‘qitishga qarshi kurash to‘g‘risida Xalqaro Konvensiya” (O‘zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 26-dekabrda 555-I-son “Yollanma jinoyatchilarni yollash, ulardan foydalanish, moliyaviy ta‘minlash va o‘qitishga qarshi kurash to‘g‘risidagi Xalqaro Konvensiyaga qo‘shilish haqida”gi qaroriga asosan qo‘shilgan).*

### **155-modda. Terrorizm**

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Terrorizm — xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo‘rqitish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron bir faoliyatni

amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo'rlik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug'diruvchi boshqa qilmishlar yoxud ularni amalga oshirish tahdidi

*(155-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-apreldagi O'RQ-405-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2016-y., 17-son, 173-modda)*

sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(155-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

Vaziyatni beqarorlashtirish yoki davlat organlari tomonidan qaror qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatish yoxud siyosiy yoki boshqa ijtimoiy faoliyatga to'sqinlik qilish maqsadida davlat yoki jamoat arbobi yoxud hokimiyat vakilining davlat yoki jamoatchilik faoliyati munosabati bilan uning hayotiga suiqasd qilish yoki uning badaniga shikast yetkazish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(155-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlar:

a) odam o'lishiga;

b) boshqa og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n besh yildan yigirma besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi.

*(155-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagi O'RQ-99-sonli Qonuni tahririda — Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-y., 6-son, 248-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Terrorizmni tayyorlashda ishtirok etgan shaxs, agar u hokimiyat organlariga o'z vaqtida xabar berish yoki boshqa usul bilan og'ir oqibatlar yuzaga kelishining hamda terrorchilar maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko'maklashgan bo'lsa, basharti bu shaxsning harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi bo'lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonunining 2, 28, 29-moddalari.*

*(155-modda O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuniga asosan to'rtinchi qism bilan to'ldirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

**155<sup>1</sup>-modda. Tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ushbu Kodeksning 155, 155<sup>2</sup>, 155<sup>3</sup>, 158, 159, 161, 242, 245, 254, 255<sup>1</sup> va (yoki) 264-moddalarida nazarda tutilgan, dastlabki tergov hamda sud muhokamasi materiallari bilan isbotlangan, aniq ma'lum bo'lgan tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik xususiyatiga ega jinoyat to'g'risida xabar qilmaslik, —

*(155<sup>1</sup>-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-apreldagi O'RQ-405-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2016-y., 17-son, 173-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(155<sup>1</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Terrorchilik xususiyatiga ega jinoyatlarga nisbatan o'sha qilmish:

a) odam o'lishiga;

b) boshqa og'ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(155<sup>1</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **155<sup>2</sup>-modda. Terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o'quvdan o'tish, chiqish yoki harakatlanish**

Shaxsning terrorchilik faoliyatini amalga oshirish yoxud ushbu Kodeksning 155, 158, 159, 161, 242, 245, 254, 255<sup>1</sup> va (yoki) 264-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlardan birini sodir etish maqsadida o'tkazilayotganligi o'zi uchun ayon bo'lgan o'quvdan o'tishi, shu jumladan mazkur jinoyatlarni sodir etish bilimini, amaliy mahoratini va ko'nikmalarini egallashi, o'quv chog'ida qurol-yarog', portlatish qurilmalari, portlovchi, zaharlovchi, atrofdagilar uchun xavf tug'diradigan boshqa moddalar va buyumlar bilan muomala qilish usullarini o'rganishi, shuningdek terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishi yoxud O'zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishi, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(155<sup>2</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Terrorchilik faoliyatini amalga oshirish uchun o'quvdan o'tish yoki terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketish yoxud O'zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanish maqsadida shaxslarni yollash —

sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs, agar u terrorchilik faoliyatini amalga oshirish yoxud ushbu Kodeksning 155, 158, 159, 161, 242, 245, 254, 255<sup>1</sup> va (yoki) 264-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlardan birini sodir etish maqsadida o'tkazilayotganligi o'zi uchun ayon bo'lgan o'quvdan o'tganligi, chiqib ketishga yoki harakatlanishga uringanligi to'g'risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda xabar qilsa, sodir etilgan jinoyatni fosh qilishga yoki bunday o'quvdan o'tgan, chiqib ketishni, harakatlanishni yoki o'quvni amalga oshirgan, tashkil etgan yoxud moliyalashtirgan boshqa shaxslarni, shuningdek o'quv o'tkazilgan joyni

aniqlashga faol ko'maklashsa va agar uning harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi mavjud bo'lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi.

*(155<sup>2</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-apreldagi O'RQ-405-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2016-y., 17-son, 173-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **155<sup>3</sup>-modda. Terrorizmni moliyalashtirish**

Terrorizmni moliyalashtirish, ya'ni terrorchilik tashkilotining mavjud bo'lishini, faoliyat ko'rsatishini, moliyalashtirilishini, terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoki O'zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni ta'minlashga, terrorchilik harakatini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-vositalarni, resurslarni berishga yoki yig'ishga, boshqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan faoliyat —

sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

b) mansabdor shaxs tomonidan;

v) uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan bo'lsa, —

o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Terrorizmni moliyalashtirishda ishtirok etgan shaxs, agar u hokimiyat organlariga o'z vaqtida xabar berish yoki boshqa usul bilan og'ir oqibatlar yuzaga kelishining hamda terrorchilar maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko'maklashgan bo'lsa, basharti bu shaxsning harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi bo'lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.

*(155<sup>3</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-apreldagi O'RQ-405-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — O'R QHT, 2016-y., 17-son, 173-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni 2-moddasining to'rtinchi xatboshisi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **156-modda. Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atish**

Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tarqatish maqsadida tayyorlash, saqlash yoki tarqatish, shunday qilmishlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(156-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 184<sup>3</sup>-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-yanvardagi 10-son qarori bilan*

*tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida Nizom”ning 18-bandi.*

Milliy, irqiy, etnik yoki diniy mansubligiga qarab, aholi guruhlariga nisbatan adovat, murosasizlik yoki nifoq keltirib chiqarish maqsadida milliy sha‘n-sharaf va qadr-qimmatni kamsitishga, diniy e‘tiqodiga yoki daxriyiligiga qarab, fuqarolarning his-tuyg‘ularini haqoratlashga qaratilgan qasddan qilingan harakatlar, shuningdek, milliy, irqiy, etnik mansubligi yoki dinga munosabatiga qarab, fuqarolarning huquqlarini bevosita yoki bilvosita cheklash yoxud ularga bevosita yoki bilvosita afzalliklar berish, —

*Oldingi tahririga qarang.*

ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(156-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlar:

- a) boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli usulda;
- b) badanga og‘ir shikast yetkazgan holda;
- v) fuqarolarni doimiy yashash joyidan zo‘rluk ishlatib ko‘chirgan holda;

*Oldingi tahririga qarang.*

g) mansabdor shaxs tomonidan;

*(156-modda uchinchi qismi dispozitsiyasining “g” bandi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O‘RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*

d) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, — besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi;

*(156-modda O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 22-iyundagi O‘RQ-37-son Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2006-y., 25-26-son, 226-modda)*

## **IX bob. O‘zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar**

### **157-modda. Davlatga xoinlik qilish**

*Oldingi tahririga qarang.*

Davlatga xoinlik qilish, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi tomonidan josuslik, chet el davlatiga, chet el tashkilotiga yoki ularning vakillariga davlat sirlarini yetkazish yoxud O‘zbekiston Respublikasiga qarshi dushmanlik faoliyati olib borishda boshqacha yordam ko‘rsatish yo‘li bilan O‘zbekiston Respublikasining suverenitetiga, hududiy daxlsizligiga, xavfsizligiga, mudofaa salohiyatiga, iqtisodiyotiga zarar yetkazishga qaratilgan qasddan sodir etilgan qilmish —

*(157-moddaning birinchi qismi dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-411-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2016-y., 39-son, 457-modda)*

*Oldingi tahririga qarang.*

o‘n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(157-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida”gi Qonunining 1, 10-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 7-maydagi 849-XII-son “Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish to‘g‘risida”gi qarori 2-bandi.*

Chet el davlati yoki tashkiloti tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga qarshi qaratilgan davlatga zarar yetkazuvchi faoliyatni amalga oshirishda hamkorlik qilish uchun jalb qilingan



O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi o‘zining bunday hamkorligi to‘g‘risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda arz qilsa, uning faoliyati esa respublika manfaatlariga zarar yetkazmagan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

Basharti, O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi, o‘z qilmishi to‘g‘risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda xabar qilib, jinoyatni ochishga faol yordam bergan va buning natijasida davlat uchun kelib chiqishi mumkin bo‘lgan og‘ir oqibatlarining oldi olingan bo‘lsa, jazodan ozod qilinadi.

### **158-modda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hayotiga tajovuz qilish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o‘n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(158-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti badaniga qasddan shikast yetkazish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(158-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini omma oldida haqoratlash yoki unga tuhmat qilish, shuningdek, matbuot yoki boshqa ommaviy axborot vositalaridan, telekommunikatsiya tarmoqlaridan yoki Internet butunjahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda uni haqoratlash yoki unga tuhmat qilish —

*(158-modda uchinchi qismining dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-martdagi O‘RQ-679-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.03.2021-y., 03/21/679/0256-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(158-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O‘RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni 4-moddasining birinchi qismi.*

### **159-modda. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi davlat tuzumini **Konstitutsiyaga** xilof tarzda o‘zgartirishga, hokimiyatni bosib olishga yoxud qonuniy ravishda saylab qo‘yilgan yoki tayinlangan hokimiyat vakillarini hokimiyatdan chetlatishga yoxud O‘zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligini **Konstitutsiyaga** xilof tarzda buzishga ochiqdan-ochiq da’vat qilish, shuningdek, bunday mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida tayyorlash, saqlash yoki tarqatish —

*(159-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 22-iyundagi O‘RQ-37-son Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2006-y., 25-26-son, 226-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(159-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Hokimiyat konstitutsiyaviy organlarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki ularni **Konstitutsiyada** nazarda tutilmagan parallel hokimiyat tuzilmalari bilan almashtirishga qaratilgan zo'rvonlik harakatlari, shuningdek, davlat hokimiyati vakolatli organlarining O'zbekiston **Konstitutsiyasida** nazarda tutilmagan tartibda tuzilgan hokimiyat tuzilmalarini tarqatib yuborish to'g'risidagi qarorlarini belgilangan muddatda bajarmaslik —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(159-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan qilmishlar:

a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlagan holda sodir etilgan bo'lsa, —

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Hokimiyatni bosib olish yoki O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini ag'darib tashlash maqsadida fitna uyushtirish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(159-modda to'rtinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

Fitna to'g'risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda xabar bergan shaxs, basharti, ko'rilgan choralarda natijasida fitnaning oldi olingan bo'lsa, jazodan ozod qilinadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasi.*

## **160-modda. Josuslik**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsning davlat siri hisoblangan ma'lumotlarni chet el davlati, chet el tashkiloti yoki ularning agenturasiga yetkazishi, xuddi shuningdek yetkazish maqsadida qo'lga kiritishi, yig'ishi yoki saqlashi, shuningdek chet el razvedkasining topshirig'i bo'yicha O'zbekiston Respublikasiga zarar yetkazishda foydalanish uchun boshqa ma'lumotlarni yetkazishi yoki yig'ishi —

*(160-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrda 568-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son, 18-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(160-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida”gi Qonuning 10-moddasi.*

Chet el razvedkasi bilan hamkorlik qilishga jalb qilingan shaxs, basharti, o‘ziga yuklatilgan topshiriqni bajarish yuzasidan hech qanday harakat sodir etmasdan, bu haqda o‘z ixtiyori bilan hokimiyat organlariga xabar bersa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

O‘zining jinoiy faoliyatini ixtiyoriy ravishda to‘xtatgan va qilmishi to‘g‘risida hokimiyat organlariga ma‘lum qilib, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan shaxs, basharti, davlat uchun kelib chiqishi mumkin bo‘lgan og‘ir oqibatlarining oldi olingan bo‘lsa, jazodan ozod qilinadi.

### **161-modda. Qo‘poruvchilik**

Qo‘poruvchilik, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasining davlat organlari faoliyati yoki ijtimoiy-siyosiy vaziyatning barqarorligiga yoki iqtisodiyotiga putur yetkazish maqsadida odamlarni qirib yuborish, ularning sog‘lig‘iga ziyon, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilishga qaratilgan harakatlar —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o‘n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(161-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli “Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko‘rish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 5.4-bandi 5.4.3-kichik bandining beshinchi xatboshisi.*

### **162-modda. Davlat sirlarini oshkor qilish**

Davlat sirlarini oshkor qilish yoki o‘zgaga berish, ya‘ni davlat siri, harbiy sir yoki xizmat siri hisoblangan ma‘lumotlarning, bu ma‘lumotlar ishonib topshirilgan yoki xizmati yoxud kasb faoliyati yuzasidan ulardan xabardor bo‘lgan shaxs tomonidan oshkor qilinishi, basharti, bu qilmishda davlatga xoinlik alomatlari bo‘lmasa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(162-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeks VIII bo‘limining o‘ninchi xatboshisi (“Atamalarning huquqiy ma‘nosi”), O‘zbekiston Respublikasining “Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida”gi Qonuni 1-moddasining birinchi qismi, 10-moddasi.*

O‘sha harakatlar og‘ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lsa, —

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

### **163-modda. Davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo‘qotish**

Hujjatlarning, shuningdek ashyo yoki moddalarning, agar ular haqidagi ma‘lumot davlat siri yoki harbiy sirni ifodalasa, xizmat yoki kasb faoliyati yuzasidan ishonib topshirilgan shaxs tomonidan yo‘qotilishi, basharti, bu yo‘qotish ana shu hujjatlar, ashyo yoki moddalar bilan muomalada bo‘lish qoidalarini buzish natijasida ro‘y bergan bo‘lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(163-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida”gi Qonuning 10-moddasi.*

O‘sha harakatlar og‘ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(163-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

## **UChINChI BO‘LIM** **IQTISODIYOT SOHASIDAGI JINOYATLAR**

### **X bob. O‘zgarar mulkini talon-toroj qilish**

#### **164-modda. Bosqinchilik**

*Oldingi tahririga qarang.*

Bosqinchilik, ya‘ni o‘zganing mol-mulkini talon-toroj qilish maqsadida hujum qilib, hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan zo‘rluk ishlatib yoxud shunday zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitib sodir etilgan bo‘lsa, —

*(164-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 30-avgustdagi 485-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1997-y., 9-son, 241-modda)*

*Oldingi tahririga qarang.*

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(164-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

Bosqinchilik:

- a) qurol yoki qurol sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan boshqa narsalarni ishlatib;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) ancha miqdordagi mulkni talon-toroj qilish bilan bog‘liq holda sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

sakkiz yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(164-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

Bosqinchilik:

a) takroran, xavfli retsivist yoki ilgari ushbu Kodeksning 242-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) ko‘p miqdorda;

v) uy-joyga, omborxonaga yoki boshqa binolarga g‘ayriqonuniy ravishda kirgan holda;

g) badanga og‘ir shikast yetkazgan holda sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(164-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

Bosqinchilik:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) o'ta xavfli retsivist tomonidan;
- v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(164-modda to'rtinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999-yil 30-apreldagi 6-sonli "O'zgarar mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 2-bandining birinchi va ikkinchi xatboshilari, 4 — 9 va 11-bandlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 28-apreldagi 12-sonli "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 20-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 27-fevraldagi 3-sonli "Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarori 6-bandining birinchi xatboshisi, 7-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrda 37-sonli "Transport vositalarini olib qochish ishlari bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarorining 3-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi 11-sonli "Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida"gi qarorining 5-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 28-apreldagi 8-sonli "Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 10-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrda 13-sonli "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 14-bandining to'rtinchi va beshinchi xatboshilari.*

### **165-modda. Tovlamachilik**

Tovlamachilik, ya'ni jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish bilan qo'rqitib o'zgan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo'sindagi harakatlar sodir etishni talab qilish yoxud jabrlanuvchini o'z mulki yoki mulkka bo'lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo'yish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(165-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

Tovlamachilik:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) ko'p miqdorda;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(165-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*



Tovlamachilik:

- a) juda ko‘p miqdorda;
- b) o‘ta xavfli retsivist tomonidan;
- v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(165-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999-yil 30-apreldagi 6-sonli “O‘zgalar mulkini o‘g‘rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 4-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 28-apreldagi 12-sonli “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 20-bandining ikkinchi xatboshisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 27-fevraldagi 3-sonli “Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarori 6-bandining birinchi xatboshisi, 7-bandining ikkinchi xatboshisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 15-martdagi 9-sonli “Savdo sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarorining 3-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi 11-sonli “Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo‘yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi qarorining 12-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 28-apreldagi 8-sonli “Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 10-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli “Qasddan odam o‘ldirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 14-bandining to‘rtinchi va beshinchi xatboshilari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 11-oktabrdagi 35-sonli “Firibgarlikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 24-bandining uchinchi xatboshisi.*

### **166-modda. Talonchilik**

Talonchilik, ya‘ni o‘zganing mulkini ochiqdan-ochiq talon-toroj qilish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(166-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Talonchilik:

a) hayot va sog‘liq uchun xavfli bo‘lmagan zo‘rluk ishlatib yoxud shunday zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitib;

b) ancha miqdorda;

v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, —

*(166-modda ikkinchi qismining dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 30-avgustdagi 485-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1997-y., 9-son, 241-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(166-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

Talonchilik:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) uy-joyga, omborxonaga yoki boshqa xonaga g'ayriqonuniy ravishda kirib;
- v) ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(166-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

Talonchilik:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) o'ta xavfli retsivist tomonidan;
- v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(166-modda to'rtinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999-yil 30-apreldagi 6-sonli "O'zgarar mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 2 — 6 va 8-bandlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 28-apreldagi 12-sonli "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 20-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrda 37-sonli "Transport vositalarini olib qochish ishlari bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarorining 3-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi 11-sonli "Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida"gi qarorining 5-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 27-fevraldagi 3-sonli "Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarori 6-bandining birinchi xatboshisi, 7-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 28-apreldagi 8-sonli "Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 10-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 11-oktabrdagi 35-sonli "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 14-bandi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **167-modda. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish**

Aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-toroj qilish, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(167-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda 2019-QR-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakat:

- a) ko'p miqdorda;
- b) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- g) mansab mavqeyini suiiste'mol qilish yo'li bilan sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki to‘rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(167-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakat:

- a) juda ko‘p miqdorda;
- b) o‘ta xavfli retsivist tomonidan;
- v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab;
- g) kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(167-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Etkazilgan moddiy zararining o‘rni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘llanilmaydi.

*(167-modda to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 21-maydagi 4-sonli “Jazolarni liberallashtirish to‘g‘risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi qarori 3-bandining birinchi xatboshisi, 8 — 20-bandlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 28-apreldagi 12-sonli “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 20-bandining ikkinchi xatboshisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi 11-sonli “Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo‘yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi qarorining 3 — 5-bandlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 27-fevraldagi 3-sonli “Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarori 6-bandining birinchi xatboshisi, 7-bandining ikkinchi xatboshisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 28-apreldagi 8-sonli “Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 10-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 11-oktabrdagi 35-sonli “Firibgarlikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 8-bandining ikkinchi xatboshisi, 25-bandining ikkinchi xatboshisi.*

*(167-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **168-modda. Firibgarlik**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Firibgarlik, ya‘ni aldash yoki ishonchni suiiste‘mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiga bo‘lgan huquqni qo‘lga kiritish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(168-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Firibgarlik:

- a) ancha miqdorda;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(168-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Firibgarlik:

- a) ko'p miqdorda;
- b) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- v) xizmat mavqeyidan foydalanib sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud muayyan huquqdan mahrum etilgan holda besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(168-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Firibgarlik:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) o'ta xavfli retsivist tomonidan;
- v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining to'rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(168-modda to'rtinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Etkazilgan moddiy zararining o'rni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

*(168-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 26-dekabrda O'RQ-416-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2016-y., 52-son, 597-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 11-oktabrdagi 35-sonli "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 21-maydagi 4-sonli "Jazolarni liberallashtirish to'g'risidagi*

*Qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo'llashning ayrim masalalari haqida*”gi qarorining 3, 9-bandlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 28-apreldagi 12-sonli “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida”gi qarori 20-bandining *ikkinchi xatboshisi*, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi 11-sonli “Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida”gi qarorining 5-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 27-fevraldagi 3-sonli “Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida”gi qarori 6-bandining *birinchi xatboshisi*, 7-bandining *ikkinchi xatboshisi*, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999-yil 24-sentabrdagi 19-sonli “Poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida”gi qarorining 15-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 28-apreldagi 8-sonli “Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida”gi qarorining 10-bandi va 12-bandining *birinchi xatboshisi*, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi 12-sonli “Odam savdosiga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida”gi qarori 3-bandining *ikkinchi xatboshisi va 12-bandi*.

### **169-modda. O'g'rilik**

O'g'rilik, ya'ni o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(169-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrdagi O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'g'rilik:

a) jabrlanuvchining kiyimi, sumkasi yoki boshqa qo'l yukidagi ashyoga nisbatan (kissavurlik);

b) ancha miqdorda;

v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

g) uy-joy, omborxonasi yoki boshqa xonaga g'ayriqonuniy ravishda kirib sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(169-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrdagi O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'g'rilik:

a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

b) kompyuter tizimiga ruxsatsiz kirib;

*Oldingi tahrirga qarang.*

v) ko'p miqdorda;

g) neft quvurlarida, gaz quvurlarida, neft va gaz mahsulotlari quvurlarida sodir etilgan bo'lsa, —

*(169-moddaning uchinchi qismi “v” bandi O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 7-oktabrdagi O'RQ-355-sonli Qonuniga asosan “v” va “g” bandlar bilan almashtirilgan — O'R QHT, 2013-y., 41-son, 543-modda)*



besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(169-moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

O‘g‘rilik:

a) juda ko‘p miqdorda;

b) o‘ta xavfli retsivist tomonidan;

v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

sakkiz yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(169-modda to‘rtinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999-yil 30-apreldagi 6-sonli “O‘zgalar mulkini o‘g‘rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 1, 2, 5, 8, 9, 11-bandlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 21-maydagi 4-sonli “Jazolarni liberallashtirish to‘g‘risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi qarorining 3-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 28-apreldagi 12-sonli “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 20-bandining ikkinchi xatboshisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrda 37-sonli “Transport vositalarini olib qochish ishlari bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarorining 3-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi 11-sonli “Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo‘yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi qarori 3-bandining uchinchi xatboshisi, 5-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 27-fevraldagi 3-sonli “Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarori 6-bandining birinchi xatboshisi, 7-bandining ikkinchi xatboshisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 28-apreldagi 8-sonli “Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 10-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 11-oktabrdagi 35-sonli “Firibgarlikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 24-bandining ikkinchi xatboshisi.*

## **XI bob. O‘zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jinoyatlar**

### **170-modda. Aldash yoki ishonchni suiiste‘mol qilish yo‘li bilan mulkiy zarar yetkazish**

Aldash yoki ishonchni suiiste‘mol qilish yo‘li bilan mulkdorga ancha miqdorda zarar yetkazish, basharti, bu qilmishda talon-toroj qilishning alomatlari bo‘lmasa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(170-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda 03/19/586/4106-son) O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 11-oktabrdagi 35-sonli “Firibgarlikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 13-bandi.*

O‘sha harakat:

a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

- b) moddiy javobgar shaxs tomonidan;
- v) ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(170-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(170-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O‘RQ-421-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

### **171-modda. Jinoiy yo‘l bilan topilgan mulkni olish yoki o‘tkazish**

Mulkning jinoiy yo‘l bilan topilganini bila turib, uni oldindan va‘da qilmagan holda olish yoki o‘tkazish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(171-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakatlar:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) ko‘p miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(171-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakatlar:

- a) juda ko‘p miqdorda;
- b) o‘ta xavfli retsivist tomonidan;
- v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(171-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrda 36-sonli “Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarorining 10-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 11-fevraldagi 1-sonli “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 5-bandi.*

### **172-modda. Mulknı qo‘riqlashga vıjdonsız munosabatda bo‘lish**

Shaxsning mulknı qo‘riqlash yuzasidan o‘z vazifalarını vıjdonsız bajarışı natıjasıda mol-mulk talon-toroj qılınışı, unga shıkast yetkazılışı yoki uning nobud qılınışı ko‘p miqdorda zarar yetkazılışıga sabab bo‘lsa, basharti, bu qılmıshda mansabdorlık jınoyati alomatları bo‘lmasa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(172-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-iyuldagi 555-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining qo‘riqlash xizmati haqida nizomning 9, 24-bandlari.*

### **173-modda. Mulknı qasddan nobud qılısh yoki unga zarar yetkazısh**

O‘zganing mulknı qasddan nobud qılısh yoki unga zarar yetkazısh ancha miqdorni tashkil etsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(173-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakatlar:

- a) millatlararo yoki irqiy adovat yoxud diniy taassublar zamirida;
- b) atrofdagilar uchun xavfli usulda;
- v) ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yetmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qılısh bilan jazolanadi.

*(173-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakatlar:

a) xizmat yoki fuqarolik burchını bajarışı munosabati bilan shaxsning yoki uning yaqın qarındoshlarining mulkiga nisbatan;

- b) uyushgan guruh va uning manfaatlarını ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(173-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Etkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorida qoplangan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

*(173-modda to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 61<sup>2</sup>-moddasi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 5.4-bandining 5.4.3-kichik bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 14-iyundagi 9-sonli "Bezorilikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarorining 7-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 21-maydagi 4-sonli "Jazolarni liberallashtirish to'g'risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi qarori 9-bandining uchinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 25-noyabrdagi 9-sonli "O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasini kesib o'tish tartibini buzishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 9-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentabrdagi 18-sonli "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 13-bandining ikkinchi xatboshisi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(174-modda O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 25-dekabrdagi O'RQ-137-sonli Qonuni bilan o'z kuchini yo'qotgan — O'R QHT, 2007-y., 52-son, 532-modda)*

## **XII bob. Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar**

**175-modda. O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Naf keltirmasligi ayon bo'lgan bitimni tuzish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi hududiga ilgari foydalanilgan, jisman ishlatib bo'lingan, ma'naviy eskirgan yoki zamon talablariga javob bermaydigan asbob-uskunani yoxud texnologiyalarni olib kirishga, shuningdek ularni o'rnatish va joriy etishga olib kelgan bitimni tuzish, respublika manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yetkazgan bo'lsa, xuddi shuningdek bunday bitim tuzilishiga sabab bo'lgan ekspert xulosasini yoki boshqa hujjatni vakolatli davlat organining yoki boshqa tashkilotning mansabdor shaxsi tomonidan berish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum etilgan holda uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(175-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrdagi O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakat:

- a) takroran;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, — besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakat:

- a) juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda;
- b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, — sakkiz yildan o'n ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Etkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorida qoplangan taqdirda shaxs jazodan ozod etiladi.

*(175-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-apreldagi O'RQ-405-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2016-y., 17-son, 173-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 171<sup>1</sup>-moddasi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi 11-sonli "Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida"gi qarorining 11-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 21-maydagi 4-sonli "Jazolarni liberallashtirish to'g'risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi qarori 9-bandining uchinchi xatboshisi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **176-modda. Qalbaki pul, aksiz markasi yoki qimmatli qog'ozlar yasash, ularni o'tkazish**

*(176-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi 681-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1998-y., 9-son, 181-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'tkazish maqsadida qalbaki bank biletlari (banknotlar), metall tangalar, aksiz markalar, shuningdek, qimmatli qog'ozlar yoxud chet el valyutasi yoki chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar yasash yoki ularni o'tkazish —

*(176-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi 681-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1998-y., 9-son, 181-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(176-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

O'sha harakatlar:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) ko'p miqdorda;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(176-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*



O‘sha harakatlar:

- a) juda ko‘p miqdorda;
- b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, —  
*Oldingi tahrirga qarang.*

o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(176-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi 11-sonli “Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo‘yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi qarorining 10-band, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 28-apreldagi 8-sonli “Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 12-band, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 11-oktabrdagi 35-sonli “Firibgarlikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 24-bandining to‘rtinchi xatboshisi.*

### **177-modda. Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Fuqarolarning qonunga xilof ravishda valyuta qimmatliklarini olishi yoki o‘tkazishi shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yetmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(177-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakatlar ancha miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(177-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakatlar:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) ko‘p miqdorda;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(177-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakatlar:

a) juda ko‘p miqdorda;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, — besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Tayyorgarlik ko‘rilayotgan yoki sodir etilayotgan jinoyat haqida o‘z ixtiyori bilan arz qilgan va uni ochishga faol yordam bergan shaxs javobgarlikka tortilmaydi.

*(177-modda matni O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi O‘RQ-516-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son)*

### **178-modda. Chet el valyutasini yashirish**

Korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlarda valyuta operatsiyalarini amalga oshiruvchi xodimlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasining vakolat berilgan banklari hisobiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan chet el valyutasining qasddan yashirib qolinishi —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yetmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(178-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha qilmish:

a) g‘arazgo‘ylik bilan;

b) takroran;

v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(178-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

O‘sha qilmish uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

sakkiz yildan o‘n ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(178-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonunining 16-moddasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ushbu moddaning **birinchi qismida**, ikkinchi qismining “a” va “v” bandlarida nazarda tutilgan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u jinoyat aniqlangan kundan e‘tiboran o‘ttiz kunlik muddatda yashirilgan chet el valyutasini O‘zbekiston Respublikasining vakolat berilgan banklari hisobiga ixtiyoriy ravishda o‘tkazilishini ta‘minlagan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

*(178-modda O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 29-dekabrda O‘RQ-418-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi qism bilan to‘ldirilgan — O‘R QHT, 2017-y., 1-son, 1-modda)*

### **179-modda. Soxta tadbirkorlik**

Soxta tadbirkorlik, ya‘ni ustavida ko‘rsatilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadini ko‘zlamasdan ssudalar, kreditlar olish, foydani (daromadni) soliqlardan ozod qilish (soliqlarni

kamaytirish) yoki boshqacha mulkiy manfaat ko‘rish maqsadida korxonalar va boshqa tadbirkorlik tashkilotlari tuzish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(179-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi 11-sonli “Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo‘yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi qarorining 14-bandini.*

### **180-modda. Soxta bankrotlik**

Soxta bankrotlik, ya‘ni xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z majburiyatlarini iqtisodiy jihatdan bajara olmasligi haqida bila turib, haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan e‘lon berishi kreditorlarga ko‘p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan ikki yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(180-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Bankrotlik to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 14-avgustdagi 224-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish va qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlarini aniqlash” qoidalari.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Etkazilgan moddiy zararning o‘rni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘llanilmaydi.

*(180-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O‘RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 21-maydagi 4-sonli “Jazolarni liberallashtirish to‘g‘risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi qarori 9-bandining birinchi, ikkinchi xatboshisi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u jinoyat aniqlangan kundan e‘tiboran o‘ttiz kunlik muddatda yetkazilgan moddiy zararning o‘rnini qoplagan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

*(181-modda O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 29-dekabrda O‘RQ-418-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to‘ldirilgan — O‘R QHT, 2017-y., 1-son, 1-modda)*

### **181-modda. Bankrotlikni yashirish**

Xo‘jalik yurituvchi subyektning haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma‘lumot va hujjatlarni taqdim etish, buxgalterlik hisobotlarini buzib ko‘rsatish yo‘li bilan iqtisodiy jihatdan o‘zining to‘lovga qodirligining yo‘qotganligini yoki iqtisodiy nochorligini boshqacha tarzda qasddan yashirishi kreditorlarga ko‘p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan ikki yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(181-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Bankrotlik to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 14-avgustda 224-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish va qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlarini aniqlash” qoidalari.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Etkazilgan moddiy zararining o‘rni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘llanilmaydi.

*(181-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustda O‘RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 21-mayda 4-sonli “Jazolarni liberallashtirish to‘g‘risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi qarori 9-bandining birinchi, ikkinchi xatboshisi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u jinoyat aniqlangan kundan e‘tiboran o‘ttiz kunlik muddatda yetkazilgan moddiy zararining o‘rnini qoplagan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

*(181-modda O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 29-dekabrda O‘RQ-418-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to‘ldirilgan — O‘R QHT, 2017-y., 1-son, 1-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **181<sup>1</sup>-modda. Qasddan bankrotlikka olib kelish**

Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan yoki yuridik shaxs mansabdor shaxsi, muassisi (ishtirokchisi) yoxud mol-mulkinging mulkdori tomonidan shaxsiy manfaatlarini yoki boshqa shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan qasddan bankrotlikka olib kelish, ya‘ni to‘lovga qobiliyatsizlikni qasddan yuzaga keltirish yoki oshirish, ushbu yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yuridik shaxsning barqaror iqtisodiy nochorligiga (bankrotligiga) olib kelsa, kreditorlarga ko‘p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan ikki yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(181<sup>1</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 179<sup>5</sup>-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 14-avgustdagi 224-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish va qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlarini aniqlash" qoidalari.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Etkazilgan moddiy zararining o'rni qoplangan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

*(181<sup>1</sup>-modda ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

*(181<sup>1</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-sentabrdagi O'RQ-373-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — O'R QHT, 2014-y., 36-son, 452-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u jinoyat aniqlangan kundan e'tiboran o'ttiz kunlik muddatda yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

*(181<sup>1</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 29-dekabrda O'RQ-418-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2017-y., 1-son, 1-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **182-modda. Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish**

*(182-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni ko'p miqdorda O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish, shunday harakat uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

*(182-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrda 568-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son, 18-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



(182-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 227<sup>16</sup>, 227<sup>19</sup>, 227<sup>20</sup>, 227<sup>21</sup>-moddalari, 227<sup>22</sup>-moddasining birinchi qismi.

Oldingi tahrirga qarang.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish:

(182-modda ikkinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) chegarani buzib o'tish, ya'ni bojxona xizmatining roziligini olmasdan turib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan ochiqdan-ochiq o'tkazish yo'li bilan;
- v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab;
- g) xizmat lavozimidan foydalangan holda sodir etilgan bo'lsa, —

Oldingi tahrirga qarang.

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

(182-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentabrda 18-sonli "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 31-mayda 08-sonli "Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi qarori 7-bandining ikkinchi xatboshisi.

(182-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

### **183-modda. Raqobat to'g'risidagi qonunchilikni va tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonunchilikni buzish**

(183-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Monopoliyaga qarshi organga axborot taqdim etmaslik yoki bila turib haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni taqdim etish, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

Oldingi tahrirga qarang.

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(183-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 178-moddasining birinchi qismi.*

Monopoliyaga qarshi organning qoidabuzarlikni tugatish to'g'risidagi, dastlabki holatni tiklash haqidagi ko'rsatmalarini bajarishdan bo'yin tovlash yoki o'z vaqtida bajarmaslik, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(183-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 178-moddasining uchinchi qismi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 15-martdagi 9-sonli "Savdo sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarori 2-bandining uchinchi xatboshisi.*

*(183-modda O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 29-dekabrda O'RQ-345-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2013-y., 1-son, 1-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **184-modda. Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash**

Foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni qasddan yashirishni, kamaytirib ko'rsatishni, shuningdek davlat tomonidan belgilangan soliqlarni yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan qasddan bo'yin tovlashni ancha miqdorda sodir etish, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin ro'y bergan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(184-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 174-moddasi.*

Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash:

a) takroran;

b) ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(184-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash juda ko‘p miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(184-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 31-maydagi 08-sonli “Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo‘llanilishi to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 15-martdagi 9-sonli “Savdo sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarorining 7-band, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi 11-sonli “Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo‘yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi qarorining 16, 18 — 25, 29-bandlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrda 20-sonli “Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori 13-bandining ikkinchi xatboshisi.*

*Oldingi tahririga qarang.*

Qasddan yashirilgan, kamaytirib ko‘rsatilgan foyda (daromad) bo‘yicha soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘liq to‘langan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘llanilmaydi.

*(184-modda to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

*Oldingi tahririga qarang.*

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha davlat soliq xizmati organining qarorini yoki O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining sodir etilgan jinoyat haqidagi xabarini olgan kundan e‘tiboran o‘ttiz kun ichida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, shu jumladan penyalar va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararning o‘rnini to‘liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

*(184-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi O‘RQ-516-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 21-maydagi 4-sonli “Jazolarni liberallashtirish to‘g‘risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi qarori 9-bandining birinchi, ikkinchi xatboshilari.*

*(184<sup>1</sup>-modda O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 31-dekabrda O‘RQ-197-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2008-y., 52-son, 513-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **184<sup>1</sup>-modda. Budjet va smeta-shtat intizomini buzish**

Moliya yilida budjet va smeta-shtat intizomini buzish ko‘p miqdorda sodir etilgan bo‘lsa,

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(184<sup>1</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha qilmish juda ko‘p miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikni cheklash yoxud bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(184<sup>1</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*(184<sup>1</sup>-modda O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 26-dekabrda O‘RQ-416-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2016-y., 52-son, 597-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 175<sup>2</sup>-moddasi.*

### **185-modda. Qimmatbaho metallar yoki toshlarni topshirish qoidalarini buzish**

Yer ostidan qazib olingan qimmatbaho metallar yoki toshlarni davlatga topshirish qoidalarini buzish, davlatga ko‘p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(185-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 6-iyundagi 425-son qarori bilan tasdiqlangan Rangli va qora metallar parchalari, chiqindilari bilan ishlash tartibi to‘g‘risida nizom va “Tarkibida qimmatbaho metallar mavjud bo‘lgan parchalar va chiqindilarni tayyorlash, qadoqlash, yetkazib berish tartibi, qabul qilish topshirish shartlari, shuningdek iste‘molchilar bilan ulardan qimmatbaho metallarni parchalar va chiqindilar ko‘rinishida qabul qilganlik uchun hisob-kitob qilish tartibi to‘g‘risida”giyo‘riqnoma (ro‘yxat raqami: 107, 12.10.1994-y.).*

*Oldingi tahrirga qarang.*

**185<sup>1</sup>-modda. Rangli metallar, ularning parcha va rezgi chiqitlarini tayyorlash, olish, ulardan foydalanish hamda ularni o'tkazish qoidalarini buzish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatbaho metallar sirasiga kirmaydigan rangli metallar, ularning parcha va rezgi-chiqitlarini tayyorlash, olish, ulardan foydalanish hamda ularni o'tkazish qoidalarini buzish, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(185<sup>1</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha qilmishlar:

a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

b) ko'p miqdorda;

v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(185<sup>1</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha qilmishlar:

a) juda ko'p miqdorda;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(185<sup>1</sup>-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 6-iyundagi 425-son qarori bilan tasdiqlangan Rangli va qora metallar parchalari, chiqindilari bilan ishlash tartibi to'g'risida nizom va "Tarkibida qimmatbaho metallar mavjud bo'lgan parchalar va chiqindilarni tayyorlash, qadoqlash, yetkazib berish tartibi, qabul qilish topshirish shartlari, shuningdek iste'molchilar bilan ulardan qimmatbaho metallarni parchalar va chiqindilar ko'rinishida qabul qilganlik uchun hisob-kitob qilish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomasi (ro'yxat raqami: 107, 12.10.1994-y.).*

*(185<sup>1</sup>-modda matni O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 6-apreldagi O'RQ-85-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2007-y., 14-son, 134-modda)*



*(185<sup>1</sup>-modda O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi 82-II-son Qonuniga asosan kiritilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2000-y., 5-6-son, 153-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **185<sup>2</sup>-modda. Elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz yoki vodoprovod tarmoqlariga o‘zboshimchalik bilan ulanish yoxud elektr, issiqlik energiyasi, tabiiy gaz, sovuq yoki issiq suvni hisobga olish asboblari, shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoxud bunday hisobga olish asboblarining ko‘rsatkichlarini o‘zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(185<sup>2</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 101-moddasi.*

Umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz yoki vodoprovod tarmoqlariga o‘zboshimchalik bilan ulanish yoxud elektr, issiqlik energiyasi, tabiiy gaz, sovuq yoki issiq suvni hisobga olish asboblari, shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoxud bunday hisobga olish asboblarining ko‘rsatkichlarini o‘zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish ancha miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yetmish besh baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(185<sup>2</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz yoki vodoprovod tarmoqlariga o‘zboshimchalik bilan ulanish yoxud elektr, issiqlik energiyasi, tabiiy gaz, sovuq yoki issiq suvni hisobga olish asboblari, shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoxud bunday hisobga olish asboblarining ko‘rsatkichlarini o‘zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yildan ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(185<sup>2</sup>-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda  
O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y.,  
03/19/586/4106-son)*

Umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz yoki vodoprovod tarmoqlariga o‘zboshimchalik bilan ulanish yoxud elektr, issiqlik energiyasi, tabiiy gaz, sovuq yoki issiq suvni hisobga olish asboblari, shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoxud bunday hisobga olish asboblarining ko‘rsatkichlarini o‘zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish juda ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(185<sup>2</sup>-modda to‘rtinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda  
O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y.,  
03/19/586/4106-son)*

Etkazilgan moddiy zararining o‘rni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘llanilmaydi.

Birinchida jinoyat sodir etgan shaxs, agar u jinoyat aniqlangan kundan e‘tiboran o‘ttiz kunlik muddatda yetkazilgan moddiy zararining o‘rni qoplangan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 22-avgustdagi 245-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Issiqlik energiyasidan foydalanish” qoidalari, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-yanvardagi 22-son qarori bilan tasdiqlangan Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari va Tabiiy gazdan foydalanish qoidalari.*

*(185<sup>2</sup>-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O‘RQ-436-son Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)*

### **XIII bob. Xo‘jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar**

*Oldingi tahrirga qarang.*

**186-modda. Xavfsizlik talablariga javob bermaydigan tovarlarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoxud o‘tkazish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish**

Iste‘molchilarning hayoti yoki sog‘lig‘i xavfsizligi talablariga javob bermaydigan tovarlarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoxud o‘tkazish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(186-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda  
O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y.,  
03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakatlar badanga o‘rtacha og‘ir yoxud og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(186-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakatlar odam o‘lishiga sabab bo‘lsa, —

uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

a) odamlar o‘limiga;

b) boshqacha og‘ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo‘lsa, —

yetti yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunining 23-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 27-moddasi va O‘zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni.*

*(186-modda O‘zbekiston Respublikasining 25-apreldagi 2007-yil O‘RQ-93-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2007-y., 17-18-son, 171-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

**186<sup>1</sup>-modda. Etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Etil spirti, alkogolli va tamaki mahsulotlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish ancha miqdorda yoxud shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa.

*(186<sup>1</sup>-moddaning birinchi qismi dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 24-sentabrdagi O‘RQ-182-sonli Qonuni bilan chiqarilgan — O‘R QHT, 2008-y., 39-son, 391-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(186<sup>1</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 186<sup>1</sup>-moddasi.*

O‘sha harakatlar:

a) ko‘p miqdorda;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

v) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

g) xizmat lavozimini suiiste'mol qilish yo'li bilan sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining to'rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(186<sup>1</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakatlar:

a) juda ko'p miqdorda;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, — yetti yildan o'n ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini ko'p miqdorda yoki juda ko'p miqdorda qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoxud muomalaga kiritishga hokimiyat yoki mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish yo'li bilan homiylik qilish, — yetti yildan o'n ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-yanvardagi 2-sonli "Spirt va alkogolli mahsulotlar ishlab chiqarish va ularning aylanishi ustidan davlat nazoratini mustahkamlash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining 8-bandi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 23-sentabrdagi 444-sonli "Spirt, alkogolli mahsulotlar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish va sotishni davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 6 va 7-bandlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevraldagi 75-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo" qoidalarining V bo'limi ("Alkogol va tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilish xususiyatlari"), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 16-martdagi PQ-605-sonli "Alkogolli mahsulotlar bilan chakana savdo qilishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-martdagi 89-sonli "Umumiy ovqatlanish korxonalarini tomonidan alkogolli mahsulotlar sotish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.*

*(186<sup>1</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 25-apreldagi 2007-yil O'RQ-93-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2007-y., 17-18-son, 171-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **186<sup>2</sup>-modda. Chigitdan olinadigan mahsulotni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish**

Chigitdan olinadigan mahsulotni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(186<sup>2</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakatlar:

a) ko'p miqdorda;

- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- g) mansab mavqeyini suiiste'mol qilish yo'li bilan sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(186<sup>2</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakatlar:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, — yetti yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 18-sentabrda 199-sonli "Paxta chigitini yetkazib berish va undan foydalanish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.*

*(186<sup>2</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 25-aprelda 2007-yil O'RQ-93-sonli Qonuni bilan kiritilgan — O'R QHT, 2007-y., 17-18-son, 171-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

**186<sup>3</sup>-modda. Sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalarini yoxud tibbiy buyumlarni o'tkazish maqsadida ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki o'tkazish, dori vositalarini yoki tibbiy buyumlarni dorixonalardan va ularning filiallaridan tashqarida realizatsiya qilish, shuningdek tarkibida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar mavjud bo'lgan dori vositalarini retsept bo'yicha chakana realizatsiya qilish tartibini buzish**

*(186<sup>3</sup>-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 21-iyuldagi O'RQ-629-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 03/20/629/1087-son — 2020-yil 23-oktabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalarini yoxud tibbiy buyumlarni o'tkazish maqsadida ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki o'tkazish, shuningdek dori vositalarini yoki tibbiy buyumlarni dorixonalardan va ularning filiallaridan tashqarida realizatsiya qilish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

*(186<sup>3</sup>-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 21-iyuldagi O'RQ-629-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 03/20/629/1087-son — 2020-yil 23-oktabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(186<sup>3</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakatlar:



a) ko'p miqdorda;  
b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;  
v) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;  
g) mansab mavqeyini suiiste'mol qilish yo'li bilan sodir etilgan bo'lsa;  
d) badanga o'rtacha og'ir yoxud og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa;  
e) dori vositalari yoki tibbiy buyumlarning sifati va davlat ro'yxatidan o'tganligini tasdiqlovchi hujjatlarni qalbakilashtirish yo'li bilan sodir etilgan bo'lsa, — besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) juda ko'p miqdorda;  
b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa;  
v) odam o'lishiga sabab bo'lsa, — sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) odamlar o'limiga sabab bo'lsa;  
b) boshqacha og'ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lsa, — o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(186<sup>3</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Tarkibida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar mavjud bo'lgan dori vositalarini retsept bo'yicha chakana realizatsiya qilish tartibini buzish, shunday harakat uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin yoki ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(186<sup>3</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 21-iyuldagi O'RQ-629-sonli Qonuniga asosan beshinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 03/20/629/1087-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ushbu moddaning **birinchi — to'rtinchi qismlari** tarkibida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar mavjud bo'lgan dori vositalari bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirishda qo'llanilmaydi.

*(186<sup>3</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-avgustdagi O'RQ-711-sonli Qonuniga asosan oltinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(187-modda O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrda 175-II-son Qonuniga asosan chiqarildi — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 1-2-son, 23-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **188-modda. Noqonuniy tadbirkorlik faoliyati**

Tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tmasdan juda ko'p miqdordagi nazorat qilinmaydigan daromad olgan holda amalga oshirish,—

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilib, bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki to'rt yuz sakkiz yilgacha majburiy

jamoat ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(188-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*(188-modda O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustda O‘RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 176-moddasi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-aprelda 11-sonli “Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo‘yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi qarorining 17-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 15-martda 9-sonli “Savdo sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarorining 4 va 5-bandlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrda 20-sonli “Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 8, 11 — 13-bandlari.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u jinoyat aniqlangan kundan e‘tiboran o‘ttiz kunlik muddatda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar tarzida davlatga yetkazilgan zararining o‘rnini ixtiyoriy ravishda qoplagan, tadbirkorlik subyektining ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta‘minlagan va zarur bo‘lgan ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirgan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

*(188-modda O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 29-dekabrda O‘RQ-418-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — O‘R QHT, 2017-y., 1-son, 1-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **188<sup>1</sup>-modda. Pul mablag‘larini va (yoki) boshqa mol-mulkni jalb etishga doir noqonuniy faoliyat**

Mulkiy manfaat berish bo‘yicha zimmaga majburiyat olish yo‘li bilan jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag‘larini va (yoki) boshqa mol-mulkini jalb etishga doir noqonuniy faoliyatni amalga oshirish va bunda ilgari olingan majburiyatni jismoniy va yuridik shaxslarning yangi jalb etilgan pul mablag‘lari va (yoki) boshqa mol-mulki hisobidan bajarish, shuningdek bunday faoliyatga rahbarlik qilish hamda shunday faoliyat ko‘rsatilishini ta‘minlash, xuddi shuningdek mazkur faoliyatda ishtirok etishga jalb qilish maqsadida ushbu faoliyatni reklama qilish, shu jumladan ommaviy axborot vositalaridan yoxud telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda reklama qilish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(188<sup>1</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Mulkiy manfaat berish bo‘yicha zimmaga majburiyat olish yo‘li bilan jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag‘larini va (yoki) boshqa mol-mulkini jalb etishga doir noqonuniy faoliyatni amalga oshirish va bunda ilgari olingan majburiyatni jismoniy va yuridik shaxslarning yangi jalb

etilgan pul mablagʻlari va (yoki) boshqa mol-mulki hisobidan bajarish, shuningdek bunday faoliyatga rahbarlik qilish va shunday faoliyat koʻrsatilishini taʼminlash:

- a) koʻp miqdorda;
- b) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- g) ommaviy axborot vositalaridan yoxud telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek

Internet jahon axborot tarmogʻidan foydalanib sodir etilgan boʻlsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(188<sup>l</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda OʻRQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Ushbu moddaning **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan qilmishlar:

- a) juda koʻp miqdorda;
- b) oʻta xavfli retsivist tomonidan;
- v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini koʻzlab sodir etilgan boʻlsa, — yetti yildan oʻn yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(188<sup>l</sup>-modda Oʻzbekiston Respublikasining 2016-yil 23-sentabrdagi OʻRQ-411-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — OʻR QHT, 2016-y., 39-son, 457-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **189-modda. Savdo yoki xizmat koʻrsatish qoidalarini buzish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(189-moddaning birinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi OʻRQ-391-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — OʻR QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(189-moddaning ikkinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi OʻRQ-391-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — OʻR QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*

Tovarlar savdosi yoki xizmat koʻrsatish qoidalarini juda koʻp miqdordagi qiymatda buzish



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksining 164-moddasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(189-modda birinchi qismining sanksiyasi Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda OʻRQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u jinoyat aniqlangan kundan eʼtiboran oʻttiz kunlik muddatda savdo yoki xizmat koʻrsatish qoidalari buzilishining oqibatlarini bartaraf etgan va yetkazilgan moddiy zararining oʻrnini qoplagan boʻlsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

*(189-modda Oʻzbekiston Respublikasining 2016-yil 29-dekabrda OʻRQ-418-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan toʻldirilgan — OʻR QHT, 2017-y., 1-son, 1-modda)*



#### LexUZ sharhi

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevraldagi 75-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida chakana savdo” qoidalarini va “O‘zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish” qoidalarini, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi 194-sonli “Kommunal xizmatlar ko‘rsatish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, “Umumiy foydalanish telekommunikatsiya tarmog‘ida telefon aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish” qoidalarini (ro‘yxat raqami: 1323, 15.03.2004-y.), “Ma‘lumotlarni uzatish tarmog‘i, shu jumladan Internet xizmatlarini ko‘rsatish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” qoidalarini (ro‘yxat raqami: 3038, 10.07.2018-y.), “Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish” qoidalarini (ro‘yxat raqami: 2219, 18.04.2011-y.), “Taksofon orqali telefon aloqa xizmatlarini ko‘rsatish” qoidalarini (ro‘yxat raqami: 2140, 06.09.2014-y.).*



#### LexUZ sharhi

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 15-martdagi 9-sonli “Savdo sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarorining 6-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi 11-sonli “Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo‘yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi qarorining 15 va 16-bandlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrda 20-sonli “Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 13<sup>2</sup>-bandi.*

*(189-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **190-modda. Faoliyat bilan litsenziyasiz yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatsiz yoxud xabarnoma yubormasdan shug‘ullanish**

Xabardor qilish tartibida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan faoliyat (harakatlar) bilan xabarnoma yubormasdan shug‘ullanish juda ko‘p miqdorda daromad olish bilan bog‘liq bo‘lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdorida jarima yoki bir yilgacha muayyan huquqlardan mahrum qilish yoxud bir yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning **birinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlar:

a) xavfli retsivist tomonidan;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining yetmish baravari miqdorda jarima yoki ikki yuz soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari bilan jazolanadi.

Amalga oshirilishi uchun ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olish talab etiladigan faoliyat (harakatlar) bilan ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatsiz shug‘ullanish juda ko‘p miqdorda daromad olish bilan bog‘liq bo‘lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining qirq baravari miqdorida jarima yoki ikki yilgacha muayyan huquqlardan mahrum qilish yoxud ikki yuz o‘ttiz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki o‘n oygacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning **uchinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlar:

a) xavfli retsivist tomonidan;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining to‘qson baravari miqdorida jarima yoki ikki yuz ellik soatdan to‘rt yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari bilan jazolanadi.

Litsenziyalanishi lozim bo‘lgan faoliyat bilan litsenziyasiz shug‘ullanish juda ko‘p miqdorda daromad olish bilan bog‘liq bo‘lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining ellik besh baravari miqdorida jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha muddatga axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning **bashinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlar:

a) xavfli retsivist tomonidan;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravari miqdorida jarima yoki uch yuz soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari bilan jazolanadi.

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u jinoyat aniqlangan kundan e'tiboran o'ttiz kunlik muddatda faoliyat bilan litsenziyasiz, shuningdek faoliyat (harakatlar) bilan ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatsiz yoki xabarnoma yubormasdan shug'ullanish oqibatlarini bartaraf etgan va yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

*(190-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O'RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)*

### **191-modda. Qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish**

Sir tutiladigan fan-texnika, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, savdoga oid yoki boshqa shu kabi axborotni egasining rozilgisiz oshkor qilish yoki undan foydalanish maqsadida har qanday usulda to'plash —

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(191-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Sir tutiladigan fan-texnikaga, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, savdoga oid va boshqa shu kabi axborotni egasining rozilgisiz qasddan oshkor qilish yoki undan foydalanish xo'jalik yurituvchi subyektga ko'p miqdorda zarar yetkazgan bo'lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(191-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 29-moddasining ikkinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 98-moddasi, O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12 dekabrda 439-II-son "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Tijorat siri to'g'risida"gi Qonuni.*

### **192-modda. Raqobatchini obro'sizlantirish**

Raqobatchini obro'sizlantirish, ya'ni bosma yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan matnlarda yoki ommaviy axborot vositalari orqali xo'jalik yurituvchi subyektning ishbilarmonlik nufuziga putur yetkazish maqsadida bila turib yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni tarqatish —



*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(192-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunining 27-moddasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **XIII<sup>1</sup> bob. Tadbirkorlik faoliyatiga to‘sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog‘liq jinoyatlar hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa jinoyatlar**

#### **192<sup>1</sup>-modda. Xususiy mulk huquqini buzish**

Nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi hamda boshqa davlat organining va davlat tashkilotining mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi tomonidan xususiy mulkdorlarning huquqlarini buzish yo‘li bilan ularga zarar yetkazish, ya‘ni mulk huquqini qonunga xilof ravishda cheklash va (yoki) undan mahrum etish, xususiy mulkka tajovuz qilish, nomaqbulligi oldindan ayon bo‘lgan shartlarni mulkdorga majburan qabul qildirish, shu jumladan mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni topshirishni asossiz ravishda talab qilish, shuningdek mulkdorning mulkini olib qo‘yish yoxud uni o‘z mol-mulkiga bo‘lgan huquqidan voz kechishga majburlash, talon-toroj alomatlari mavjud bo‘lmagan taqdirda, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(192<sup>1</sup>-moddaning birinchi qismi sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 241<sup>1</sup>-moddasi.*

O‘sha harakatlar:

a) ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(192<sup>1</sup>-moddaning ikkinchi qismi sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakatlar:

- a) juda ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda;  
b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(192<sup>1</sup>-moddaning uchinchi qismi sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 27-moddasi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-aprelda 11-sonli “Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo‘yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi qarorining 6-bandi.*

## **192<sup>2</sup>-modda. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish va moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish qilish tartibini buzish**

Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirishning va moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish qilishning belgilangan tartibini buzish, xuddi shuningdek tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qonunga xilof ravishda tekshirish tashabbusi bilan chiqish va (yoki) o‘tkazish, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(192<sup>2</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 241<sup>2</sup>-moddasi.*

O‘sha harakatlar:

- a) ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda;  
b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(192<sup>2</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakatlar:

- a) juda ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda;
- b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(192<sup>2</sup>-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining V-bo‘limi (“Soliq nazorati”), O‘zbekiston Respublikasi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 39-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi PF-5490-son “Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.*

### **192<sup>3</sup>-modda. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini va (yoki) ularning banklardagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni qonunga xilof ravishda to‘xtatib turish**

Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini va (yoki) ularning banklardagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni qonunga xilof ravishda to‘xtatib turish, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(192<sup>3</sup>-moddaning birinchi qismi sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 241<sup>3</sup>-moddasi.*

O‘sha harakatlar:

- a) ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(192<sup>3</sup>-moddaning ikkinchi qismi sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakatlar:

- a) juda ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda;
- b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(192<sup>3</sup>-moddaning uchinchi qismi sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

#### **192<sup>4</sup>-modda. Tadbirkorlik subyektlarini homiylikka va boshqa tadbirlarga majburiy jalb etish**

Nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi hamda boshqa davlat organining va davlat tashkilotining mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi tomonidan tadbirkorlik subyektlarini pul mablag‘larini hamda boshqa moddiy qimmatliklarni ajratish bilan bog‘liq homiylikka va boshqa tadbirlarga majburiy jalb etish, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatdan to‘rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(192<sup>4</sup>-moddaning birinchi qismi sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 241<sup>4</sup>-moddasi.*

Etkazilgan moddiy zararining o‘rni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘llanilmaydi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **192<sup>5</sup>-modda. Litsenziyalash to‘g‘risidagi qonunchilikni va ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish**

*(192<sup>5</sup>-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjatlarni berishning belgilangan tartibi hamda muddatlarini buzish, shu jumladan litsenziyalarning va ruxsat berish tartib-taomillarining yangi turlarini qonunga xilof ravishda joriy etish, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

muayyan huquqdan mahrum qilib, bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(192<sup>5</sup>-moddaning birinchi qismi sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 241<sup>5</sup>-moddasi.*

O‘sha harakatlar:

- a) juda ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda;
- b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(192<sup>5</sup>-moddaning ikkinchi qismi sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

### **192<sup>6</sup>-modda. Imtiyozlar va preferensiyalarni qo‘llashni g‘ayriqonuniy ravishda rad etish, qo‘llamaslik yoki qo‘llashga to‘sqinlik qilish**

Tadbirkorlik subyektlariga berilgan imtiyozlar va preferensiyalarni qo‘llashni g‘ayriqonuniy ravishda rad etish, qo‘llamaslik yoki qo‘llashga to‘sqinlik qilish, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(192<sup>6</sup>-moddaning birinchi qismi sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 241<sup>6</sup>-moddasi.*

O‘sha harakatlar:

- a) juda ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda;
- b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatdan to‘rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(192<sup>6</sup>-moddaning ikkinchi qismi sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

### **192<sup>7</sup>-modda. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarga va boshqa tashkilotlarga pul mablag‘lari berishni asossiz ravishda kechiktirish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarga va boshqa tashkilotlarga ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan o‘zga to‘lovlarni to‘lash uchun pul mablag‘lari berishni bankning mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi tomonidan asossiz ravishda kechiktirish, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —



*(192<sup>7</sup>-moddaning dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 26-dekabrda O'RQ-416-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2016-y., 52-son, 597-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yilgacha ozodlikni cheklash yoxud bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(192<sup>7</sup>-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 241<sup>7</sup>-moddasi.*

**192<sup>8</sup>-modda. Tadbirkorlik subyektlarining hisobvaraqlarida pul mablag'lari mavjudligi to'g'risidagi axborotni qonunga xilof ravishda talab qilib olish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qonunchilikda nazarda tutilmagan hollarda tadbirkorlik subyektlarining hisobvaraqlarida pul mablag'lari mavjudligi to'g'risidagi axborotni talab qilib olish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

*(192<sup>8</sup>-moddaning dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(192<sup>8</sup>-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 241<sup>8</sup>-moddasi.*

**192<sup>9</sup>-modda. Tijoratda pora evaziga og'dirib olish**

Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining mansabdor shaxsiga mazkur mansabdor shaxsning o'z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o'ziga og'dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(192<sup>9</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkiloti mansabdor shaxsining o'z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o'ziga og'dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(192<sup>9</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Ushbu moddaning **birinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlar:

- a) takroran;
- b) ko'p miqdorda;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(192<sup>9</sup>-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Ushbu moddaning **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlar:

- a) takroran;
- b) ko'p miqdorda;
- v) tamagirlik yo'li bilan;
- g) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(192<sup>9</sup>-modda to'rtinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlar:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(192<sup>9</sup>-modda beshinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Basharti pora evaziga og‘dirib olishni amalga oshirgan shaxsga nisbatan moddiy qimmatliklar yoki mulkiy manfaat so‘rab tovlamachilik qilingan bo‘lsa va ushbu shaxs jinoiy harakatlar sodir etilganidan keyin bu haqda o‘ttiz sutka ichida o‘z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo‘lsa, u javobgarlikdan ozod etiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 31-maydagi 08-sonli “Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo‘llanilishi to‘g‘risida”gi qarori 11-bandining to‘rtinchi xatboshisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 15-martdagi 9-sonli “Savdo sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarori 8-bandining birinchi xatboshisi.*

### **192<sup>10</sup>-modda. Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og‘dirib olish**

Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisiga mazkur xizmatchining o‘z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o‘ziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o‘ttiz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(192<sup>10</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 61<sup>1</sup>-moddasi.*

Nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkiloti xizmatchisining o‘z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o‘ziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo‘lishi, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o‘ttiz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(192<sup>10</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

### **192<sup>11</sup>-modda. Nodavlat tijorat tashkilotida yoki boshqa nodavlat tashkilotida mansabdor shaxslar tomonidan o‘z vakolatlarini suiiste‘mol qilish**

Mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish, ya'ni nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkiloti mansabdor shaxsining o'z mansab vakolatlaridan qasddan foydalanishi fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(192<sup>11</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakat:

a) juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(192<sup>11</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Etkazilgan moddiy zararining o'rni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

*(XIII<sup>1</sup> bob O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustda O'RQ-391-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — O'R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 31-maydagi 08-sonli "Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi qarori 10-bandining ikkinchi xatboshisi, 11-bandining to'rtinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 15-martdagi 9-sonli "Savdo sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarori 8-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 21-maydagi 4-sonli "Jazolarni liberallashtirish to'g'risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi qarorining 7-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentabrdagi 18-sonli "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 15-bandining ikkinchi xatboshisi..*

## **TO'RTINCHI BO'LIM EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLAR**

### **XIV bob. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar**



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrda 36-sonli "Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarori.*

#### **193-modda. Ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish**

Sanoat, energetika, transport, kommunal xizmat, agrosanoat, ilm-fan obyektlari yoki boshqa obyektlarni loyihalash, joylashtirish, qurish va ishga tushirib foydalanish normalari va qoidalarining mansabdor shaxs tomonidan buzilishi, yoxud davlat komissiyasining a'zolari tomonidan bu obyektlarni normativ hujjatlarda belgilangan qoidalarni buzib qabul qilinishi insonning o'limi, odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, ekologiyaga salbiy ta'sir qiladigan darajada atrof muhitning o'zgarib ketishiga yoki boshqacha og'ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(193-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunining 13, 21-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksining 80-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunining 41-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunining IV bo'limi ("Suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etuvchi korxonalar, inshootlarni hamda boshqa obyektlarni joylashtirish, loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, tiklash va ishga tushirish"), O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunining 22-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunining 17-moddasining ikkinchi qismi, 26 — 28-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunining 17-moddasining ikkinchi qismi, 21, 28, 29-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "O'rmon to'g'risida"gi Qonunining 50, 51-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida"gi Qonunining 15-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonunining 8-moddasi.*

#### **194-modda. Atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish**

Maxsus vakolatga ega mansabdor shaxslar tomonidan zararli ekologik oqibatlarni keltirib chiqargan halokatlar yoki atrof tabiiy muhitning radiatsiyaviy, kimyoviy, bakteriyaviy ifloslanganligi yoxud odam hayoti yoki sog'lig'i, tirik tabiat uchun xavfli bo'lgan boshqacha tarzda ifloslanganligi haqidagi yoxud aholi salomatligining holatiga doir ma'lumotlarni qasddan yashirilishi yoki buzib taqdim etilishi aholining ommaviy kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(194-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha qilmishlar odam o'lishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*



muayyan huquqdan mahrum qilib, bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(194-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrda 36-sonli "Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarorining 9-bandi.*

### **195-modda. Atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini ko'rmaslik**

Mansabdor shaxsning ekologiyasi ifloslangan joylarni dezaktivatsiya qilish yoki boshqacha tarzda tiklash choralarini ko'rishdan bo'yin tovlashi yoki bunday ishlarni yetarli darajada bajarmasligi odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(195-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda 586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha qilmishlar odam o'lishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

muayyan huquqdan mahrum qilib, bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(195-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

### **196-modda. Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish**

Yerlarni ifloslantirish yoki buzish, suv yoki atmosfera havosini ifloslantirish odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(196-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda 586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha qilmishlar odam o'lishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

muayyan huquqdan mahrum qilib, bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(196-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 79-moddasi to‘rtinchi qismining ikkinchi, to‘rtinchi xatboshilari, 90-moddasi ikkinchi qismining ikkinchi, to‘rtinchi xatboshilari, O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasi.*

### **197-modda. Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish**

Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(197-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksining 40, 79 va 90-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 17 va 18-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi Qonunining 33 — 40<sup>1</sup>, 43-moddalari.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **197<sup>1</sup>-modda. Sug‘oriladigan yerlarni o‘zboshimchalik bilan egallab olishga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha choralar ko‘rmaslik**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Sug‘oriladigan yerlarni o‘zboshimchalik bilan egallab olishga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha, shu jumladan yer uchastkasi o‘zboshimchalik bilan egallab olinganligi fakti to‘g‘risida vakolatli organlarni xabardor etish bo‘yicha yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachi tomonidan choralar ko‘rmaslik, shunday qilmish uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*(197<sup>1</sup>-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-avgustdagi O‘RQ-708-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(197<sup>1</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-avgustdagi O‘RQ-708-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son)*

O‘sha qilmish:

a) takroran;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining to'rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(197<sup>1</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-avgustdagi O'RQ-708-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son)*

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasining qaytarilishini ta'minlansa hamda o'zboshimchalik bilan egallab olishning oqibatlarini bartaraf qilsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

*(197<sup>1</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-martdagi O'RQ-526-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.03.2019-y., 03/19/526/2701-son — 2019-yil 6-iyundan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **198-modda. Ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish**

Olovga ehtiyotsizlik bilan munosabatda bo'lish natijasida ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga yoki boshqacha og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni qonunga xilof ravishda kesish ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni qasddan shikastlantirish, payhon qilish, nobud qilish ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining yuz ellik baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Etkazilgan moddiy zararining o'rni uch karra miqdorida qoplangan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

*(198-modda O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 3-dekabrda O'RQ-653-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020-y., 03/20/653/1592-son)*

### **199-modda. O'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish**

O'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(199-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "O'simliklar karantini to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Urug'chilik to'g'risida"gi Qonuni 26-moddasining oltinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining "O'rmon to'g'risida"gi Qonuni 24-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni 17-moddasi birinchi qismining o'n oltinchi xatboshisi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **200-modda. Veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarini buzish**

*(200-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 26-dekabrda O'RQ-416-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2016-y., 52-son, 597-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarini buzish hayvonlarning yoki parrandalarning epidemik kasalliklari (epizootiyalar) tarqalishiga, ularning yalpi qirilib ketishiga yoki boshqa og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lsa, —

*(200-moddaning dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 26-dekabrda O'RQ-416-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2016-y., 52-son, 597-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(200-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida"gi Qonuni (Yangi tahriri).*

### **201-modda. Zararli kimyoviy moddalar bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzish**

Xo'jalik faoliyatida o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari, mineral o'g'it, o'sish biostimulyatori yoki boshqa kimyoviy dorilarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish odamlarning ommaviy kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoxud boshqacha og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(201-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakatlar odam o'lishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

muayyan huquqdan mahrum qilib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(201-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O‘RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 42-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 18-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Qishloq xo‘jalik o‘simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni 27-moddasining uchinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni 21-moddasining to‘rtinchi qismi.*

## **202-modda. Hayvonot yoki o‘simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ov qilish va baliq ovlash yoki hayvonot dunyosining boshqa turlarini tutish qoidalarini buzish, kamyob va yo‘qolib borayotgan hayvon turlarini tutishning yoxud yovvoyi holda o‘suvi o‘simliklarning dorivor, ozuqaviy va manzarali (dekorativ) turlarini yig‘ish yoki tayyorlashning belgilangan tartibini yoki shartlarini, xuddi shuningdek muhofaza etiladigan tabiiy hududlardagi hayvonot yoki o‘simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish ancha miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(202-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha qilmishlar:

- a) ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan to‘rt yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(202-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha qilmishlar:

- a) xavfli retsivist tomonidan;
- b) shaxsning o‘z xizmat mavqeyidan foydalanib;
- v) erda, suvda yoki havoda ishlatiladigan mexanizatsiyalashtirilgan vositalardan foydalanib;
- g) taqiqlangan qurollarni yoki vositalarni qo‘llagan holda;
- d) uyushgan guruh tomonidan;
- e) juda ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda;



j) O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan hayvonot yoki o‘simlik dunyosi turlarini nobud qilgan holda sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(202-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Etkazilgan moddiy zararining o‘rni uch karra miqdorda, O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo‘qolib borayotgan hayvonot hamda o‘simlik dunyosi turlariga nisbatan yetkazilgan zararining o‘rni esa besh karra miqdorda qoplangan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘llanilmaydi.

*(202-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 28-maydagi O‘RQ-543-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.05.2019-y., 03/19/543/3201-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **202<sup>1</sup>-modda. Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lish**

Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lish, ya‘ni g‘arazli yoki boshqa past niyatlarda ularni qiynoqqa solish yoxud ularga azob berish ularning o‘limiga yoki mayib bo‘lishiga olib kelsa, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha ozodlikni cheklash yoki olti oygacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(202<sup>1</sup>-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-avgustdagi O‘RQ-711-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son — 2021-yil 27-noyabrdan kuchga kiradi)*

## **203-modda. Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish**

Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(203-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 19-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 19-martdagi 82-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida suvdan foydalanish va suv iste‘moli tartibi to‘g‘risida”gi nizom.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **204-modda. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimini buzish**

*(204-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 4-yanvardagi O‘RQ-278-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2011-y., 1-2-son, 1-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimini buzish ko'p miqdorda zarar yetkazilishi yoki boshqacha og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, —

*(204-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 4-yanvardagi O'RQ-278-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2011-y., 1-2-son, 1-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(204-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Muhofaza etiladigan tabiiy hudud yoki obyektlarni qasddan nobud qilish yoki ularga shikast yetkazish ko'p miqdorda zarar yetkazilishi yoxud boshqacha og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, —

*(204-modda ikkinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 4-yanvardagi O'RQ-278-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2011-y., 1-2-son, 1-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(204-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonuni.*

## **BESHINCHI BO'LIM** **HOKIMIYAT, BOSHQARUV VA JAMOAT BIRLASHMALARI ORGANLARINING** **FAOLIYAT TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR**

### **XV bob. Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar**

#### **205-modda. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Hokimiyatni yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish, ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z mansab vakolatlaridan qasddan foydalanishi fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lsa, —

*(205-moddaning birinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O'RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yuz oltmish soatgacha

majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(205-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'sha harakat:

a) juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda;

b) uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, —

*(205-modda ikkinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustda O'RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(205-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-aprelda 11-sonli "Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida"gi qarori 4-bandining ikkinchi xatboshisi, 8-bandi, 10-bandining ikkinchi xatboshisi, 11-bandining to'rtinchi xatboshisi, 26 va 29-bandlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 15-martda 9-sonli "Savdo sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarori 8-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrda 36-sonli "Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarorining 4-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 21-mayda 4-sonli "Jazolarni liberallashtirish to'g'risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi qarorining 7, 13 va 16-bandlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 31-mayda 08-sonli "Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi qarori 11-bandining to'rtinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentabrda 18-sonli "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 15-bandining ikkinchi xatboshisi.*

## **206-modda. Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'ziga qonun bilan berilgan vakolatlar doirasidan chetga chiqadigan harakatlarni qasddan sodir etishi, fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lsa, —

*(206-moddaning birinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustda O'RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yuz oltmish soatgacha

majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(206-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'sha harakat:

a) juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda;

b) uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, —

*(206-moddaning ikkinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustda O'RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(206-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



LexUZ sharhi

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-aprelda 11-sonli "Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida"gi qarori 8-bandi, 11-bandining to'rtinchi xatboshisi, 28 va 29-bandlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 15-martda 9-sonli "Savdo sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarori 8-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrda 13-sonli "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 25-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentabrda 18-sonli "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 15-bandining ikkinchi xatboshisi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(206<sup>1</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustda O'RQ-391-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — O'R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*

## **207-modda. Mansabga sovuqqonlik bilan qarash**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Mansabga sovuqqonlik bilan qarash, ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z vazifalariga loqaydlik yoki vijdotsizlarcha munosabatda bo'lishi oqibatida ularni bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lsa, —

*(207-moddaning birinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustda O'RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(207-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha qilmish badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —  
*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(207-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘sha qilmishlar:

a) odam o‘lishiga;

*Oldingi tahrirga qarang.*

b) giyovandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalarning ko‘p miqdorda O‘zbekiston Respublikasi davlat yoki bojxona chegaralari orqali qonunga xilof ravishda olib o‘tilishiga sabab bo‘lsa, —

*(207-moddaning uchinchi qismi “b” bandi O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O‘RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

muayyan huquqdan mahrum qilib, ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(207-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 27-fevraldagi 3-sonli “Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarori 3-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrda 36-sonli “Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarorining 4-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-aprelda 11-sonli “Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo‘yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi qarori 8-bandining ikkinchi xatboshisi, 19-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 21-mayda 4-sonli “Jazolarni liberallashtirish to‘g‘risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi qarorining 13 va 16-bandlari.*

*(207-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2005-yil 30-sentabrda O‘RQ-10-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2005-y., 39-son, 294-modda)*

## **208-modda. Hokimiyat harakatsizligi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Hokimiyat harakatsizligi, ya‘ni davlat organi mansabdor shaxsining o‘z xizmat vazifasi yuzasidan bajarishi lozim yoki mumkin bo‘lgan harakatlarni qasddan bajarmasligi fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo‘lsa, xuddi shuningdek bunday harakatsizlik jinoyatga yo‘l qo‘ygan holda sodir etilgan bo‘lsa, —

*(208-moddaning dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O‘RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*



bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(208-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 10-apreldagi 7-sonli “Sud hujjatlarini bajarishdan bo‘yin tovlash va ularning ijro etilishiga to‘sqinlik qilish uchun jinoiy javobgarlikka doir qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori 11-bandining to‘rtinchi xatboshisi.*

### **209-modda. Mansab soxtakorligi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Mansab soxtakorligi, ya‘ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mansabdor shaxsining g‘arazgo‘ylik yoki boshqa manfaatlarni ko‘zlab rasmiy hujjatlarga bila turib soxta ma‘lumotlar va yozuvlar kiritishi, hujjatlarni qalbakilashtirishi yoki bila turib soxta hujjatlar tuzishi va taqdim etishi fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlarga jiddiy zarar yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

*(209-moddaning birinchi qismi dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O‘RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(209-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakat:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilib, ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(209-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999-yil 24-sentabrdagi 19-sonli “Poraxo‘rlik ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 4-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 21-maydagi 4-sonli “Jazolarni liberallashtirish to‘g‘risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi qarori 8-bandining ikkinchi xatboshisi va 13-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 31-maydagi 08-sonli “Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun*

*javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida*"gi qarori 11-bandining to'rtinchi xatboshisi.

## **210-modda. Pora olish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Pora olish, ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi, —

*(210-moddaning birinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O'RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum etilgan holda ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(210-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Pora olish:

a) takroran, xavfli retsivist yoki ilgari ushbu Kodeksning 211 yoki 212-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) ko'p miqdorda;

v) tamagirlik yo'li bilan;

g) bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(210-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Pora olish:

a) juda ko'p miqdorda;

b) uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, —

*(210-moddaning uchinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O'RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999-yil 24-sentabrdagi 19-sonli "Poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi 11-sonli "Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida"gi qarori 8-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 11-oktabrdagi 35-sonli "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 22-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 31-maydagi 08-sonli "Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi qarori 11-bandining to'rtinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 15-martdagi 9-*

sonli “Savdo sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarori 8-bandining birinchi xatboshisi.

(210-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)

## **211-modda. Pora berish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Pora berish, ya’ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mansabdor shaxsiga mazkur mansabdor shaxsning o‘z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni pora bergan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib bevosita yoki vositachi orqali moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish,

(211-moddaning birinchi qismi dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O‘RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

(211-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)

Pora berish:

a) takroran, xavfli retsivist yoki ilgari ushbu Kodeksning 210 yoki 212-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) ko‘p miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, —

besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Pora berish:

a) juda ko‘p miqdorda;

b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, —

(211-moddaning uchinchi qismi dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O‘RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)

o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Basharti, shaxsga nisbatan pora so‘rab tovlamachilik qilingan bo‘lsa va ushbu shaxs jinoyiy harakatlar sodir etilganidan keyin bu haqda o‘ttiz sutka mobaynida o‘z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo‘lsa, u javobgarlikdan ozod etiladi.



*LexUZ sharhi*

Qo‘shimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999-yil 24-sentabrdagi 19-sonli “Poraxo‘rlik ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 28-apreldagi 8-sonli “Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 10-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 11-oktabrdagi 35-sonli “Firibgarlikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 22-bandining ikkinchi xatboshisi va 23-bandi.

*(211-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O'RQ-372-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2014-y., 20-son, 222-modda)*

## **212-modda. Pora olish-berishda vositachilik qilish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Pora olish-berishda vositachilik qilish, ya'ni pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat, shuningdek manfaatdor shaxslarning topshirig'i bilan porani bevosita berish, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(212-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakat:

- a) takroran, xavfli retsivist yoki ilgari ushbu Kodeksning 210 yoki 211-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan;
  - b) ko'p miqdorda pora olish yoki berish vaqtida;
  - v) bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib pora olayotganligi vositachiga ayon bo'lgan holda sodir etilgan bo'lsa, —
- besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Pora olish-berishda vositachilik qilish:

- a) haq evaziga;
- b) juda ko'p miqdorda pora olish yoki berish vaqtida;
- v) uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, —

*(212-moddaning uchinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O'RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*

o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Basharti, pora olish-berishda vositachilik qilgan shaxs jinoiy harakatlarni sodir etganidan keyin bu haqda o'ttiz sutka mobaynida o'z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999-yil 24-sentabrdagi 19-sonli "Poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 6 — 8-bandlari, 13-bandi, 14-bandining ikkinchi xatboshisi, 16 va 18-bandlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 28-apreldagi 8-sonli "Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 10-bandi.*

*(212-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O'RQ-372-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2014-y., 20-son, 222-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **213-modda. Davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish**

Davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisiga mazkur xizmatchining o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir

etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o'ziga og'dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(213-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 193<sup>1</sup>-moddasi.*

O'sha harakatlar ancha miqdorda sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(213-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakatlar:

a) takroran, xavfli retsivist yoki ilgari ushbu Kodeksning 210 — 212-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) ko'p miqdorda;

v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, —

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) juda ko'p miqdorda;

b) uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, —

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Basharti moddiy qimmatliklar bergan yoki mulkiy manfaatdor etgan shaxsga nisbatan moddiy qimmatliklar yoki mulkiy manfaat so'rab tovlamachilik qilingan bo'lsa va ushbu shaxs jinoiy harakatlar sodir etilganidan keyin bu haqda o'ttiz sutka ichida o'z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo'lsa, u javobgarlikdan ozod etiladi.

*(213-modda O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustda O'RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 28-aprelda 8-sonli "Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 10-band.*

*Oldingi tahrirga qarang.*



**214-modda. Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo‘lishi**

Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi xizmatchisining o‘z xizmat mavqeyidan foydalangan holda bajarishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o‘ziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo‘lishi, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(214-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 193<sup>2</sup>-moddasi.*

O‘sha harakatlar:

- a) ancha miqdorda;
- b) tamagirlik yo‘li bilan sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(214-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakatlar:

- a) takroran, xavfli retsivist yoki ilgari ushbu Kodeksning 210 — 212-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan;
- b) ko‘p miqdorda;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- g) tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi munosabati bilan shaxsga nisbatan tamagirlik yo‘li bilan sodir etilgan bo‘lsa, —

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

- a) juda ko‘p miqdorda;
  - b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, —
- besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(214-modda O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustda O‘RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 15-martdagi 9-sonli “Savdo sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarori 8-bandining uchinchi xatboshisi.*

### **215-modda. Davlat ramzlariga hurmatsizlik qilish**

O‘zbekiston Respublikasi yoki Qoraqalpog‘iston Respublikasining Davlat bayrog‘i, Davlat gerbi yoxud Davlat madhiyasiga hurmatsizlik qilish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(215-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonuni 16-moddasining ikkinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida”gi Qonunining 8-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **216-modda. Jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish**

G‘ayriqonuniy jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish yoki ularning faoliyatini tiklash, shuningdek bunday birlashmalar yoki tashkilotlar faoliyatida faol qatnashish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(216-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasi va 2-bobi (“Jamoat birlashmalarining tuzilishi va ular faoliyatining to‘xtatilishi”), O‘zbekiston Respublikasi “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunining III (“Nodavlat notijorat tashkilotini tuzish tartibi”) va IV bo‘limlari (“Nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi”), O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni 8-moddasining beshinchi qismi, 11-moddasi.*

*(216-modda O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 15-apreldagi 772-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-y., 5-son, 124-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **216<sup>1</sup>-modda. G‘ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash**

O‘zbekiston Respublikasida g‘ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar faoliyatida qatnashishga undash, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(216<sup>1</sup>-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 202<sup>1</sup>-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni 3-moddasi, 5-moddasining uchinchi, oltinchi va yettinchi qismlari.*

*(216<sup>1</sup>-moddaning nomi va dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 15-apreldagi 772-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-y., 5-son, 124-modda)*

*Oldingi tahririga qarang.*

O‘sha harakatlar voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo‘lsa, —  
uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(216<sup>1</sup>-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-fevraldagi O‘RQ-673-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 13.02.2021-y., 03/21/673/0112-son)*

*Oldingi tahririga qarang.*

*Oldingi tahririga qarang.*

## **216<sup>2</sup>-modda. Diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish**

*(216<sup>2</sup>-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Nolegal diniy faoliyat bilan shug‘ullanish, diniy tashkilotlar rahbarlarining mazkur tashkilotlar ustavini ro‘yxatdan o‘tkazishdan bosh tortishi, ruhoniylar va diniy tashkilotlar a‘zolari tomonidan bolalar va o‘smirlarning maxsus yig‘ilishlari, shuningdek diniy marosimga aloqasi bo‘lmagan mehnat, adabiyot va boshqa xildagi to‘garaklar hamda guruhlarini tashkil etish va o‘tkazish, shunday qilmishlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa,—

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(216<sup>2</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 240-moddasining birinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar*

*to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasining uchinchi qismi, 5-moddasining yettinchi qismi, 11-moddasining yettinchi qismi.*

Bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm) va boshqa missionerlik faoliyati, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa,—

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(216<sup>2</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 240-moddasining ikkinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni 5-moddasining uchinchi qismi.*

*(Kodeks O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-maydagi 621-I-son Qonuniga asosan 216<sup>2</sup>-modda bilan to'ldirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1998-y., 5-6-son, 102-modda)*

### **217-modda. Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o'tkazish tartibini buzish**

Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish yoxud o'tkazish tartibini ularning tashkilotchisi tomonidan buzish shunday harakatlari uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa,—

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(217-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 201-moddasining birinchi qismi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Diniy yig'ilishlar, ko'cha yurishlari va boshqa diniy marosimlar o'tkazish qoidalarini buzish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa,—

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(217-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 201-moddasining ikkinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunining 14-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish”qoidalari.*

*(217-modda O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-maydagi 621-I-son Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1998-y., 5-6-son, 102-modda)*

### **218-modda. Taqiqlangan ish tashlashga rahbarlik qilish yoki favqulodda holat sharoitida korxonaga, muassasa yoxud tashkilotlar ishiga to‘sqinlik qilish**

Taqiqlangan ish tashlashga rahbarlik qilish, shuningdek, favqulodda holat sharoitida korxonaga, muassasa yoxud tashkilotlar ishiga to‘sqinlik qilish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(218-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

### **219-modda. Hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko‘rsatish**

Qarshilik ko‘rsatish, ya‘ni xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilining qonuniy faoliyatiga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga faol qarshilik ko‘rsatish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(219-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 4-oktabrdagi O‘RQ-719-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.10.2021-y., 03/21/719/0929-son)*

Ushbu moddaning **birinchi qismida** ko‘rsatilgan shaxslarni qanday shaklda bo‘lmasin o‘zining xizmat vazifasini bajarish yoki fuqaroviy burchini bajarishdan voz kechishga, shuningdek qonunga xilof harakatlar sodir etishga majbur qilish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(219-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 4-oktabrdagi O‘RQ-719-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.10.2021-y., 03/21/719/0929-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 14-iyundagi 9-sonli “Bezorilikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarorining 10-bandini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli “Qasddan odam o‘ldirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 9-bandining uchinchi va to‘rtinchi xatboshilari.*

### **220-modda. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar**

Ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tayotgan shaxsning mahkumlarni terror qilish yoki ma‘muriyat vakillariga hujum qilishda, shuningdek, bunday maqsadlarda jinoiy guruhlar tashkil



qilish yoki shunday guruhlar faoliyatida faol qatnashishda ifodalanadigan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasasining ishini izdan chiqaruvchi harakatlari —

uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

- a) o'ta xavfli retsivist;
- b) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun hukm etilgan shaxs;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa, —  
besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 13-moddasi ikkinchi qismi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 26-bandi.*

## **221-modda. Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining qonuniy talablariga bo'ysunmaslik**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ozodlikdan mahrum qilish joyida jazoni o'tayotgan shaxsning jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining qonuniy talablariga bo'ysunmasligi yoxud ma'muriyatning o'z faoliyatini amalga oshirishiga boshqacha yo'sinda to'sqinlik qilishi, basharti, mahkumga nisbatan bir yil mobaynida jazoni o'tash tartibi talablarini buzganligi uchun jazoni ijro etish koloniyasining karseriga o'tkazish tariqasidagi jazo qo'llanilganidan yoki turmaga o'tkazilganidan keyin sodir etilsa, —

*(221-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrda 568-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son, 18-modda)*

uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmishlar:

- a) o'ta xavfli retsivist;
- b) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun hukm etilgan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa,

—  
uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 13-moddasi ikkinchi qismi, 52, 109-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2012-yil 29-dekabrda 174-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari".*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **222-modda. Qamoqdan yoki qo'riqlov ostidagi saqlash joyidan qochish**

Qamoqda saqlanayotgan yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tayotgan shaxsning qamoqdan yoki qo'riqlov ostidagi saqlash joyidan qochishi —

besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(222-moddaning nomi va birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrda 568-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son, 18-modda)*

Qochish:

- a) badanga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazgan holda;

- b) o‘ta xavfli retdivist tomonidan;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo‘lsa —  
besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

### **223-modda. Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish**

Belgilangan tartibni buzib chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish yoxud chegaradan o‘tish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(223-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: “O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi to‘g‘risida”gi Qonunning 10, 12, 15-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda PQ-4079-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibi to‘g‘risidagi nizom, Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 21-noyabrda 408-son qarori bilan tasdiqlangan “Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari va O‘zbekiston Respublikasidan ketishlari tartibi”.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘sha harakatlar:

- a) chegarani yorib o‘tish yo‘li bilan;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) takroran yoki xavfli retdivist tomonidan;
- g) chet elga chiqishi uchun maxsus kelishuv talab qilinadigan mansabdor shaxs tomonidan;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 5-martda PQ-2142-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Xorijiy mamlakatlarga xizmat safariga chiqishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan maxsus kelishuvni talab qiladigan mansabdor shaxslarning” ro‘yxati, “Xorijiy mamlakatlarga xizmat safariga chiqishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan maxsus kelishuvni talab qiladigan mansabdor shaxslarning” ro‘yxati, “Xorijiy mamlakatlarga xizmat safariga chiqishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni tegishli xizmatlari bilan maxsus kelishuvni talab qiladigan mansabdor shaxslarning” ro‘yxati.*

d) O‘zbekiston Respublikasiga kirish huquqi belgilangan tartibda cheklangan shaxs tomonidan sodir etilgan bo‘lsa.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda PQ-4079-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 3-bobi.*

*(223-modda ikkinchi qismi dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 29-dekabrda O‘RQ-345-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2013-y., 1-son, 1-modda)*

besh yildan o‘n yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘zbekiston Respublikasining **Konstitutsiyasida** nazarda tutilgan siyosiy boshpana huquqidan foydalanish uchun kirish hujjatlarini tegishli darajada rasmiylashtirmasdan O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar javobgarlikdan ozod qilinadilar.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 25-noyabrdagi 9-sonli “O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasini kesib o‘tish tartibini buzishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentabrdagi 18-sonli “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 6-bandining ikkinchi xatboshisi, 12-bandining birinchi xatboshisi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(224-modda O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi O‘RQ-579-sonli Qonuniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.11.2019-y., 03/19/579/3994-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **225-modda. Harbiy yoki muqobil xizmatdan bo‘yin tovlash**

Fuqarolarning muddatli harbiy xizmat yoki muqobil xizmatga chaqiruvdan, safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmati safiga olinish yoxud xizmatni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervida o‘tashdan uzrli sababsiz bo‘yin tovlashi, shunday qilmish uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(225-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 237-moddasining birinchi qismi.*

O‘sha harakatlar:

- a) o‘z badaniga shikast yetkazish;
- b) hujjatlarni qalbakilashtirish yoki boshqacha aldash yo‘li bilan sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(225-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga safarbarlik bo‘yicha chaqiruvdan bo‘yin tovlashi —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(225-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonunining 51-moddasi.*

*(225-modda O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 30-avgustdagi 535-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2003-y., 9-10-son, 149-modda)*

## **226-modda. Ma‘muriy nazorat qoidalarini buzish**

Ustidan ma‘muriy nazorat o‘rnatilgan shaxsning ma‘muriy nazorat qoidalarini buzishi, mazkur shaxsga shunday qilmish uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(226-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 206-moddasi.*

Ma‘muriy nazorat qoidalarini buzish:

a) ma‘muriy nazoratdan bo‘yin tovlash maqsadida o‘z istiqomat joyini o‘zboshimchalik bilan tashlab ketish;

b) ma‘muriy nazorat ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod qilish vaqtida shaxsga nisbatan o‘rnatilgan bo‘lib, u o‘zi tanlagan yashash joyiga uzrli sabablarsiz muayyan muddatda yetib kelmasligi tufayli sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yildan to‘rt yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ikki yildan to‘rt yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(226-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma‘muriy nazorat to‘g‘risida”gi Qonuni.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

**227-modda. Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalarni, avtomototransport vositalarining va ular tirkamalarining (yarim tirkamalarining) davlat raqam belgilarini egallash, nobud qilish, ularga shikast yetkazish yoki ularni yashirish**

*(227-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 8-sentabrdagi O‘RQ-215-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2009-y., 37-son, 402-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning qat‘iy hisobidagi hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalarni, shuningdek avtomototransport vositalarining va ular tirkamalarining (yarim

tirkamalarining) davlat raqam belgilarini egallash, xuddi shuningdek ularni nobud qilish, ularga shikast yetkazish, ularni yashirish g‘arazgo‘ylik yoki boshqa past niyatlarda sodir etilgan bo‘lsa.

*(227-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 8-sentabrdagi O‘RQ-215-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2009-y., 37-son, 402-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(227-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrdagi O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘sha harakatlar:

a) pasport, harbiy bilet yoki boshqa muhim shaxsiy hujjatlarga nisbatan yoxud o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalarga nisbatan sodir etilgan bo‘lsa;

b) og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(227-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrdagi O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*(227-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi 82-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2000-y., 5-6-son, 153-modda)*

## **228-modda. Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish**

Soxtalashtiruvchining o‘zi yoki boshqa shaxs foydalanishi maqsadida muayyan huquq beradigan yoki muayyan majburiyatdan ozod etadigan rasmiy hujjatlar tayyorlashi yoki rasmiy hujjatlarni qalbakilashtirishi yoxud bunday hujjatlarni sotishi, shunday maqsadlarda korxonalar, muassasa yoki tashkilotning qalbaki shtamplari, muhrlari, blankalarini tayyorlash yoxud sotish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(228-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrdagi O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakatlar:

a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(228-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



Hujjatning qalbaki ekanligini bila turib, undan foydalanish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoki ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(228-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



LexUZ sharhi

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999-yil 24-sentabrdagi 19-sonli "Poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 4-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 10-apreldagi 7-sonli "Sud hujjatlarini bajarishdan bo'yin tovlash va ularning ijro etilishiga to'sqinlik qilish uchun jinoiy javobgarlikka doir qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori 9-bandining birinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 11-oktabrdagi 35-sonli "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 19-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 11-fevraldagi 1-sonli "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 5-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 25-noyabrdagi 9-sonli "O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasini kesib o'tish tartibini buzishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 11-bandining birinchi xatboshisi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **228<sup>1</sup>-modda. Davlat proba tamg'alarini tayyorlash va ulardan foydalanish qoidalarini buzish**

G'arazgo'ylik yoki boshqa shaxsiy manfaatlarni ko'zlab davlat proba tamg'asini qonunga xilof ravishda tayyorlash, o'tkazish yoki undan foydalanish, shuningdek uni qalbakilashtirish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(228<sup>1</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakatlar:

a) takroran;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(228<sup>1</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*



LexUZ sharhi

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Qimmatbaho metallardan yasalgan buyumlarning asillik darajasi va tamg'alanishi to'g'risida"gi Qonunining 10 — 14-moddalari.*

*(Kodeks O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi 82-II-son Qonuniga asosan 228<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2000-y., 5-6-son, 153-modda)*

## **229-modda. O‘zboshimchalik**

O‘zboshimchalik, ya’ni haqiqiy yoki faraz qilingan huquqlarni o‘zboshimchalik bilan amalga oshirish fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo‘lsa,

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(229-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi 11-sonli “Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo‘yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi qarorining 12-bandi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 200-moddasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **229<sup>1</sup>-modda. Yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olish, shu jumladan ushbu yer uchastkalariga nisbatan qonuniy huquqlari mavjud bo‘lmagan holda ulardan foydalanish, xuddi shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Sug‘oriladigan yer uchastkalarini ularda qurilish ishlarini amalga oshirgan holda o‘zboshimchalik bilan egallab olish, —

bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan, agar u o‘zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasining qaytarilishini jinoyat aniqlangan kundan e’tiboran o‘ttiz kunlik muddatda ta’minlasa hamda o‘zboshimchalik bilan egallab olishning oqibatlarini bartaraf etsa, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘llanilmaydi.

*(229<sup>1</sup>-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-avgustdagi O‘RQ-708-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 60-moddasi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 90-moddasi ikkinchi qismining uchinchi xatboshisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-*

fevraldagi 3-sonli “Yer kodeksini tatbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi qarori 18-bandining ikkinchi xatboshisi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **229<sup>2</sup>-modda. Diniy ta’limotdan saboq berish tartibini buzish**

Maxsus diniy ma’lumoti bo‘lmay turib va diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining ruxsatisiz diniy ta’limotdan saboq berish, xuddi shuningdek xususiy tartibda diniy ta’limotdan saboq berish, shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(229<sup>2</sup>-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 241-moddasi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni 9-moddasining uchinchi va to‘rtinchi qismlari.*

*(Kodeks O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-maydagi 621-I-son Qonuniga asosan 229<sup>2</sup>-modda bilan to‘ldirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1998-y., 5-6-son, 102-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **229<sup>3</sup>-modda. Belgilangan taqiqlarni (cheklovlarni) buzgan holda binolarni, inshootlarni yoki boshqa obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Shaharsozlik to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq binolarni, inshootlarni yoki boshqa obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlashga taqiqlar (cheklovlar) belgilangan zonalarda ushbu ishlarni bajarish, shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*(229<sup>3</sup>-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(229<sup>3</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*(229<sup>3</sup>-modda O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 29-dekabrda O‘RQ-396-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — O‘R QHT, 2015-y., 52-son, 645-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 99-moddasining yettinchi qismi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Davlat muhofazasiga olingan moddiy madaniy meros ko'chmas mulk obyektlarining qo'riqlanadigan tegralarida, alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlarda, shu jumladan o'zining tarixiy-madaniy qimmatiga ko'ra Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlarda va ularning qo'riqlanadigan tegralarida moddiy madaniy meros obyektlari hisoblanmagan binolar, inshootlar hamda boshqa obyektlarni belgilangan tartibda ruxsatnoma olmasdan qurish yoki buzish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(229<sup>3</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **229<sup>4</sup>-modda. Yer berish tartibini buzish**

Yer berish tartibini buzish, shunday harakat uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud muayyan huquqdan mahrum qilib, bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(229<sup>4</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakat:

a) takroran sodir etilgan bo'lsa;

b) sug'oriladigan yerlarning qishloq xo'jaligi oborotidan chiqishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud muayyan huquqdan mahrum qilib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(229<sup>4</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **229<sup>5</sup>-modda. Yer uchastkasini noqonuniy olib qo'yish**

Yer uchastkasini noqonuniy olib qo'yish shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan ikki yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Yer uchastkasining noqonuniy olib qo'yilishi olib qo'yilayotgan yer uchastkasidagi binolarni, boshqa imoratlarni, inshootlarni yoki dov-daraxtlarni yoxud ularning qismlarini, mazkur mol-mulkning bozor qiymati, shuningdek uning mulkdoriga bunday olib qo'yish munosabati bilan yetkazilgan zararning o'zni oldindan va to'liq qoplanmagan holda buzib tashlashga sabab bo'lsa, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin yoki ancha miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud muayyan huquqdan mahrum etib uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Xuddi shunday harakatlar ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Xuddi shunday harakatlar ko'pchilik uchun xavfli bo'lgan usulda yoki juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa, —

muayyan huquqdan mahrum etib besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(229<sup>5</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-yanvardagi O'RQ-667-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2021-y., 03/21/667/0035-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **229<sup>6</sup>-modda. Sug'oriladigan yer uchastkasiga yoki uning bir qismiga bo'lgan huquqni sotish yoxud qonunga xilof ravishda boshqacha tarzda o'zga shaxsga berish**

Sug'oriladigan yer uchastkasiga yoki uning bir qismiga bo'lgan huquqni sotish yoxud qonunga xilof ravishda boshqacha tarzda o'zga shaxsga berish, —

bazaviy hisoblash miqdorining to'rt yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish:

a) yerlarga ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

v) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

g) xizmat mavqeyidan foydalanib sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish:

a) yerlarga juda ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa;

b) o'ta xavfli retsivist tomonidan;

v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, —

muayyan huquqdan mahrum qilib, sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



Ushbu moddaning **birinchi** va **ikkinchi qismlarida** nazarda tutilgan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxsga nisbatan, agar u yer uchastkasining qaytarilishini hamda erning qishloq xo'jaligi oborotiga kiritilishini ta'minlasa, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

*(229<sup>6</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-avgustdagi O'RQ-708-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son)*

## **XVI bob. Odil sudlovga qarshi jinoyatlar**

### **230-modda. Aybsiz kishini javobgarlikka tortish**

Surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan aybsizligi ayon bo'lgan shaxsni ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etganlikda ayblab javobgarlikka tortish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(230-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

O'sha harakat og'ir yoki o'ta og'ir ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganlikda ayblab sodir etilsa, —

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 4-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14, 15-moddalari va 26-moddasining birinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 22 va 23-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 10-moddasining ikkinchi qismi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **230<sup>1</sup>-modda. Dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish)**

Isbotlashni amalga oshirayotgan shaxslar yoki isbotlashda ishtirok etish uchun jalb qilinayotgan shaxslar tomonidan dalillarning tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishlari materiallari bo'yicha dalillarni to'plash, tekshirish va baholash chog'ida g'arazli yoki boshqa past niyatlarda hujjatlarga yoxud ashyolarga bila turib yolg'on ma'lumotlarni kiritishda va o'zga buzib ko'rsatishlarda namoyon bo'ladigan soxtalashtirilishi (qalbakilashtirilishi), —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum etib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(230<sup>1</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakatlar:

a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa;

b) shaxsni ushlab turishga, qamoqqa olishga, jinoiy javobgarlikka tortishga yoki jinoiy javobgarlikdan ozod etishga, hukm qilishga yoxud oqlashga sabab bo'lsa, —

muayyan huquqdan mahrum etib, besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat to‘g‘risidagi jinoyat ishi bo‘yicha dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish), xuddi shuningdek dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) og‘ir oqibatlarga olib kelgan bo‘lsa, —

muayyan huquqdan mahrum etib, yetti yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 95<sup>1</sup>-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrda O‘RQ-344-son “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni 17-moddasi birinchi qismining birinchi, oltinchi xatboshilari.*

### **230<sup>2</sup>-modda. Tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini soxtalashtirish (qalbakilashtirish)**

Jinoyatni sodir etishga aloqasi yo‘qligi oldindan ayon bo‘lgan shaxsni jinoiy ta‘qib qilish maqsadida yoxud shaxsning sha‘ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro‘sigacha zarar yetkazish maqsadida tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishga vakolatli shaxslar tomonidan soxtalashtirish (qalbakilashtirish), —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum etib, bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(230<sup>2</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha qilmishlar axborotni nooshkora olish uchun mo‘ljallangan maxsus texnika vositalaridan foydalangan holda sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum etib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(230<sup>2</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrda O‘RQ-344-son “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni 17-moddasi birinchi qismining birinchi, oltinchi xatboshilari.*

### **231-moddada. Adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarish**

Oldindan bila turib, adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(231-moddada birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustda O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-moddada)*

O‘sha harakat odam o‘lishiga yoki boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa, — besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 11, 455-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksining 253, 373 — 378-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi 179-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 3, 8-moddalari.*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi 07-sonli “Sud hukmi to‘g‘risida”gi qarorining 2-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi 13-sonli “Iqtisodiy sudning hal qiluv qarori to‘g‘risida”gi qarorining 2-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 30-noyabrda 35-sonli “Sudlar tomonidan ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishni tartibga soluvchi qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 1-bandi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **232-modda. Sud hujjatini ijro etmaslik**

Muayyan harakatlarni sodir etish yoxud ularni sodir etishdan o‘zini tiyish majburiyatini yuklovchi sud hujjatini bajarishdan bo‘yin tovlashni ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin davom ettirish, shuningdek sud hujjatining ijro etilishiga to‘sqinlik qilish, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(232-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 198<sup>1</sup>, 198<sup>2</sup>-moddalari.*

O‘sha qilmishlar mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(232-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuni*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 10-apreldagi 7-sonli “Sud hujjatlarini bajarishdan bo‘yin tovlash va ularning ijro etilishiga to‘sqinlik qilish uchun jinoiy javobgarlikka doir qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori.*

*(232-modda O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 14-yanvardagi O‘RQ-199-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2009-y., 3-son, 9-modda)*

### **233-modda. Band solingan mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Band solingan mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etish, ya'ni band solingan yoxud garovga qo'yilgan mulkni ishonib topshirib qo'yilgan shaxs tomonidan qonunga xilof ravishda o'zlashtirish, rastrata qilish, yashirish, nobud qilish yoki unga shikast yetkazish ancha miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa, xuddi shuningdek bank yoki boshqa kredit tashkiloti xodimi tomonidan band solingan pul mablag'lari (omonatlari) bilan bank operatsiyalarini amalga oshirish,

*(233-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 14-yanvardagi O'RQ-199-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2009-y., 3-son, 9-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(233-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Etkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorida qoplangan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

*(233-modda ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 290-moddasi.*

### **234-modda. Qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Bila turib, qonunga xilof ravishda ushlab turish, ya'ni tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan qonuniy asosga ega bo'lmagan holda shaxs erkinligining qisqa muddatga cheklanishi —

*(234-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 23-maydagi O'RQ-542-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yilgacha ozodlikni cheklash yoxud bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(234-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 27-bobi (“Ushlab turish”).*

Bila turib, qonunga xilof ravishda hibsga olish yoki hibsdan saqlash —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(234-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 221, 222, 242-moddalari va O'zbekiston Respublikasining "Jinoyat ishini yuritish chog'ida qamoqda saqlash to'g'risida"gi Qonuni.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **235-modda. Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash**

Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash, ya'ni ma'muriy qamoqqa olingan shaxsga, shuningdek gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga, mahkumga, guvohga, jabrlanuvchiga, jinoyat protsessining boshqa ishtirokchisiga yoxud ularning yaqin qarindoshlariga ulardan yoki boshqa uchinchi shaxsdan biror-bir axborot olish, jinoyat sodir etganligiga iqrorlik ko'rsatuvchi olish maqsadida, ularni sodir etilgan qilmish uchun o'zboshimchalik bilan jazolash yoxud biror-bir harakatni sodir etishga majburlash maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organning yoki boshqa davlat organining xodimi tomonidan yoxud uning dalolatchiligida yoki xabardorligida yoxud indamay bergan roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan qo'rqitish, urish, do'pposlash, qiynash, azob berish yo'li bilan yoki qonunga xilof boshqa harakatlar vositasida sodir etilgan qonunga xilof ruhiy, psixologik, jismoniy bosim o'tkazish yoki boshqacha tarzda bosim o'tkazish, —

muayyan huquqdan mahrum etib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlikni qo'llagan holda yoxud shunday zo'rlikni qo'llash tahdidi bilan;

b) milliy, irqiy, diniy yoki ijtimoiy kamsitish zamiriga asoslangan har qanday sabab bo'yicha;

v) bir guruh shaxslar tomonidan;

g) takroran;

d) keksa shaxsga yoki nochor ahvoldagi shaxsga, voyaga yetmagan shaxsga yoxud homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan;

e) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;

j) hayotga va sog'liqqa zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ashyolar qo'llanilib;

z) dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) maqsadida sodir etilgan bo'lsa, —

muayyan huquqdan mahrum etib, besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlar badanga og'ir shikast yetkazilishiga yoxud boshqa og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, —

muayyan huquqdan mahrum etib, yetti yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(235-modda O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 4-apreldagi O'RQ-470-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2018-y., 03/18/470/1005-son)*





LexUZ sharhi

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 26-moddasining ikkinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 17-moddasining ikkinchi qismi.*

### **236-modda. Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish**

Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish, ya'ni ishni har tomonlama, to'la va xolisona o'rganilishiga to'sqinlik qilish maqsadida surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorga yoxud adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarilishiga erishish maqsadida sudyaga turli shaklda qonunga xilof ravishda ta'sir o'tkazish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(236-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

O'sha harakat mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

muayyan huquqdan mahrum etib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(236-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*



LexUZ sharhi

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 14-moddasi, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksining 9-moddasi, O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksining 8-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonunining 9-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 5-moddasining beshinchi qismi.*



LexUZ sharhi

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining qo'shma 1996-yil 20-dekabrda 1/60-sonli "Sud hokimiyati to'g'risida"gi qo'shma qarori 3-bandining birinchi xatboshisi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **237-modda. Yolg'on xabar berish**

Yolg'on xabar berish, ya'ni jinoyat to'g'risida bila turib yolg'on xabar berish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(237-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakat:

- a) ayblovning sun'iy dalillarini vujudga keltirgan holda;
- b) g'arazgo'ylik niyatlarida;
- v) uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab;

g) og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etishda ayblab sodir etilgan bo‘lsa, — besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakat og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa, —

sakkiz yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(237-modda O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 4-apreldagi O‘RQ-470-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.04.2018-y., 03/18/470/1005-son)*

*Oldingi tahririga qarang.*

### **238-modda. Yolg‘on guvohlik berish**

*Oldingi tahririga qarang.*

Yolg‘on guvohlik berish, ya‘ni surishtiruv olib borish, dastlabki tergov chog‘ida yoki sudda guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berishi yoxud ekspertning bila turib yolg‘on xulosa berishi, xuddi shuningdek tarjimonning bir tildan ikkinchi tilga bila turib noto‘g‘ri tarjima qilishi —

*(238-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 23-maydagi O‘RQ-542-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son)*

uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Surishtiruv olib borish, dastlabki tergov yoxud ishni sudda ko‘rish chog‘ida yolg‘on ko‘rsatuvlar berish uchun guvohni yoki jabrlanuvchini yoki yolg‘on xulosa berish uchun ekspertni yoxud noto‘g‘ri tarjima qilish uchun tarjimonni pora evaziga og‘dirib olish, xuddi shuningdek ularga yoki ularning yaqin qarindoshlariga ruhiy, psixologik, jismoniy ta‘sir ko‘rsatish yoki boshqacha tarzda ta‘sir ko‘rsatish orqali yolg‘on ko‘rsatuv berishga majbur qilish —

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlar:

a) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab;

b) og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etishda ayblab sodir etilgan bo‘lsa, — besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(238-modda O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 4-apreldagi O‘RQ-470-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.04.2018-y., 03/18/470/1005-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 48-moddasining ikkinchi qismi, 53-moddasining to‘rtinchi qismi, 55-moddasining ikkinchi qismi, 57-moddasining ikkinchi, uchinchi qismlari, 59-moddasining ikkinchi qismi, 61-moddasining ikkinchi, uchinchi qismi, 63-moddasining ikkinchi qismi, 66-moddasining ikkinchi, to‘rtinchi qismlari, 66<sup>1</sup>-moddasining beshinchi qismi, 68-moddasining ikkinchi, to‘rtinchi qismlari, 72-moddasining ikkinchi, uchinchi qismlari.*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi 7-son “Sud hukmi to‘g‘risida”gi qarorining 17-bandi.*

### **239-modda. Surishtiruv yoki dastlabki tergov ma‘lumotlarini oshkor qilish**

Surishtiruv yoki dastlabki tergov ma‘lumotlarini surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning ruxsatisiz oshkor qilish —

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(239-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 68-moddasining to‘rtinchi qismi, 70-moddasining ikkinchi qismi, 72-moddasining ikkinchi qismi, 74-moddasining ikkinchi qismi, 271-moddasi ikkinchi qismining oltinchi xatboshisi, 353-moddasi.*

#### **240-modda. Jinoyat protsessini yuritish qatnashchilarining o‘z zimmasidagi vazifani bajarishdan bo‘yin tovlashi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv olib borish, dastlabki tergov vaqtida yoki sudda guvoh yoki jabrlanuvchining ko‘rsatuv berishni yoxud ekspertning xulosa berishni rad etishi yoki bu ishdan bo‘yin tovlashi —

*(240-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 23-maydagi O‘RQ-542-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari bilan jazolanadi.

*(240-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 55-moddasining to‘rtinchi qismi, 66-moddasining to‘rtinchi qismi, 68-moddasining to‘rtinchi qismi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining yaqin qarindoshlari guvohlik ko‘rsatuv berishni rad etganligi yoki bundan bo‘yin tovlaganligi uchun, shuningdek guvoh o‘ziga qarshi ko‘rsatuv berishni rad etganda javobgarlikka tortilmaydilar.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi 07-sonli “Sud hukmi to‘g‘risida”gi qarorining 17-bandi.*

*(240-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 31-dekabrda O‘RQ-198-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2008-y., 52-son, 514-modda)*

#### **241-modda. Jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirish**

Tayyorgarlik ko‘rilayotgan yoki sodir etilgan og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat haqida aniq bilgani holda xabar bermaslik —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(241-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni oldindan va'da bermasdan yashirish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(241-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **241<sup>1</sup>-modda. Jinoyatni hisobga olishdan qasddan yashirish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jinoyatlar to'g'risidagi arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish yoki ko'rib chiqish xizmat vazifalariga kiradigan mansabdor shaxsning jinoyatni hisobga olishdan qasddan yashirishi, —

ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish:

- a) takroran sodir etilgan bo'lsa;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa;
- v) og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, —

muayyan huquqdan mahrum qilib, besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(241<sup>1</sup>-modda matni O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 20-iyuldagi O'RQ-485-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.07.2018-y., 03/18/485/1552-son)*

## **OLTINCHI BO'LIM**

### **JAMOAT XAVFSIZLIGI VA JAMOAT TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR**

#### **XVII bob. Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar**

##### **242-modda. Jinoiy uyushma tashkil etish**

Jinoiy uyushma tashkil etish, ya'ni jinoiy uyushma yoxud uning bo'linmalarini tuzish yoki unga rahbarlik qilish, shuningdek, ularning mavjud bo'lishi va ishlab turishini ta'minlashga qaratilgan faoliyat —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(242-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

Uyushgan qurolli guruh tuzish, shuningdek unga rahbarlik qilish yoki unda ishtirok etish

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(242-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeks 28-moddasining beshinchi qismi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **243-modda. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish**

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, ya'ni mulk (pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk) jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, xuddi shuningdek bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashlilikini yashirish yoxud sir saqlash, —

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasining uchinchi xatboshisi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 11-fevraldagi 1-sonli "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori.*

*(243-modda O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 22-sentabrdagi O'RQ-223-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2009-y., 39-son, 423-modda)*

### **244-modda. Ommaviy tartibsizliklar**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ommaviy tartibsizliklarga va fuqarolarga nisbatan zo'ravonlik qilishga omma oldida da'vat qilish —

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

b) ommaviy axborot vositalaridan, telekommunikatsiyalar tarmoqlaridan, Internet jahon axborot tarmog'idan, shuningdek matnni ko'paytirishning bosma yoki boshqa usullaridan foydalangan holda sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(244-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-martdagi O'RQ-679-sonli Qonuniga asosan birinchi va ikkinchi qismlar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.03.2021-y., 03/21/679/0256-son)*

Qurol yoki qurol sifatida foydalaniladigan boshqa narsalarni ishlatib yoxud ishlatish bilan qo'rqitib shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatish, qirg'in solish, o't qo'yish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish, hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatish orqali sodir etilgan ommaviy tartibsizliklar tashkil qilish, shuningdek, ommaviy tartibsizliklarda faol qatnashish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(244-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*





LexUZ sharhi

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrda 38-sonli “Respublika sudlari tomonidan ommaviy tartibsizliklar uchun javobgarlik to‘g‘risidagi qonunlarni qo‘llash amaliyoti bilan bog‘liq ayrim masalalar to‘g‘risida”gi qarori.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **244<sup>1</sup>-modda. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish**

*(244<sup>1</sup>-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-apreldagi O‘RQ-405-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2016-y., 17-son, 173-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan, qirg‘in solishga yoki fuqarolarni zo‘rluk bilan ko‘chirib yuborishga da‘vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash yoki ularni tarqatish maqsadida saqlash, shuningdek diniy-ekstremistik, terrorchilik tashkilotlarining atributlarini yoki ramziy belgilarini tarqatish yoxud namoyish etish maqsadida tayyorlash, saqlash —

*(244<sup>1</sup>-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-apreldagi O‘RQ-405-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2016-y., 17-son, 173-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(244<sup>1</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan, qirg‘in solishga yoki fuqarolarni zo‘rluk bilan ko‘chirib yuborishga da‘vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan ma‘lumotlar va materiallarni har qanday shaklda tarqatish, xuddi shuningdek fuqarolar totuvligini buzish, tuhmatona, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalar tarqatish hamda jamiyatda qaror topgan xulq-atvor qoidalariga va jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan boshqa qilmishlarni sodir etish maqsadida dindan foydalanish, shuningdek diniy-ekstremistik, terrorchilik tashkilotlarining atributlarini yoki ramziy belgilarini tarqatish yoxud namoyish etish —

*(244<sup>1</sup>-modda ikkinchi qismining dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-apreldagi O‘RQ-405-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2016-y., 17-son, 173-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(244<sup>1</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi** qismida ko‘rsatilgan harakatlar:

a) oldindan til biriktirib yoki bir guruh shaxslar tomonidan;

b) xizmat mavqeyidan foydalanib;

*Oldingi tahrirga qarang.*

v) diniy tashkilotlardan, shuningdek chet el davlatlari, tashkilotlari va fuqarolaridan olingan moliyaviy yoki boshqa moddiy yordamdan foydalanib;

g) ommaviy axborot vositalaridan yoxud telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet jahon axborot tarmogʻidan foydalanib sodir etilgan boʻlsa, —

*(244<sup>1</sup>-modda uchinchi qismi dispozitsiyasining “v” bandi O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-apreldagi O‘RQ-405-sonli Qonuniga asosan “v” va “g” bandlar bilan almashtirilgan — O‘R QHT, 2016-y., 17-son, 173-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(244<sup>1</sup>-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

*(Kodeks O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-maydagi 621-I-son Qonuniga asosan 244<sup>1</sup>-modda bilan to‘ldirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1998-y., 5-6-son, 102-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **244<sup>2</sup>-modda. Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish**

Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(244<sup>2</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘sha harakatlar:

a) og‘ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lsa;

b) voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda sodir etilgan bo‘lsa, —

*(244<sup>2</sup>-modda ikkinchi qismining dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-apreldagi O‘RQ-405-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2016-y., 17-son, 173-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

o‘n besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(244<sup>2</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

Basharti shaxs taqiqlangan tashkilotlar mavjudligi to‘g‘risida o‘z ixtiyori bilan xabar qilgan va jinoyatni ochishga yordam bergan bo‘lsa, u ushbu moddaning **birinchi qismida** nazarda tutilgan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonuni 3-moddasining ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi qismlari, O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni 5-moddasining oltinchi qismi.*

*(Kodeks O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 15-apreldagi 772-I-son Qonuniga asosan 244<sup>2</sup>-modda bilan to‘ldirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-y., 5-son, 124-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **244<sup>3</sup>-modda. Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish**

Diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki tarqatish, shunday qilmishlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(244<sup>3</sup>-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 184<sup>2</sup>-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-yanvardagi 10-sonli "Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-yanvardagi 10-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom" hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-yanvardagi 10-son qarori bilan tasdiqlangan "Diniy mazmundagi materiallarni davlat dinshunoslik ekspertizasidan o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom".*

*(Kodeks O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 22-iyundagi O'RQ-37-son Qonuniga asosan 244<sup>3</sup>-modda bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2006-y., 25-26-son, 226-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **244<sup>4</sup>-modda. Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish**

Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish, —

uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) shaxsning o'z xizmat mavqeyidan foydalanib;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa;
- g) badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, — uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar odam o'lishiga sabab bo'lsa, —

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

- a) odamlar o'limiga;
- b) halokatga;
- v) boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, —

sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning **birinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlarni sodir etgan shaxs, agar u uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini o'z ixtiyori bilan topshirsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

*(244<sup>4</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-maydagi O'RQ-534-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.05.2019-y., 03/19/534/3046-son — 2019-yil 4-noyabrda kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **244<sup>5</sup>-modda. Karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi haqida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni tarqatish**

Karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishi hamda tarqalishi sharoitida karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi haqida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni tarqatish, —

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan ma'lumotlarni nashr qilish yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan matnda yoki ommaviy axborot vositalari, shuningdek Internet butunjahon axborot tarmog'i orqali tarqatish —

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(244<sup>5</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 26-martdagi O'RQ-613-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2020-y., 03/20/613/0362-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **244<sup>6</sup>-modda. Yolg'on axborot tarqatish**

Shaxsning qadr-qimmatini kamsitilishiga yoki uning obro'sizlantirilishiga olib keladigan yolg'on axborotni tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

Jamoat tartibiga yoki xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg'on axborotni tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatish, ushbu Kodeksning **244<sup>1</sup>-moddasida** nazarda tutilgan jinoyat alomatlarini mavjud bo'lmagan taqdirda, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlar:

a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

b) ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlar:

a) ommaviy tadbirlar jarayonida yoki favqulodda vaziyat holatida;

b) juda ko'p miqdorda zarar yetkazilgan yoki boshqa og'ir oqibatlariga sabab bo'lgan holda;

v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

*(244<sup>6</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda O'RQ-658-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2020-y., 03/20/658/1670-son)*

#### **245-modda. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish**

Garov sifatida tutqunlikka olingan shaxsni ozod qilish sharti bilan davlat, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsdan biron-bir harakat sodir etish yoki biron-bir harakat sodir etishdan o'zini tiyib turishni talab qilish maqsadida shaxsni garov tariqasida tutqunlikka olish yoki tutqunlikda ushlab turish, ushbu Kodeksning 155, 165-moddalarida nazarda tutilgan alomatlar bo'lmasa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(245-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

O'sha harakatlar:

a) voyaga yetmagan shaxsga nisbatan;

b) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa;

v) og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(245-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

#### **246-modda. Kontrabanda**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Kontrabanda, ya'ni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, kuchli ta'sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, portlovchi moddalar, radioaktiv materiallar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog', o'qotar qurol yoki o'q-dorilarni, shuningdek giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni yoki diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish —

*(246-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-fevraldagi O'RQ-673-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.02.2021-y., 03/21/673/0112-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(246-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg'in qurolining boshqa turlarini, shunday qurollarni yaratishda foydalanilishi mumkinligi ayon bo'lgan material va moslamalarni, radioaktiv



materiallarni, shuningdek giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni ko'p miqdorda kontrabanda qilish —

*(246-moddaning ikkinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(246-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentabrdagi 18-sonli "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 17-bandi.*

### **247-modda. O'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash**

O'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar, portlatish qurilmalarini o'g'rilik yoki firibgarlik yo'li bilan qonunga xilof ravishda egallash —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(247-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

O'sha harakat:

- a) takroran;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) o'zlashtirish, rastrata qilish yoxud mansab mavqeyini suiiste'mol qilish yo'li bilan;
- g) talonchilik;
- d) tamagirlik yo'li bilan sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(247-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

O'sha harakat:

- a) bosqinchilik yo'li bilan;
- b) o'ta xavfli retsivist tomonidan;
- v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(247-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 27-fevraldagi 3-sonli "Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentabrdagi 18-sonli*

*“Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 17-bandining to‘rtinchi xatboshisi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **248-modda. Qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof ravishda egalik qilish**

Tegishli ruxsatnomasiz o‘qotar qurol, shuningdek o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalari tayyorlash, olish, olib yurish, saqlash, olib o‘tish yoki jo‘natish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(248-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakatlar takroran yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, — besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘qotar qurolni, o‘q-dorilarni, portlovchi moddalarni yoki portlash qurilmalarini o‘tkazish,

*Oldingi tahrirga qarang.*

o‘n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(248-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

Ushbu moddada nazarda tutilgan buyumlarni o‘z ixtiyori bilan topshirgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 27-fevraldagi 3-sonli “Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 14-iyundagi 9-sonli “Bezoriikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarori 8-bandining to‘rtinchi xatboshisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentabrdagi 18-sonli “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 17-bandining to‘rtinchi xatboshisi.*

*(248-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda 357-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1997-y., 2-son, 56-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **248<sup>1</sup>-modda. Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni saqlash va ulardan foydalanish tartibini buzish**

Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni saqlash, ulardan foydalanish yoki ularni boshqa shaxslarga berish tartibini buzish, shuningdek ulardan boshqa maqsadlarda foydalanish, — uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) mansab mavqeyini suiiste‘mol qilish yo‘li bilan;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa;
- g) badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, — uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar odam o‘lishiga sabab bo‘lsa, —

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) odamlar o'limiga;

b) halokatga;

v) boshqa og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, —

sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(248<sup>1</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-maydagi O'RQ-534-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.05.2019-y., 03/19/534/3046-son — 2019-yil 4-noyabrdan kuchga kiradi)*

### **249-modda. O'qotar qurol yoki o'q-dorilarni beparvolik bilan saqlash**

O'qotar qurol yoki unga mo'ljallangan o'q-dorilarni beparvolik bilan saqlash odam o'lishiga yoxud boshqa og'ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(249-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2017-yil 14-avgustdagi 179-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Muomalada bo'lgan ro'yxatga olinmagan o'qotar qurol va uning o'q-dorilarini, portlovchi moddalar va portlatish qurilmalarini ichki ishlar organlari ixtiyoriga topshirish Qoidalari", O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda Ichki ishlar vazirligining 2015-yil 29-iyundagi 15 va 9-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'qotar va pnevmatik sport quroli hamda unga o'q-dorilarni saqlash, tashish berish, qabul qilish, hisobga olish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomasi", O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2015-yil 10-iyuldagi 118-sonli bug'rug'i bilan tasdiqlangan "Idoraviy va sport uqotar qurol hamda uning o'q-dorilari saqlanadigan xonalarning muhandislik-texnik jihatdan mustahkamligi hamda qo'riqlash-yong'indan saqlash signalizatsiyasi vositalari bilan jihozlanishiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi Nizom", O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2015-yil 30-iyundagi 105-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Idoraviy va sport o'qotar qurol va o'q-dorilarni hisobga olish kitoblari hamda ularni berish va qabul qilish jurnallarini yuritish tartibiga qo'yiladigan Yagona talablar".*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 27-fevraldagi 3-sonli "Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarorining 4 va 11-bandlari.*

### **250-modda. Portlash xavfi bo'lgan moddalar yoki pirotexnika buyumlaridan foydalanish qoidalarini buzish**

Portlovchi, tez alanganuvchi, o'yuvchi moddalarni yoxud pirotexnika buyumlarini saqlash, hisobga olish, ulardan foydalanish, ularni tashish, jo'natish qoidalarini buzish badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(250-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha qilmish:

- a) odam o‘lishiga;
- b) boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(250-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustda O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 6-mayda 213-sonli “Portlovchi moddalar va portlatish vositalarini O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish, transportda tashish, saqlash va ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, “Portlovchi moddalarni ishlab chiqarish, sotib olish, saqlash, transportda tashish, ulardan foydalanish va ularni hisobga olish to‘g‘risida”gi yo‘riqnoma (ro‘yxat raqami: 1491, 08.07.2005-y.), “O‘zbekiston Respublikasi hududida portlovchi materiallarni avtomobil transportida tashish” qoidalari (ro‘yxat raqami: 1492, 08.07.2005-y.) va “O‘zbekiston Respublikasi hududida portlovchi materiallarni temir yo‘l transportida tashish” qoidalari (ro‘yxat raqami: 1493, 08.07.2005-y.).*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **250<sup>1</sup>-modda. Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi**

Pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo‘natish, ulardan foydalanish, xuddi shuningdek ularni qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish (O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish) yoki o‘tkazish ancha miqdorda yoxud shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(250<sup>1</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 185<sup>1</sup>-moddasi.*

Pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo‘natish, ulardan foydalanish, xuddi shuningdek ularni qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish (O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish) yoki o‘tkazish:

- a) ko‘p miqdorda;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- g) mansab mavqeyini suiiste‘mol qilish yo‘li bilan sodir etilgan bo‘lsa;

d) badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(250<sup>1</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo'natish, ulardan foydalanish, xuddi shuningdek ularni qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasiga olib kirish (O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish) yoki o'tkazish:

a) juda ko'p miqdorda;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa;

v) odam o'lishiga sabab bo'lsa, —

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo'natish, ulardan foydalanish, xuddi shuningdek ularni qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasiga olib kirish (O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish) yoki o'tkazish:

a) odamlar o'limiga;

b) boshqacha og'ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lsa, —

sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 25-oktabrdagi 234-sonli "O'zbekiston Respublikasi hududida pirotexnika buyumlari muomalasini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori*

*(250<sup>1</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 22-sentabrdagi O'RQ-261-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — O'R QHT, 2010-y., 38-son, 329-modda)*

## **251-modda. Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda egallash**

Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni o'g'rilik yoki firibgarlik yo'li bilan qonunga xilof ravishda egallash —

*Oldingi tahririga qarang.*

uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston "O'zkommunxizmat" Bosh direktorining 2014-yil 26 dekbrdagi 140-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Aholi punktlaridagi suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish tizimlaridan foydalanishda ishlar xavfsizligi Qoidalari"ning 5-paragrafi.*

*(251-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

O'sha harakat:

a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

v) o'zlashtirish, rastrata qilish yoki mansab mavqeyini suiiste'mol qilish yo'li bilan;



- g) talonchilik yo‘li bilan;
- d) tamagirlik yo‘li bilan sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(251-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

O‘sha harakat:

- a) bosqinchilik yo‘li bilan;
- b) ko‘p miqdorda;
- v) uyushgan guruh yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o‘n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(251-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **251<sup>1</sup>-modda. Kuchli ta’sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar hisoblanmaydigan kuchli ta’sir qiluvchi yoxud zaharli moddalarni o‘tkazish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, qayta ishlash, olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish, xuddi shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o‘tkazish yoxud ularni o‘tkazish maqsadida tayyorlash yoxud qayta ishlash uchun asbob-uskunalarni tayyorlash, olish, saqlash, tashish, jo‘natish yoki o‘tkazish, —

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud bir yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(251<sup>1</sup>-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-avgustdagi O‘RQ-711-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son)*

O‘sha harakatlar takroran yoki bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(251<sup>1</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-avgustdagi O‘RQ-711-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son)*

Ushbu moddaning **birinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlar uyushgan guruh tomonidan yoki ko‘p miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

yetti yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(251<sup>1</sup>-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-avgustdagi O‘RQ-711-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son)*

Kuchli ta’sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni ishlab chiqarish, olish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoxud jo‘natish qoidalarni buzish, agar bu ehtiyotsizlik orqasida ularning o‘g‘irlanishiga yoki boshqa tarzda jiddiy zarar yetkazilishiga olib kelgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(251<sup>1</sup>-modda to'rtinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-oktabrdagi 782-son qarori bilan tasdiqlangan Portlovchi va zaharli moddalarni, ularni qo'llagan holda materiallar va mahsulotlarni, shuningdek, portlatish vositalarini yaratish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida nizom.*

*(Kodeks O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 27-avgustdagi 671-II-son Qonuniga asosan 251<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirilgan — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-y., 37-son, 408-modda)*

## **252-modda. Radioaktiv materiallarni qonunga xilof ravishda egallash**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Radioaktiv materiallarni qonunga xilof ravishda egallash, shu jumladan talonchilik, o'g'rilik, o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan yoxud aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan egallash, xuddi shuningdek radioaktiv materiallarni qonunga xilof ravishda egallash uchun moliyalashtirish, bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-vositalarni, resurslarni berish yoxud yig'ish, boshqa xizmatlar ko'rsatish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(252-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

O'sha harakatlar:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) mansab mavqeyidan foydalangan holda sodir etilgan bo'lsa, — besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

- a) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab;
- b) o'ta xavfli retsivist tomonidan;
- v) tamagirlik yo'li bilan;
- g) bosqinchilik yo'li bilan;
- d) ushbu Kodeksning 155 va 161-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni amalga oshirish maqsadida sodir etilgan bo'lsa, —

o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(252-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-apreldagi O'RQ-405-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2016-y., 17-son, 173-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasining "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni.*

### **253-modda. Radioaktiv materiallardan foydalanish qoidalarini buzish**

Radioaktiv materiallarni saqlash, hisobga olish, ulardan foydalanish, ularni tashish, joʻnatish va ular bilan muomalada boʻlishning boshqa qoidalarini buzish badanga oʻrtacha ogʻir yoki ogʻir shikast yetkazilishiga sabab boʻlsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(253-modda birinchi qismining sanksiyasi Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda OʻRQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Oʻsha qilmish:

- a) odam oʻlishiga;
- b) boshqa ogʻir oqibatlarga sabab boʻlsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

muayyan huquqdan mahrum qilib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(253-modda ikkinchi qismining sanksiyasi Oʻzbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustda OʻRQ-389-sonli Qonuni tahririda — OʻR QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qoʻshimcha maʼlumot uchun qarang: Oʻzbekiston Respublikasining “Radiatsiyaviy xavfsizlik toʻgʻrisida”gi Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 13-avgustda 231-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Radioaktiv moddalar va radioaktiv chiqindilar aylanishini davlat tomonidan hisobga olish va nazorat qilish tartibi toʻgʻrisida”ginizom, “Yadroviy materiallari aylanishini davlat tomonidan hisobga olish va nazorat qilish tartibi toʻgʻrisida”gi nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 3-aprelda 98-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari aylanishini davlat tomonidan hisobga olish va nazorat qilish tizimini tashkil etish” qoidalarini.*

### **254-modda. Radioaktiv materiallardan qonunga xilof ravishda foydalanish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Radioaktiv materiallarga qonunga xilof ravishda ega boʻlish, ularni saqlash, ulardan foydalanish, ularni birovga oʻtkazish, koʻrinishini oʻzgartirish, sohib yuborish yoki buzish badanga oʻrtacha ogʻir yoki ogʻir shikast yetkazilishiga sabab boʻlsa, —

*(254-modda birinchi qismining dispozitsiyasi Oʻzbekiston Respublikasining 2016-yil 25-aprelda OʻRQ-405-sonli Qonuni tahririda — OʻR QHT, 2016-y., 17-son, 173-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(254-modda birinchi qismining sanksiyasi Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda OʻRQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Oʻsha qilmish:

- a) odam oʻlishiga;
- b) boshqa ogʻir oqibatlarga sabab boʻlsa, —

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 13-avgustdagi 231-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Radioaktiv moddalar va radioaktiv chiqindilar aylanishini davlat tomonidan hisobga olish va nazorat qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizom, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 3-apreldagi 98-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari aylanishini davlat tomonidan hisobga olish va nazorat qilish tizimini tashkil etish” qoidalari.*

### **255-modda. Yadro qurilmalaridan foydalanish qoidalarini buzish**

Yadro energiyasi bilan bog‘liq obyektlardan foydalanish qoidalarini buzish badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(255-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha qilmish:

a) odam o‘lishiga;

b) boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa, —

muayyan huquqdan mahrum qilib, besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **255<sup>1</sup>-modda. Bakteriologik, kimyoviy va boshqa xil yalpi qirg‘in qurollari turlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, to‘plash, olish, birovga o‘tkazish, saqlash, qonunga xilof ravishda egallash va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish**

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan taqiqlangan bakteriologik (biologik), kimyoviy va boshqa xil yalpi qirg‘in qurollari turlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, to‘plash, olish, birovga o‘tkazish, saqlash, qonunga xilof ravishda egallash va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(255<sup>1</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

O‘sha qilmish:

a) odam o‘lishiga;

b) boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

sakkiz yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(255<sup>1</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

*(Kodeks O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi 82-II-son Qonuniga asosan 255<sup>1</sup>-modda bilan to‘ldirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2000-y., 5-6-son, 153-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: “Bakteriologik (biologik) va toksik qurol-yarog‘larni ishlab chiqarish, tayyorlash va to‘plashni man etish hamda ularni tugatish to‘g‘risidagi Konvensiya” (Mazkur Konvensiya O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 22-dekabrda 185-I-sonli “Bakteriologik (biologik) va toksik qurol-yarog‘larni ishlab chiqarish, tayyorlash va to‘plashni man etish hamda ularni tugatish to‘g‘risidagi Konvensiyaga qo‘shilish haqida”gi qarori bilan tasdiqlangan).*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **255<sup>2</sup>-modda. Neft quvurlarini, gaz quvurlarini, neft va gaz mahsulotlari quvurlarini yaroqsiz holatga keltirish**

Neft quvurlarini, gaz quvurlarini, neft va gaz mahsulotlari quvurlarini, shuningdek texnologik jihatdan ular bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlarni, inshootlarni, aloqa, avtomatika, signalizatsiya vositalarini qasddan buzish, ularga shikast yetkazish yoki boshqa usul bilan ularni foydalanish uchun yaroqsiz holatga keltirish, agar ushbu harakatlar ularning normal ishlashi buzilishiga olib kelsa yoki olib kelishi mumkin bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(255<sup>2</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakatlar:

- a) takroran;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) magistrat quvurlarga nisbatan sodir etilgan bo‘lsa;
- g) ko‘p miqdorda zarar yetkazilishiga;
- d) badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(255<sup>2</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakatlar:

- a) odam o‘lishiga;
- b) juda ko‘p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —  
besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

- a) odamlar o‘limiga;
- b) boshqa og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa, —  
sakkiz yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*(255<sup>2</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 7-oktabrdagi O'RQ-355-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — O'R QHT, 2013-y., 41-son, 543-modda)*

### **256-modda. Tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish**

Ilmiy tadqiqot yoki sinov tajriba faoliyatini amalga oshirish vaqtida xavfsizlik qoidalarini buzish badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(256-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha qilmish:

- a) xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi uchun mas'ul shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa;
- b) ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(256-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

O'sha qilmish:

- a) odam o'lishiga;
- b) boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(256-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

### **257-modda. Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish**

Texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi yoki mehnatni muhofaza qilishning boshqa qoidalarini shu qoidalarga rioya etilishi uchun mas'ul bo'lgan shaxs tomonidan buzilishi o'rtacha og'ir yoki og'ir tan jarohati yetkazilishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(257-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha qilmish:

- a) odam o'lishiga;
- b) boshqa og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

muayyan huquqdan mahrum qilib, ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(257-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining XIII bobi ("Mehnatni muhofaza qilish"), O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **257<sup>1</sup>-modda. Sanitariyaga oid qonunchilikni yoki epidemiyaga qarshi kurash qoidalarini buzish**

*(257<sup>1</sup>-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Sanitariyaga oid qonunchilikni yoki epidemiyaga qarshi kurash qoidalarini buzish, shu jumladan karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi hamda tarqalishi sharoitida davlat sanitariya nazorati organlarining tibbiy tekshiruvdan o'tish va davolanish, karantinni o'tash uchun belgilangan joylarga yetib borish va ushbu joylarni belgilangan muddat davomida tark etmaslik, kasallik yuqish xavfi mavjud bo'lgan davrda muloqotda bo'lingan shaxslar va borilgan joylar haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish to'g'risidagi yoki boshqa qonuniy talablarini uzrli sabablarsiz bajarmaslik odamlarning ommaviy kasallanishi yoki zaharlanishi real xavfini keltirib chiqarsa yoxud odamlarning ommaviy kasallanishiga yoki zaharlanishiga olib kelsa,

*(257<sup>1</sup>-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solish yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish odamning o'limiga sabab bo'lsa, —

ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish odamlarning o'limiga sabab bo'lsa, —

yetti yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(257<sup>1</sup>-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 26-martdagi O'RQ-613-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2020-y., 03/20/613/0362-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-martdagi 176-son "Koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.*

### **258-modda. Tog'-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish**

Tog'-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(258-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha qilmish:

- a) odam o‘lishiga;
- b) boshqa og‘ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

muayyan huquqdan mahrum qilib, ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(258-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustda O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

### **259-modda. Yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzish**

Yong‘in xavfsizligi qoidalarining shu qoidalar bajarilishi uchun mas‘ul bo‘lgan shaxs tomonidan buzilishi badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solish yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(259-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha qilmish:

- a) odam o‘lishiga;
- b) boshqa og‘ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

muayyan huquqdan mahrum qilib, ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(259-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustda O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **259<sup>1</sup>-modda. O‘ta muhim va toifalangan obyektlarning qo‘riqlanishini ta‘minlashga doir majburiyatlarni bajarimaslik**

O‘ta muhim va toifalangan obyektlarning qo‘riqlanishini ta‘minlashga doir majburiyatlarni korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ularni bajarishga mas‘ul bo‘lgan mansabdor shaxslari tomonidan bajarilmasligi, shunday harakat uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(259<sup>1</sup>-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 210<sup>1</sup>-moddasining ikkinchi qismi.*

## **XVIII bob. Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar**



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2015-yil 26-iyundagi 10-sonli “Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar bilan bog‘liq ishlar yuzasidan sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori.*

### **260-modda. Temir yo‘l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish**

Transport vositasining harakat yoki undan foydalanish xavfsizligi qoidalarining temir yo‘l, dengiz, daryo yoki havo transportini boshqaruvchi shaxs tomonidan buzilishi badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(260-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha qilmish odam o‘lishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(260-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagi 832-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-y., 9-son, 229-modda)*

O‘sha qilmish:

- a) odamlar o‘limiga;
- b) halokatga;
- v) boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(260-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagi 832-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-y., 9-son, 229-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2015-yil 26-iyundagi 10-sonli “Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar bilan bog‘liq*

*ishlar yuzasidan sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida*"gi qarori 6-bandining *birinchi xatboshisi, 8, 10, 11, 22, 26-bandlari.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **260<sup>1</sup>-modda. O'zbekiston Respublikasining samoviy hududidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'zbekiston Respublikasining samoviy hududidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish, (bundan samoviy hududda uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanish hollari mustasno), shunday harakat uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, xuddi shuningdek badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, —

*(260<sup>1</sup>-moddaning birinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-maydagi O'RQ-534-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.05.2019-y., 03/19/534/3046-son — 2019-yil 4-noyabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(260<sup>1</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakat odam o'lishiga sabab bo'lsa,—

uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakat:

a) odamlar o'limiga;

b) halokatga;

v) boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, —

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(260<sup>1</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O'RQ-436-son Qonuniga asosan kiritilgan — O'R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 18-oktabrdagi 349-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi samoviy hududida aviatsiya parvozining asosiy qoidalari", Parvozlarning xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2007-yil 12-sentabrda 141-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi samoviy hududida fuqaro va eksperimental aviatsiyasining parvoz qilish aviatsiya qoidalari".*

## **261-modda. Mast holdagi shaxsning transport vositasini boshqarishiga yo'l qo'yish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Transport vositasidan foydalanish uchun mas'ul shaxsning mast holatdagi yoki giyovandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida bo'lgan shaxsni temir yo'l, dengiz, daryo, havo, avtomobil transporti yoki boshqa transport vositasini boshqarishiga yo'l qo'yishi badanga og'ir shikast yetkazilishiga yoxud odam o'lishiga sabab bo'lsa, —

*(261-moddaning dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*



bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud muayyan huquqdan mahrum qilib, bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(261-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2015-yil 26-iyundagi 10-sonli “Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar bilan bog‘liq ishlar yuzasidan sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori 6-bandining birinchi xatboshisi, 8, 10, 21, 26-bandining ikkinchi xatboshisi.*

## **262-modda. Transportni ta‘mirlash yoki uni foydalanishga chiqarish qoidalarini buzish**

Ta‘mirlash ishlarini bajarayotgan yoki transport vositasining texnik holati va undan foydalanilishi uchun mas‘ul bo‘lgan shaxsning temir yo‘l, dengiz, daryo, havo, avtomobil yoki boshqa transport vositasini, aloqa yo‘llari, signalizatsiya, aloqa vositalari yoki boshqa transport uskunalarini sifatsiz ta‘mirlashi, shuningdek transport vositasining texnika holati jihatidan buzuqligini bila turib, uni foydalanishga chiqarishga ruxsat berishi badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(262-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha qilmish odam o‘lishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(262-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

O‘sha qilmish:

- a) odamlar o‘limiga;
- b) halokatga;
- v) boshqa og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(262-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagi 832-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-y., 9-son, 229-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17 va 18-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi Qonunining 21-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 4-iyuldagi 191-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Avtotransport vositalari konstruksiyasining foydalanish shartlari bo‘yicha xavfsizligi to‘g‘risida”gi umumiy texnik reglament va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar*

*Mahkamasining 2015-yil 24-dekabrda 370-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari”ning 180-bandining ikkinchi xatboshisi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2015-yil 26-iyundagi 10-sonli “Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar bilan bog‘liq ishlar yuzasidan sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori 6-bandining birinchi xatboshisi, 8, 10, 11, 23, 26-bandlari.*

### **263-modda. Temir yo‘l, dengiz, daryo, havo transporti vositasi yoki aloqa yo‘llarini yaroqsiz holatga keltirish**

Temir yo‘l, dengiz, daryo yoki havo transporti vositalari, aloqa yo‘llari, ulardagi inshootlar, signalizatsiya qurilmalari, aloqa yoki boshqa transport uskunalari qasddan buzish, ularga shikast yetkazish yoxud ularni boshqa usulda foydalanish uchun yaroqsiz holatga keltirish badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(263-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakat odam o‘lishiga sabab bo‘lsa, —

besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakat:

a) odamlar o‘limiga;

b) halokatga;

v) boshqa og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa, —

o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi Qonunining 19-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 24-dekabrda 370-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari”ning 3-ilovasi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2015-yil 26-iyundagi 10-sonli “Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar bilan bog‘liq ishlar yuzasidan sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori 8, 11-bandlari.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **263<sup>1</sup>-modda. Havo kemasidan foydalanish vaqtida lazer nurini yo‘naltirish orqali xalaqit berish**

Havo kemasidan foydalanish vaqtida havo kemasiga lazer nurini yo‘naltirish orqali xalaqit berish, shunday harakat uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, shuningdek badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(263<sup>1</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 116<sup>1</sup>-moddasi.*

O'sha harakat odam o'lishiga sabab bo'lsa, —  
uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakat:

a) odamlar o'limiga;

b) halokatga;

v) boshqa og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, —

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(263<sup>1</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-apreldagi O'RQ-405-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — O'R QHT, 2016-y., 17-son, 173-modda)*

### **264-modda. Temir yo'lining harakatlanadigan tarkibini, havo, dengiz yoki daryo kemasini olib qochish yoki egallab olish**

Temir yo'lining harakatlanadigan tarkibini, havo, dengiz yoki daryo kemasini olib qochish yoki egallab olish —

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

b) zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etilgan bo'lsa, —

o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

### **265-modda. Xalqaro uchish qoidalarini buzish**

Ruxsatnomada ko'rsatilgan uchish yo'nalishiga, qo'nish joylariga, havo darvozalariga, uchish balandligiga rioya qilmaslik yoki xalqaro uchish qoidalarini boshqacha tarzda buzish —

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(265-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksining IX bobi ("Xalqaro parvozlar").*

### **266-modda. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish**

Transport vositasini boshqaruvchi shaxs tomonidan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(266-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha qilmish odam o'lishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

muayyan huquqdan mahrum qilib, yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(266-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagi 832-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-y., 9-son, 229-modda)*

O'sha qilmish:

- a) odamlar o'limiga;
- b) halokatga;
- v) boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

muayyan huquqdan mahrum qilib, o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(266-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagi 832-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-y., 9-son, 229-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 24-dekabrda 370-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Yo'l harakati qoidalari", O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi boshlig'ining 2014-yil 22-aprelda 22-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Avtomobilida tashuvchi tomonidan haydovchilarga yo'l harakati xavfsizligi masalalari bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish tartibi to'g'risidagi Nizom".*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2015-yil 26-iyundagi 10-sonli "Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar bilan bog'liq ishlar yuzasidan sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori 6 — 13, 17, 19, 20, 22, 24, 26, 28-bandlari.*

## **267-modda. Transport vositasini olib qochish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Transport vositasini olib qochish —

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakat:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib;
- g) transport vositasini talon-toroj qilish maqsadida o'g'rilik yoki talonchilik yo'li bilan

sodir etilgan bo'lsa, —

o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakat:

- a) o'ta xavfli retsivist tomonidan;
- b) uyushgan guruh tomonidan;

v) transport vositasini talon-toroj qilish maqsadida bosqinchilik yo‘li bilan sodir etilgan bo‘lsa, —

o‘n besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(267-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 26-dekabrda O‘RQ-416-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2016-y., 52-son, 597-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrda 37-sonli “Transport vositalarini olib qochish ishlari bo‘yicha sud amaliyoti haqida” qarori.*

### **268-modda. Transportning xavfsiz ishlashini ta‘minlashga doir qoidalarini buzish**

Yo‘lovchi, piyoda, velosiped, ot-ulov transportining haydovchisi yoki yo‘l harakatining boshqa qatnashchilari tomonidan, ushbu Kodeksning 261-263, 265 yoki 266-moddalarida nazarda tutilgan shaxslardan tashqari, harakat xavfsizligi qoidalarini yoki barcha turdagi transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(268-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O‘sha harakat odam o‘lishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(268-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martda O‘RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

O‘sha harakat:

a) odamlar o‘limiga;

b) boshqa og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa, —

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 24-dekabrda 370-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalarini”.*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2015-yil 26-iyundagi 10-sonli “Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar bilan bog‘liq ishlar yuzasidan sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 6 — 8, 10 va 11-bandlari.*

### **269-modda. Avtomobil yo‘llaridan foydalanish va ularni qo‘riqlash qoidalarini buzish**

Avtomobil yo‘llaridan foydalanish va ularni qo‘riqlash qoidalarini buzish, ya‘ni avtomobil yo‘llarida va shu yo‘llar uchun ajratilgan mintaqada tegishli ruxsatsiz yer osti va yer usti kommunikatsiyalari o‘tkazish, ularni ta‘mirlash, bu ishlarni bajarishning belgilangan shartlari va muddatlariga rioya qilmaslik, o‘zboshimchalik bilan arklar, to‘siqlar, shlagbaumlari yoki boshqa



inshootlar oʻrnatish, yoʻllarga material va boshqa narsalarni uyub qoʻyish, yoʻl ustini buzish badanga oʻrtacha ogʻir yoki ogʻir shikast yetkazilishiga sabab boʻlsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(269-modda birinchi qismining sanksiyasi Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda OʻRQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Oʻsha qilmish odam oʻlishiga sabab boʻlsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(269-modda ikkinchi qismining sanksiyasi Oʻzbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustda OʻRQ-389-sonli Qonuni tahririda — OʻR QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

Oʻsha qilmish:

- a) odamlarning oʻlimiga;
- b) boshqa ogʻir oqibatlarga sabab boʻlsa, —

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qoʻshimcha maʼlumot uchun qarang: Oʻzbekiston Respublikasining “Avtomobil yoʻllari toʻgʻrisida”gi Qonunining 5-bobi (“Avtomobil yoʻllaridan foydalanish), Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrda 342-son qarori bilan tasdiqlangan “Oʻzbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yoʻllari mintaqasida xavfsizlikni taʼminlash va tashkil etish qoidalari”..*



*LexUZ sharhi*

*Qoʻshimcha maʼlumot uchun qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2015-yil 26-iyundagi 10-sonli “Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar bilan bogʻliq ishlar yuzasidan sud amaliyotining ayrim masalalari toʻgʻrisida”gi qarori 6-bandining birinchi xatboshisi, 8, 10, 11-bandlari.*

## **XIX bob. Giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar**



*LexUZ sharhi*

*Qoʻshimcha maʼlumot uchun qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 28-aprelda 12-sonli “Giyovandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari boʻyicha sud amaliyoti toʻgʻrisida”gi qarori.*

### **270-modda. Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish**

Taqiqlangan ekinlarni, yaʼni koʻknor yoki moyli koʻknor, kannabis oʻsimligi yoxud tarkibida giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar boʻlgan ekinlarni qonunga xilof ravishda ekish yoki yetishtirish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(270-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakat:

a) ilgari giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

v) o'rtacha kattalikdagi ekin maydonida sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(270-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakat:

a) o'ta xavfli retsivist tomonidan;

b) uyushgan guruh yoki uning manfaatlarini ko'zlab;

v) katta ekin maydonida sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(270-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 28-aprelda 12-sonli "Giyovandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 3, 16-bandlari.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **271-modda. Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash**

*(271-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda, o'g'rilik yoki firibgarlik yo'li bilan egallash —

*(271-moddaning birinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(271-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martda O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

O'sha harakat:

a) ilgari giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;

- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan;
- g) talonchilik yo'li bilan;
- d) mansab mavqeyini suiiste'mol qilib;
- e) tamagirlik yo'li bilan;
- j) ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(271-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

O'sha harakat:

- a) o'ta xavfli retsivist tomonidan;
- b) uyushgan guruh yoki uning manfaatlarini ko'zlab;
- v) bosqinchilik yo'li bilan sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(271-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 28-apreldagi 12-sonli "Giyovandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 20-bandi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(272-modda O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagi 832-I-son Qonuniga asosan chiqarilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-y., 9-son, 229-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

**273-modda. Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish**

*(273-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab ko'p bo'lmagan miqdorda qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish, shuningdek ularni ko'p bo'lmagan miqdorda qonunga xilof ravishda o'tkazish —

*(273-moddaning birinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(273-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlar ozginadan ko'proq miqdorda sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(273-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan qilmishlar:

- a) ilgari giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tash joylarida;
- g) o'quv yurtlarida yoki o'quvchilar, studentlar o'quv, sport va jamoat tadbirlarini o'tkazadigan boshqa joylarda sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

yetti yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(273-modda uchinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni laboratoriyalarda yoxud o'zganing mulki hisoblangan vositalar va asbob-uskunalaridan yoki prekursorlardan foydalangan holda qonunga xilof ravishda tayyorlash yoki qayta ishlash, shuningdek bunday vositalarni iste'mol qilish yoki tarqatish uchun bangixonalar tashkil qilish yoki saqlash, shuningdek ushbu moddaning **ikkinchi** yoki **uchinchi qismida** nazarda tutilgan qilmishlar:

*(273-moddaning to'rtinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

- a) o'ta xavfli retsivist tomonidan;
- b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(273-modda to'rtinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni ko'p miqdorda qonunga xilof ravishda sotish —

*(273-moddaning beshinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(273-modda beshinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ushbu moddaning **birinchi qismida** nazarda tutilgan qilmishlarni sodir etgan shaxs o'z ixtiyori bilan aybini bo'yniga olish to'g'risida hokimiyat organlariga arz qilsa va giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni topshirsa, jazodan ozod qilinadi.

(273-moddaning oltinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli *Qonuni* tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 28-apreldagi 12-sonli "Giyovandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 20-bandining uchinchi xatboshisi, 21 — 28-bandlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentabrdagi 18-sonli "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 17-bandining to'rtinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 25-noyabrdagi 9-sonli "O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasini kesib o'tish tartibini buzishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 11-bandining birinchi xatboshisi.*

(273-modda O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagi 832-I-son *Qonuni* tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-y., 9-son, 229-modda)

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **274-modda. Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etish**

(274-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli *Qonuni* tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

Giyovandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni har qanday shaklda iste'mol qilishga jalb etish —

(274-moddaning birinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli *Qonuni* tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

(274-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli *Qonuni* tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)

O'sha harakat:

a) ilgari giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash joylarida;

v) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

(274-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli *Qonuni* tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 28-apreldagi 12-sonli "Giyovandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 29-bandi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*



## **275-modda. Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar ishlab chiqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish**

*(275-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoki jo'natishning belgilangan qoidalarini buzish —

*(275-moddaning dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(275-moddaning sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Giyovandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonunining II ("Giyovandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat"), III ("Giyovandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish shartlari"), IV bo'limlari ("Giyovandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan foydalanish") va "Giyovandlik vositalari, psixotrop vositalar va prekursorlarni saqlash, berish, sotish, taqsimlash va hisobga olish shartlari to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami: 1090, 29.12.2001-y.).*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **276-modda. Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar**

*(276-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay, qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, egallash, tashish yoki jo'natish —

*(276-moddaning birinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(276-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha qilmishlar:

a) ko'p miqdorda;

b) ilgari giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(276-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ushbu moddaning **birinchi qismida** nazarda tutilgan qilmishlarni sodir etgan shaxs o'z ixtiyori bilan aybini bo'yniga olish to'g'risida hokimiyat organlariga arz qilsa va giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni topshirsa, jazodan ozod qilinadi.

*(276-moddaning uchinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 28-apreldagi 12-sonli "Giyovandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 19-bandining to'rtinchi xatboshiisi, 34-bandining uchinchi xatboshiisi.*

## **XX bob. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar**

### **277-modda. Bezorilik**

Bezorilik, ya'ni jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do'pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o'zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish ancha zarar yetkazish bilan bog'liq holda sodir etilsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(277-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

Bezorilik:

a) badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazib;

b) bir guruh shaxslar tomonidan;

v) sovuq qurol yoki kishining sog'lig'i uchun amalda shikast yetkazishi mumkin bo'lgan narsalarni (qurol sifatida) namoyish qilib, ularni qo'llash bilan qo'rqitib yoxud qo'llab;

g) o'z mazmuniga ko'ra umum e'tirof etgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi o'taketgan behayolik bilan;

d) yosh bola, qariya, nogiron yoki ojiz ahvoldagi shaxslarni xo'rlab;

e) ko'p miqdorda zarar yetkazib, birovning mulkini nobud qilib yoki unga shikast yetkazib sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(277-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

Bezorilik:

a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;  
b) o‘qotar qurolni namoyish qilib, uni qo‘llash bilan qo‘rqitib yoki qo‘llab;  
v) ommaviy tadbirlar o‘tkazilayotgan vaqtda;  
g) jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarib turgan hokimiyat vakili yoki jamoatchilik vakiliga yoxud bezorilik harakatlarining oldini olish chorasini ko‘rgan boshqa fuqarolarga qarshilik ko‘rsatib sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(277-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 14-iyundagi 9-sonli “Bezorilikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrda 38-sonli “Respublika sudlari tomonidan ommaviy tartibsizliklar uchun javobgarlik to‘g‘risidagi qonunlarni qo‘llash amaliyoti bilan bog‘liq ayrim masalalar to‘g‘risida”gi qarori 1-bandining “a” kichik bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrda 13-sonli “Qasddan odam o‘ldirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 16-band, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 27-iyundagi 6-sonli “Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 12-band.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **278-modda. Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish hamda o‘tkazish**

Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish yoki o‘tkazish, shu jumladan ana shunday o‘yinlar uchun qimorxonalar tashkil etish yoki ularni saqlash —

yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo‘lsa;  
b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab, —  
yetti yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Voyaga yetmagan shaxsni qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarga jalb qilish, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(278-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda 586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 191-moddasining ikkinchi qismi.*

Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish yoki o‘tkazish uchun telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘i provayderlari

tomonidan xizmatlar ko'rsatish, tegishli dasturiy ta'minotdan nusxa ko'paytirish, uni ko'paytirish, tarqatish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(278-modda to'rtinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 191-moddasining uchinchi qismi.*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-martdagi PQ-608-sonli "Qimor o'yinlarini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq noqonuniy faoliyatning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 16-avgustdagi 176-sonli "Qimor o'yinlarini tashkil etish va o'tkazishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.*

*(278-modda to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi O'RQ-109-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2007-y., 37-38-son, 377-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **XX<sup>1</sup> bob. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar**



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni.*

### **278<sup>1</sup>-modda. Axborotlashtirish qoidalarini buzish**

Axborotlashtirish qoidalarini buzish, ya'ni belgilangan himoya choralari ko'rmagan holda axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari va banklarini, axborotga ishlov berish hamda uni uzatish tizimlarini yaratish, joriy etish va ulardan foydalanish hamda axborot tizimlaridan ruxsat bilan foydalanish fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(278<sup>1</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakatlar juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(278<sup>1</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

### **278<sup>2</sup>-modda. Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish**

Kompyuter axborotidan, ya'ni axborot-hisoblash tizimlari, tarmoqlari va ularning tarkibiy qismlaridagi axborotlardan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish, agar ushbu harakat axborotning yo'q qilib yuborilishi, to'sib qo'yilishi, modifikatsiyalashtirilishi, undan nusxa ko'chirilishi yoxud uning qo'lga kiritilishiga, elektron hisoblash mashinalari, elektron hisoblash mashinalari tizimi yoki ularning tarmoqlari ishining buzilishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(278<sup>2</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakat:

- a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- b) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- v) xizmat mavqeyidan foydalangan holda;
- g) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(278<sup>2</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **278<sup>3</sup>-modda. Kompyuter tizimidan, shuningdek telekommunikatsiya tarmoqlaridan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash yoxud o'tkazish va tarqatish**

*(278<sup>3</sup>-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Himoyalangan kompyuter tizimidan, shuningdek telekommunikatsiya tarmoqlaridan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus dasturiy yoki apparat vositalarini o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash yoxud o'tkazish va tarqatish —

*(278<sup>3</sup>-moddaning birinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.



*(278<sup>3</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda  
O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y.,  
03/19/586/4106-son)*

O'sha harakatlar:

- a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- b) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- v) xizmat mavqeyidan foydalangan holda;
- g) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*(278<sup>3</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda  
O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y.,  
03/19/586/4106-son)*

#### **278<sup>4</sup>-modda. Kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirish**

Kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirish, ya'ni kompyuter tizimida saqlanayotgan axborotni qonunga xilof ravishda o'zgartirish, unga shikast yetkazish, uni o'chirish, xuddi shuningdek bila turib unga yolg'on axborotni kiritish fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(278<sup>4</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda  
O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y.,  
03/19/586/4106-son)*

O'sha harakatlar:

- a) juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(278<sup>4</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustda  
O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

#### **278<sup>5</sup>-modda. Kompyuter sabotaji**

O'zganing kompyuter uskunasi yoki xizmatda foydalaniladigan kompyuter uskunasi qasddan ishdan chiqarish, xuddi shuningdek kompyuter tizimini buzish (kompyuter sabotaji) —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilib, bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(278<sup>5</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda  
O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y.,  
03/19/586/4106-son)*

O'sha harakatlar:

- a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- b) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(278<sup>5</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi  
O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

### **278<sup>6</sup>-modda. Zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish**

Kompyuter tizimida saqlanayotgan yoki uzatilayotgan axborotni ruxsatsiz yo'q qilib yuborish, to'sib qo'yish, modifikatsiyalashtirish, undan nusxa ko'chirish yoki uni qo'lga kiritish maqsadini ko'zlab kompyuter dasturlarini yaratish yoki mavjud dasturlarga o'zgartirishlar kiritish, xuddi shuningdek maxsus virus dasturlarini ishlab chiqish, ulardan qasddan foydalanish yoki ularni qasddan tarqatish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(278<sup>6</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda  
O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y.,  
03/19/586/4106-son)*

O'sha harakatlar:

- a) juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- g) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(278<sup>6</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi  
O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

*(XX<sup>1</sup> bob O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 25-dekabrda O'RQ-137-sonli Qonuni bilan  
kiritilgan — O'R QHT, 2007-y., 52-son, 532-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **278<sup>7</sup>-modda. Telekommunikatsiya tarmog'idan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish**

O'rnatilgan himoya tizimlarini chetlab o'tgan holda telekommunikatsiya tarmog'idan foydalanish va xalqaro trafikni o'tkazish maqsadida telekommunikatsiya tarmog'idan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish, shuningdek mazkur maqsadlar uchun mo'ljallangan maxsus dasturiy yoki apparat vositalarini qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) saqlash va ularning faoliyat ko'rsatishi uchun sharoitlar yaratish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(278<sup>7</sup>-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

O'sha harakatlar:

- a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- b) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- v) xizmat mavqeyidan foydalanib;
- g) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, — *Oldingi tahrirga qarang.*

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(278<sup>7</sup>-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

## **ETTINCHI BO'LIM**

### **HARBIY XIZMATNI O'TASH TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR**



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrda 23-sonli "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori.*

#### **XXI bob. Bo'ysunish va harbiy sha'nga rioya etish tartibiga qarshi jinoyatlar**

##### **279-modda. Bo'ysunmaslik**

Bo'ysunmaslik, ya'ni buyruqni bajarishdan ochiqdan-ochiq bosh tortish, shuningdek, buyruqni boshqa tarzda qasddan bajarmaslik —

ikki yilgacha xizmat bo'yicha cheklash yoki bir yilgacha intizomiy qismga yuborish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish:

- a) bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa;
  - b) og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, —  
uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.
- O'sha qilmish jangovar vaziyatda sodir etilgan bo'lsa, —  
besh yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrda 23-sonli "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 2.8-bandining ikkinchi xatboshisi.*

##### **280-modda. Buyruqni bajarmaslik**

Buyruqni ehtiyotsizlik orqasida bajarmaslik ko'p miqdorda zarar yetkazilishi yoki og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, —

ikki yilgacha xizmat yuzasidan cheklash yoki bir yilgacha intizomiy qismga yuborish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish jangovar vaziyatda sodir etilgan bo'lsa, —  
besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 2.8-bandining ikkinchi xatboshisi.*

### **281-modda. Boshliqqa qarshilik ko'rsatish yoki uni xizmat vazifalarini buzishga majbur qilish**

Boshliqqa, shuningdek harbiy xizmat yuzasidan o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarayotgan boshqa shaxsga qarshilik ko'rsatish yoki uni mazkur vazifalarni buzishga majbur etish

—  
ikki yilgacha xizmat bo'yicha cheklash yoxud bir yilgacha intizomiy qismga yuborish yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

- a) bir guruh shaxslar tomonidan;
- b) qurol ishlatib sodir etilgan bo'lsa;
- v) og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, —

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar jangovar vaziyatda sodir etilgan bo'lsa, —

besh yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 3.7-bandi.*

### **282-modda. Boshliqni qo'rqitish**

Jangovar vaziyatda boshliqni o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish, bunday harakat amalga oshirilishi uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa, —

uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 3.7-bandi.*

### **283-modda. Badanga shikast yetkazish**

Boshliqni do'pposlash, uning badaniga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish u harbiy xizmat yuzasidan o'z vazifalarini bajarganligi munosabati bilan yoki bajarayotgan vaqtda sodir etilgan bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

uch yilgacha xizmat bo'yicha cheklash yoki bir yilgacha intizomiy qismga yuborish yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(283-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

Badanga og‘ir shikast yetkazish, shuningdek, ushbu moddaning **birinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlar:

- a) bir guruh shaxslar tomonidan;
- b) qurol ishlatib sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(283-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlar jangovar vaziyatda sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

yetti yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(283-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli “Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko‘rish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 3.7-bandi.*

#### **284-modda. Bo‘ysunuvchining o‘z boshlig‘ini yoki boshliqning o‘ziga bo‘ysunuvchini haqorat qilishi**

Bo‘ysunuvchining o‘z boshlig‘ini, shuningdek, boshliqning o‘ziga bo‘ysunuvchini haqorat qilishi shunday harakatlar uchun intizomiy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

ikki yilgacha xizmat bo‘yicha cheklash yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(284-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O‘RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli “Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko‘rish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 3.7-bandi.*

#### **285-modda. Bir-biriga tobe bo‘lmagan harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini buzish**

Bir-biriga tobe bo‘lmagan harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini buzish, ya‘ni muntazam xo‘rlash, azob berish, sog‘liqning buzilishiga sabab bo‘lgan badanga yengil shikast yetkazish yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish, qonunga xilof ravishda ozodlikdan mahrum qilish —

*Oldingi tahririga qarang.*

ikki yilgacha xizmat bo‘yicha cheklash yoxud bir yilgacha intizomiy qismga yuborish yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(285-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O‘RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

*Oldingi tahririga qarang.*

O‘sha qilmish:



a) bir guruh shaxslar tomonidan;  
b) qurol ishlatib sodir etilgan bo'lsa;  
v) badanga og'ir shikast yetkazilishga sabab bo'lsa, —  
besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.  
O'sha qilmish odam o'lishiga sabab bo'lsa, —  
o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish:

a) odamlarning o'limiga;  
b) boshqa og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, —  
o'n besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 3.1 — 3.6-bandlari.*

*(285-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi 681-I-son Qonuniga asosan ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlar bilan almashtirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1998-y., 9-son, 181-modda)*

### **286-modda. Marodyorlik**

Marodyorlik, ya'ni halok bo'lganlarning yoki yaradorlarning buyumlarini jangovar vaziyatda egallash —

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

## **XXII bob. Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar**

### **287-modda. Harbiy qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchisining harbiy qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketishi, shuningdek, harbiy qismdan qisqa muddatga ruxsat berilganda, boshqa xizmatga tayinlanganda yoki boshqa xizmat joyiga o'tkazilganda, xizmat safaridan, otpuskadan yoki davolash muassasasidan uzrli sabablarsiz bir kecha-kunduzdan ortiq, lekin o'n kecha-kunduzdan ko'p bo'lmagan muddat davomida xizmat joyida hozir bo'lmisligi, shunday qilmishlar uchun intizomiy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

*(287-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 22-dekabrda O'RQ-238-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2009-y., 52-son, 553-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bir yilgacha intizomiy qismga yuborish yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(287-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchisi, ofitserlar tarkibidan bo'lgan shaxs yoki harbiy xizmatni kontrakt (shartnoma) bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchining qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketishi, shuningdek uzrli sabablarsiz belgilangan muddatdan o'n kecha-kunduzdan ortiq, lekin bir oydan ko'p bo'lmagan muddat davomida xizmat joyiga yetib kelmasligi —

*(287-modda ikkinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 22-dekabrda O'RQ-238-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2009-y., 52-son, 553-modda)*

ikki yilgacha xizmat bo'yicha cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Harbiy qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketish, shuningdek, xizmatga belgilangan muddatdan uzrli sabablarsiz bir oydan ortiq vaqt ichida yetib kelmaslik ushbu moddaning **ikkinchi qismida** ko'rsatilgan shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa, —

besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan qilmishlar jangovar vaziyatda sodir etilgan bo'lsa, muddatidan qat'i nazar, —

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 2.1, 2.2-bandlari.*

### **288-modda. Dezertirlik**

Dezertirlik, ya'ni harbiy xizmatdan butunlay bo'yin tovlash maqsadida harbiy qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketish, shuningdek, shu maqsadda xizmat joyiga yetib kelmaslik —

besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'sha qilmish ofitserlar tarkibidan bo'lgan shaxs yoki harbiy xizmatni kontrakt (shartnoma) bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchi tomonidan sodir etilgan bo'lsa, —

*(288-modda ikkinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 22-dekabrda O'RQ-238-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2009-y., 52-son, 553-modda)*

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 2.1, 2.3-bandlari.*

### **289-modda. Halok bo'layotgan harbiy kemani tashlab ketish**

Halok bo'layotgan harbiy kemani o'z xizmat vazifalarini oxirigacha bajarmagan komandir tomonidan, shuningdek, komandirning tegishli farmoyishi bo'lmasdan kema komandasi tarkibidagi shaxs tomonidan tashlab ketilishi —

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish jangovar vaziyatda sodir etilgan bo'lsa, —

o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

### **290-modda. O'zining biron a'zosini mayib qilish yo'li bilan yoki boshqa usulda harbiy xizmatdan bo'yin tovlash**

O'zining biron a'zosini mayib qilish, ya'ni harbiy xizmatchining o'z badaniga biron shikast yetkazish yo'li bilan, shuningdek, o'zini yolg'ondan kasallikka solib, hujjatlarni qalbakilashtirish yoki boshqacha aldash yo'li bilan harbiy xizmat vazifalarini bajarishdan bo'yin tovlashi yoki bu vazifalarni bajarishdan bosh tortishi —

*Oldingi tahrirga qarang.*

bir yilgacha intizomiy qismga yuborish yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(290-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O‘RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

O‘sha harakat jangovar vaziyatda sodir etilgan bo‘lsa, —  
besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli “Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko‘rish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 2.1, 2.4 — 2.8-bandlari.*

### **291-modda. Qorovul xizmatini o‘tash qoidalarini buzish**

Qorovul (soqchilik) xizmati ustav qoidalarini qorovul tarkibiga kirgan shaxs tomonidan zararli oqibatlar keltirib chiqaradigan tarzda buzish, basharti, mazkur qorovul bunday oqibatlarining oldini olish uchun tayinlangan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yilgacha xizmat bo‘yicha cheklash yoki bir yilgacha intizomiy qismga yuborish yoxud bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(291-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O‘RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

O‘sha qilmish:

- a) badanga og‘ir shikast yetkazilishiga;
- b) odam o‘lishiga;
- v) boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa, —

besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha qilmish jangovar vaziyatda sodir etilgan bo‘lsa, —

o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli “Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko‘rish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 2.9, 3.5-bandlari.*

### **292-modda. Ichki xizmatni o‘tash yoki garnizonda patrullik qilish qoidalarini buzish**

Ichki xizmat ustavi qoidalarini, shuningdek, garnizonda patrullik qilish qoidalarini zararli oqibatlar keltirib chiqaradigan tarzda buzish, tegishli xizmat bunday oqibatlarining oldini olish uchun tayinlangan bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yilgacha xizmat bo‘yicha cheklash yoki bir yilgacha intizomiy qismga yuborish yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(292-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O‘RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli “Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko‘rish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 2.9, 3.5-bandlari.*

### **293-modda. Jangovar navbatchilikni o‘tash qoidalarini buzish**

Jangovar navbatchilikni o'tash (jangovar xizmat) qoidalarini buzish qo'riqlanayotgan obyektlarga zarar yetkazilishiga yoki jangovar topshiriq bajarilmay qolishiga sabab bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yilgacha xizmat bo'yicha cheklash yoki bir yilgacha intizomiy qismga yuborish yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(293-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

O'sha qilmish O'zbekiston Respublikasiga to'satdan qilingan hujumni o'z vaqtida payqamaganlik yoki daf etmaganlikda ifodalansa, shuningdek, og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, — besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 2.9, 3.5-bandlari.*

### **294-modda. Chegara xizmatini o'tash qoidalarini buzish**

Chegarachilar naryadi tarkibida bo'lgan shaxsning chegara xizmatini o'tash qoidalarini buzishi chegaraning daxlsizligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yilgacha xizmat bo'yicha cheklash yoki bir yilgacha intizomiy qismga yuborish yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(294-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

O'sha qilmish:

a) qonunga xilof ravishda chegaradan o'tishga;

b) boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, —

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 2.9, 3.5-bandlari.*

## **XXIII bob. Harbiy mulkni saqlash yoki undan foydalanish tartibiga qarshi jinoyatlar**

### **295-modda. Harbiy mulkni behuda sarflash, yo'qotish yoki ishdan chiqarish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Harbiy mulkni behuda sarflash, ya'ni muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchisining shaxsan o'zi foydalanishi uchun berilgan harbiy aslaha-anjomlarni sotishi, foydalanish uchun birovga berishi yoki garovga qo'yishi —

*(295-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 22-dekabrda O'RQ-238-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2009-y., 52-son, 553-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bir yilgacha intizomiy qismga yuborish yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(295-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

Xizmatda foydalanish uchun ishonib topshirilgan qurol, o‘q-dori, harakat qilish vositalari, texnika ta’minoti buyumlarini saqlash qoidalarini buzish natijasida ularni yo‘qotish yoki ishdan chiqarish, —

ikki yilgacha xizmat bo‘yicha cheklash yoki bir yilgacha intizomiy qismga yuborish yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan qilmishlar jangovar vaziyatda sodir etilgan bo‘lsa, —

uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli “Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko‘rish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 5.4-bandining 5.4.1-kichik bandi, 5.4-bandi 5.4.2-kichik bandining ikkinchi — beshinchi xatboshilari.*

### **296-modda. Harbiy mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazish**

Qurol, o‘q-dori, harakat qilish vositalari, harbiy texnika yoki boshqa harbiy mulkni qasddan nobud qilish yoki unga shikast yetkazish —

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yilgacha xizmat bo‘yicha cheklash yoki bir yilgacha intizomiy qismga yuborish yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(296-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O‘RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

O‘sha qilmish og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa, —

besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha qilmish jangovar vaziyatda sodir etilgan bo‘lsa, —

o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli “Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko‘rish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 5.4-bandining 5.4.2, 5.4.3-kichik bandlari.*

### **297-modda. Atrofdagilar uchun katta xavf manbai bo‘lgan qurol-yarog‘, shuningdek modda va buyumlar bilan muomalada bo‘lish qoidalarini buzish**

Atrofdagilar uchun katta xavf manbai bo‘lgan qurol-yarog‘, shuningdek, o‘q-dori, portlovchi, radioaktiv yoki boshqa modda va buyumlar bilan muomalada bo‘lish qoidalarini buzish badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

ikki yilgacha xizmat bo‘yicha cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha qilmish:

a) ikki yoki undan ortiq shaxsning badaniga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazilishiga;

b) og‘ir shikast yetkazilishiga;

v) odam o‘lishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(297-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

O‘sha qilmish:



- a) odamlar o‘limiga;
- b) boshqa og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

sakkiz yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(297-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli “Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko‘rish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 5.1-bandi.*

### **298-modda. Mashinalarni boshqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish**

Jangovar, maxsus yoki transport mashinalarini boshqarish yoxud ulardan foydalanish qoidalarini buzish badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahrirga qarang.*

ikki yilgacha xizmat bo‘yicha cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(298-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘sha qilmish odam o‘lishiga sabab bo‘lsa, —

uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha qilmish:

- a) odamlar o‘limiga;
- b) halokatga;
- v) boshqa og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa, —

yetti yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(298-moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O‘RQ-436-son Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli “Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko‘rish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 5.2-bandi.*

### **299-modda. Uchish yoki uchishga tayyorgarlik ko‘rish qoidalarini buzish**

Uchish yoki uchishga tayyorgarlik ko‘rish qoidalarini, shuningdek, uchish apparatlaridan foydalanish qoidalarini buzish halokat yuz berishiga yoki boshqa og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa, — besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli “Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko‘rish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 5.3-bandi.*

### **300-modda. Kemani boshqarish qoidalarini buzish**

Kemani boshqarish qoidalarini buzish kemaning halokatga uchrashiga yoki unga jiddiy shikast yetkazilishiga, odamlar halok bo‘lishiga yoki boshqa og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa, —

besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

#### **XXIV bob. Harbiy mansabdorlik jinoyatlari**

##### **301-modda. Hokimiyatni suiiste’mol qilish, hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish yoki hokimiyat harakatsizligi**

Boshliq yoki boshqa mansabdor shaxsning o‘z hokimiyat yoki xizmat mavqeyini suiiste’mol qilishi, hokimiyat yoki xizmat vakolati doirasidan chetga chiqishi, shuningdek, hokimiyat harakatsizligi Qurolli Kuchlarning manfaatlariga, harbiy xizmatchi yoki boshqa fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

uch yilgacha xizmat bo‘yicha cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(301-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O‘RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

O‘sha qilmishlar badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazib, sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(301-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi 681-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1998-y., 9-son, 181-modda)*

O‘sha qilmishlar:

- a) odam o‘lishiga;
- b) boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(301-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi 681-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1998-y., 9-son, 181-modda)*

Ushbu moddada nazarda tutilgan qilmishlar jangovar vaziyatda sodir etilgan bo‘lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

o‘n besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(301-modda to‘rtinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi 681-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1998-y., 9-son, 181-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli “Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko‘rish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 4.2 — 4.5-bandlari.*

##### **302-modda. Xizmatga sovuqqonlik bilan qarash**

Boshliq yoki boshqa mansabdor shaxsning o‘z xizmat vazifalariga nisbatan pala-partish yoki vijdonsizlarcha munosabatda bo‘lishi tufayli bu vazifalarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi ko‘p miqdorda zarar yetkazilishiga yoki boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa, —

*Oldingi tahririga qarang.*

uch yilgacha xizmat bo‘yicha cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*(302-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O‘RQ-421-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'sha qilmish jangovar vaziyatda sodir etilgan bo'lsa, —  
uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 4.6-bandi.*

*(302-modda O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagi 832-I-son Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-y., 9-son, 229-modda)*

## **SAKKIZINCHI BO'LIM ATAMALARNING HUQUQIY MA'NOSI**

*Oldingi tahrirga qarang.*

**Ancha miqdor** — bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha bo'lgan miqdor.

*(sakkizinchi bo'limning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

**Ancha miqdordagi zarar** — bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha bo'lgan miqdordagi zarar.

*(sakkizinchi bo'limning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*

**Boshqa huquqiy ta'sir chorasi** — jazo hisoblanmaydigan, lekin ushbu Kodeksda nazarda tutilgan chora (voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan majburlov choralari, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari).

**Valyuta operatsiyalari** — valyuta qimmatliklariga mulk huquqining biron-bir to'lov bilan bog'liq operatsiyalar, shu jumladan tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda chet el valyutasidan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi pul birligidan to'lov vositasi sifatida foydalanish bilan bog'liq operatsiyalar; valyuta qimmatliklarini chet eldan O'zbekiston Respublikasiga keltirish va jo'natish, shuningdek ularni O'zbekiston Respublikasidan chetga olib chiqish va jo'natish; xalqaro miqyosda pul o'tkazish operatsiyalari.

**Valyuta qimmatliklari** — chet el valyutasi; chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar — fond boyliklari (aksiya, obligatsiya va boshqalar); chet el valyutasi bilan to'lanadigan to'lov hujjatlari (cheklar, veksellar, akkreditiv va boshqalar); har qanday ko'rinish va holatdagi qimmatbaho metallar — oltin, kumush, platina va platina guruhiga kiruvchi metallar (palladiy, iridiy, radiy, ruteniy va osmiy), shunday metallardan yasalgan zargarlik va boshqa ro'zg'or buyumlari hamda ularning rezgilari bundan mustasno; xomashyo yoki ishlov berilgan holatdagi tabiiy qimmatbaho toshlar — olmos, yoqut, zumrad, sapfir, aleksandritlar, shuningdek marvaridlar, shunday toshlar hamda ularning rezgilaridan yasalgan zargarlik va boshqa ro'zg'or buyumlari bundan mustasnodir.

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **Giyohvandlik vositalari**

— giyohvandlik vositalari ro'yxatlariga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi mavjud bo'lgan preparatlar va o'simliklar

*(sakkizinchi bo'limning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

**Giyohvandlik vositalarining analoglari** — kimyoviy tuzilishi va xossalari ko'ra giyohvandlik vositalariga o'xshash bo'lgan, ular singari ruhiyatga faol ta'sir etadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar

*(sakkizinchi bo'lim O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuniga asosan yettinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

<b>Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishdagi ko'p miqdor</b>	— tegishli davlat organi tomonidan belgilanadi.
--	---

*(sakkizinchi bo'limning sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-avgustdagi O'RQ-711-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

**Giyohvandlik vositalaridan, ularning analoglaridan yoki psixotrop moddalardan qonunga xilof ravishda foydalanishdagi ozginadan ko'proq miqdor**

— tegishli davlat organining xulosasiga muvofiq belgilanadi.

*(sakkizinchi bo'limning to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

<b>Davlat ishtirokidagi tashkilot</b>	— 1) ustav fondida davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat tashkiloti; 2) to'liq yoki qisman davlat organi yoki davlat tashkiloti tomonidan tashkil etilgan yoki ta'sis etilgan notijorat tashkiloti.
---------------------------------------	---

*(sakkizinchi bo'lim O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O'RQ-391-sonli Qonuniga asosan atama bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*

**Davlat siri**

— oshkor etilishi respublika harbiy iqtisodiy salohiyatining sifat holatiga salbiy ta'sir etishi yoki O'zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati, davlat xavfsizligi, iqtisodiy va siyosiy manfaatlari uchun boshqa og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar.

**Davlat sirlari**

— davlat tomonidan qo'riqlanadigan va maxsus ro'yxatlar bilan cheklab qo'yilgan o'ta muhim, mutlaq maxfiy va maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va boshqa ma'lumotlardir. O'zbekiston Respublikasining davlat sirlari: davlat, harbiy va xizmat siriga bo'linadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

- Juda ko‘p zarar** — bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravari va undan ortiq bo‘lgan miqdordagi zarar.  
*(sakkizinchi bo‘limning o‘n ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*  
*Oldingi tahrirga qarang.*
- Juda ko‘p miqdor** — bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravari va undan ortiq bo‘lgan miqdor.  
*(sakkizinchi bo‘limning o‘n uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*  
*Oldingi tahrirga qarang.*
- Zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulot** — tarixiy, ilmiy, badiiy qimmatga yoki o‘zga madaniy qimmatga ega bo‘lmagan, zo‘ravonlik yoki shafqatsizlik sodir etishga undaydigan materiallar va narsalar  
*(sakkizinchi bo‘limning o‘n to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-aprelda O‘RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)*
- Katta ekin maydoni** — 1000 kvadrat metr va undan ortiq bo‘lgan ekin maydoni  
*Oldingi tahrirga qarang.*
- Ko‘p bo‘lmagan zarar** — bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo‘lgan miqdordagi zarar.  
*(sakkizinchi bo‘limning o‘n beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*  
*Oldingi tahrirga qarang.*
- Ko‘p miqdor** — bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha bo‘lgan miqdor.  
*(sakkizinchi bo‘limning o‘n oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*  
*Oldingi tahrirga qarang.*
- Ko‘p miqdordagi zarar** — bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha bo‘lgan miqdordagi zarar.  
*(sakkizinchi bo‘limning o‘n yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)*
- Ko‘pchilik uchun xavfli usul** — o‘t qo‘yish, portlatish, suv bostirish va odamlar xalok bo‘lishi yoki ko‘p miqdorda zarar yetkazish xavfini tug‘diradigan boshqa usullar.  
*Oldingi tahrirga qarang.*
- Mansabdor shaxs** — doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo‘yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat’i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma‘muriy-xo‘jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xuddi shuningdek xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning



qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs.

*(sakkizinchi bo'limning o'n to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O'RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(sakkizinchi bo'limning yigirmanchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O'RQ-391-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — O'R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **Odamlardan foydalanish**

— boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanish yoki ulardan shahvoniy foydalanishning boshqa shakllari, majburiy mehnat yoki xizmatlar, qullik yoki qullikka o'xshash odatlar, erksiz holat yoxud inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olish.

*(sakkizinchi bo'lim O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 16-sentabrdagi O'RQ-179-sonli Qonuni asosida atama bilan to'ldirildi — O'R QHT, 2008-y., 37-38-son, 366-modda)*

### **Oldindan ayon bo'lish**

— qonunda bayon etilgan xulq-atvor va shart-sharoitlarga munosabat va bu munosabatning shaxs ulardan xabardorligidan dalolat berishi.

### **Oldindan til biriktirish**

— jinoyat ishtirokchilari o'rtasida jinoyat sodir etish yoki jinoyiy faoliyat bilan shug'ullanish to'g'risida bunday harakatlarni amalga oshirishdan avval kelishib olish.

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **Prekursorlar**

— prekursorlar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini va psixotrop moddalarni tayyorlash uchun foydalaniladigan moddalar

*(sakkizinchi bo'limning yigirma beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

### **Poraxo'rlik**

— pora olish, pora berish yoki bu jinoyatlarda vositachilik qilish.

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **Pornografik mahsulot**

— pornografik asar, shuningdek badiiy qimmatga ega bo'lmagan va ilmiy, tibbiy yoki o'quv maqsadlari uchun mo'ljallanmagan, odam jinsiy a'zolarining yoki odam tomonidan haqiqatda sodir etilayotgan yoki shunga o'xshatilgan yoxud kompyuter texnologiyalari yordamida yaratilgan jinsiy aloqaning tavsifini yoki foto-, video tasvirini yoki boshqa tasvirini o'z ichiga olgan materiallar va narsalar

*(sakkizinchi bo'limning yigirma yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrdagi O'RQ-658-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2020-y., 03/20/658/1670-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **Psixotrop moddalar**

— psixotrop moddalar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar

*(sakkizinchi bo'limning yigirma sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **Radioaktiv materiallar**

— qurilmada yoki buyum tarkibida har qanday fizik holatda

yoinki boshqa ko‘rinishda turgan ion nurlari tarqatuvchi manbalar, radioaktiv moddalar yoki yadro materiallari.

*(sakkizinchi bo‘lim O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-apreldagi O‘RQ-405-sonli Qonuniga asosan atama bilan to‘ldirilgan — O‘R QHT, 2016-y., 17-son, 173-modda)*

- Tamom bo‘lgan jinoyat** — muayyan jinoyat tarkibining barcha zarur alomatlarini o‘z ichiga oladigan ijtimoiy xavfli qilmish.
- Tamom bo‘lmagan jinoyat** — shaxsga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra yoki jinoyat qilishdan ixtiyoriy ravishda qaytish tufayli oxiriga yetkazilmay qolgan jinoyat.
- Fuqaroligi bo‘lmagan shaxs** — biron-bir davlatning fuqarosi yuridik maqomiga ega bo‘lmagan jismoniy shaxs.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(sakkizinchi bo‘limning 28, 29, 30-xatboshilari O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 30-avgustdagi 405-II-sonli Qonuni bilan chiqarib tashlangan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2002-y., 9-son, 165-modda)*

- Xizmat siri** — oshkor qilinishi O‘zbekiston Respublikasi manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan fan, texnika, ishlab chiqarish va boshqaruv sohalariga doir ma‘lumotlar.

*Oldingi tahrirga qarang.*

<b>Xizmatchi</b> — davlat organida, tijorat, notijorat tashkilotida mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi, mansabdor shaxs alomatlariga ega bo‘lmagan shaxs.
---

*(sakkizinchi bo‘lim O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O‘RQ-391-sonli Qonuniga asosan atama bilan to‘ldirilgan — O‘R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)*

- Xo‘jalik yurituvchi subyekt** — mulk shaklidan qat‘i nazar, korxonalar va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fuqarolar.
- Chet el valyutasi** — 1) tegishli chet el davlatining muomalasida bo‘lgan va qonuniy to‘lov vositasi hisoblangan, shuningdek, muomaladan chiqarilgan yoki chiqarilayotgan, lekin O‘zbekiston Respublikasining pul belgisi bilan almashtirilishi lozim bo‘lgan banknot tarzidagi chet el pul belgisi;  
2) chet el davlatlarining pul birliklarida va xalqaro hisob-kitob birliklaridagi schyotlar va omonatlardagi mablag‘lar.
- Chet el fuqarosi** — biron bir chet el davlat fuqarosining yuridik maqomiga ega bo‘lgan shaxs.

*Oldingi tahrirga qarang.*

- Yaqin qarindoshlar** — qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya‘ni ota-ona, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillari.

*(sakkizinchi bo‘limning o‘ttiz oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-apreldagi O‘RQ-405-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2016-y., 17-son, 173-modda)*

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi** — qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi yuridik maqomiga ega bo‘lgan shaxs.
- O‘rtacha kattalikdagi ekin maydoni** — 250 kvadrat metrdan 1000 kvadrat metrgacha bo‘lgan ekin maydoni.
- Qilmish** — harakat yoki harakatsizlik.

*Oldingi tahrirga qarang.*

**Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yin**

— o‘yin tashkilotchisi (o‘yin muassasasi) tomonidan bir yoki undan ortiq ishtirokchilar bilan tasodifga (voqeaga) va (yoki) o‘yin ishtirokchisining qobiliyati, epchilligi va boshqa sifatlariga bog‘liq yutuq to‘g‘risida tuzilgan, tavakkalchilikka asoslangan bitimga muvofiq o‘yin tashkilotchilari va ishtirokchilarining xatti-harakatlari majmuini nazarda tutuvchi o‘yin, shu jumladan totalizatorlar, kazino, shuningdek o‘yin avtomatlaridan foydalaniladigan o‘yin.

*(sakkizinchi bo‘lim O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-109-sonli Qonuni asosida atama bilan to‘ldirilgan — O‘R QHT, 2007-y., 37-38-son, 377-modda)*

**G‘arazgo‘ylik niyatlari**

— sodir qilingan jinoyatdan moddiy yoki boshqacha mulkiy yo‘sindagi foyda olish yoxud moddiy xarajatlardan qutilishga intilishda ifodalangan niyat.

**Harakat**

— shaxsning ijtimoiy xavfli, ongli va faol xulq-atvori.

**Harakatsizlik**

— shaxsning normativ hujjatlarda bajarishi shart qilib belgilangan muayyan harakatlarni bajarmaslikda ifodalangan ijtimoiy xavfli, ongli va sust xulq-atvori.

**Harbiy jinoyatlar**

— harbiy xizmatchilar, shuningdek harbiy mashqni o‘tash davrida harbiy xizmatga majbur shaxslar tomonidan harbiy xizmatni o‘tashning belgilangan tartibiga qarshi qilingan jinoyatlar.

**Harbiy sir**

— oshkor qilinishi O‘zbekiston Respublikasi mudofaa qobiliyati, davlat xavfsizligi va Qurolli Kuchlari uchun og‘ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan harbiy yo‘sindagi ma‘lumotlar.

**Hokimiyat vakili**

— davlatning biron-bir hokimiyat organining nomidan ish ko‘rib, muayyan vazifalarni doimiy yoki vaqtincha amalga oshiruvchi va o‘z vakolatlari doirasida ko‘pchilik yoxud barcha fuqaro yoki mansabdor shaxslar uchun majburiy bo‘lgan harakatlarni sodir etish yoki farmoyishlar berish huquqiga ega bo‘lgan shaxs.

**Hujjat**

— huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan fakt va voqealarni tasdiqlovchi, lozim darajada tuzilgan va zaruriy rekvizitlari (shtamp, imzo, muhr, sana, tartib raqami) mavjud bo‘lgan yozma hujjat.

*Oldingi tahrirga qarang.*

**Kuchli ta’sir qiluvchi moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lishdagi yoki tarkibida kuchli ta’sir qiluvchi moddalar mavjud bo‘lgan dori vositalarini retsept bo‘yicha chakana realizatsiya qilish tartibini buzishdagi ko‘p miqdor**

— tegishli davlat organi tomonidan belgilanadi.

*(sakkizinchi bo‘lim O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-avgustdagi O‘RQ-711-sonli Qonuniga asosan atama bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son)*

(O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 1-son, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 9-son, 144-modda; 1997-y., 2-son, 56-modda, 9-son, 241-modda; 1998-y., 5-6-son, 102-modda, 9-son, 181-modda; 1999-y., 1-son, 20-modda, 5-son, 124-modda, 9-son, 229-modda; 2000-y., 5-6-son, 153-modda; 2001-y., 1-2-son, 23-modda, 9-10-son, 165-modda; 2002-y., 9-son, 165-modda; 2003-y., 1-son, 8-modda, 9-10-son, 149-modda; 2004-y., 1-2-son, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-y., 6-son, 248-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-y., 37-son, 408-modda; 2005-y., 39-son, 294-modda, 52-son, 384-modda, 385-modda; 2006-y., 25-26-son, 226-modda, 51-52-son, 498-modda; 2007-y., 14-son, 134-modda, 17-18-son, 171-modda, 37-38-son, 377-modda, 39-son, 401-modda, 52-son, 532-modda; 2008-y., 14-15-son, 94-modda, 16-son, 116-modda, 117-modda, 28-son, 263-modda, 37-38-son, 366-modda, 39-son, 390-modda, 391-modda, 52-son, 513-modda, 514-modda; 2009-y., 3-son, 9-modda, 15-son, 171-modda, 37-son, 402-modda, 38-son, 414, 415-moddalar, 39-son, 423-modda, 52-son, 553-modda; 2010-y., 20-son, 147-modda, 21-son, 161-modda, 38-son, 329-modda, 51-son, 482-modda, 52-son, 509-modda; 2011-y., 1-2-son, 1-modda; 2012-y., 15-son, 166-modda, 37-son, 423-modda; 2013-y., 1-son, 1-modda, 18-son, 233-modda, 41-son, 543-modda; 2014-y., 4-son, 45-modda, 20-son, 222-modda, 36-son, 452-modda, 50-son, 588-modda; 2015-y., 23-son, 301-modda, 32-son, 425-modda, 33-son, 439-modda, 52-son, 645-modda; 2016-y., 17-son, 173-modda, 39-son, 457-modda, 52-son, 597-modda; 2017-y., 1-son, 1-modda, 13-son, 194-modda, 24-son, 487-modda, 36-son, 943-modda, 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.01.2018-y., 03/18/459/0536-son, 05.04.2018-y., 03/18/470/1005-son, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son, 21.07.2018-y., 03/18/485/1552-son, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son; 10.01.2019-y., 03/19/514/2450-son, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son, 05.03.2019-y., 03/19/526/2701-son, 03.05.2019-y., 03/19/534/3046-son, 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son, 29.05.2019-y., 03/19/543/3201-son, 09.07.2019-y., 03/19/548/3395-son, 31.08.2019-y., 03/19/560/3677-son; 13.09.2019-y., 03/19/567/3737-son; 06.11.2019-y., 03/19/579/3994-son, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son; 23.01.2020-y., 03/20/603/0071-son, 26.03.2020-y., 03/20/613/0362-son, 22.07.2020-y., 03/20/629/1087-son, 05.10.2020-y., 03/20/640/1348-son, 06.11.2020-y., 03/20/645/1469-son, 04.12.2020-y., 03/20/653/1592-son; 26.12.2020-y., 03/20/658/1670-son; 15.01.2021-y., 03/21/667/0035-son, 13.02.2021-y., 03/21/673/0112-son, 18.02.2021-y., 03/21/675/0126-son; 30.03.2021-y., 03/21/679/0256-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son, 05.10.2021-y., 03/21/719/0929-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son; 07.12.2021-y., 03/21/735/1141-son; 16.02.2022-y., 03/22/754/0134-son)